


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIMNING  
DAVLAT TA‘LIM STANDARTI VA O‘QUV DASTURI**

**TEXNOLOGIYA  
JISMONIY TARBIYA  
(1-9-SINF)  
TASVIRIY SAN‘AT  
MUSIQA MADANIYATI  
(1-7-SINF)  
CHIZMACHILIK  
(8-9-SINF)**



**Toshkent-2017**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI  
UMUMIY O‘RTA VA O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR  
TA‘LIMINING DAVLAT TA‘LIM STANDARTLARINI TASDIQLASH  
TO‘G‘RISIDA**

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumta‘lim fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi davlat ta‘lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti 1-ilovaga muvofiq;

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standarti 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining umumta‘lim fanlari bo‘yicha malaka talablari 3-ilovaga muvofiq;

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji diplomlarining davlat namunalari 4-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun umumta‘lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan umumiy talablar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etiladi;

umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflari uchun filologiya fanlari va aniq fanlar bo‘yicha mashq daftarlarini nashr etish hamda yetkazib berish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 1-iyundagi PQ-363-son qarorida belgilangan darsliklarni nashr etish hamda yetkazib berishni moliyalashtirish tartibiga asosan, multimediali disk ilovasi bilan ta‘minlash esa — o‘qituvchilarni o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlash tartibi asosida amalga oshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi:

ikki oy muddatda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlari talablari asosida o‘quv dasturlarini yangidan ishlab chiqib, belgilangan tartibda tasdiqlasalar hamda umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalariga yetkazsinlar;

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda yaratilayotgan o‘quv-metodik majmualarning o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga

undaydigan, rasmlarga boy, zamonaviy matbaa talablariga javob beradigan shakllarda chop etilishini ta'minlasinlar;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini amaliyotga samarali joriy etish yuzasidan tegishli mutaxassislar uchun 2017-2018 o'quv yilidan boshlab maqsadli o'quvlar tashkil etsinlar hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari dasturlari va o'quv modullarining qayta ko'rib chiqilishini ta'minlasinlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2017-2018 o'quv yiliga qadar akademik litseylarning ta'lim yo'nalishlari va kasb-hunar kollejlarning tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi taqdim etgan xarajatlar smetalari asosida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari, akademik litseylarning ta'lim yo'nalishlari va kasb-hunar kollejlarning tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha malaka talablarini, o'quv rejalari va dasturlarini, akademik litsey va kasb-hunar kolleji diplomlari blankalarini chop etish uchun sarflanadigan mablag'larni belgilangan tartibda ajratsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 6-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 7-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari 2020-yil 1-sentabrdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Vazirliklar va idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va ilm-fan masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017 yil 6 aprel,  
187-son

**Umumiy oʻrta taʼlimning  
DAVLAT TAʼLIM STANDARTI**

**1-bob. Asosiy qoidalar**

1. Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standarti (keyingi oʻrinlarda davlat taʼlim standarti deb ataladi) davlat taʼlim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat taʼlim standartlarini joriy etish hamda davlat taʼlim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Davlat taʼlim standartini ishlab chiqish quyidagi hujjatlarga asoslanadi:

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

«Taʼlim toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni;

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz taʼlim tizimi uchun davlat taʼlim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish toʻgʻrisida» 1998-yil 5-yanvardagi 5-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz taʼlim tizimining chet tillar boʻyicha davlat taʼlim standartini tasdiqlash toʻgʻrisida» 2013-yil 8-maydagi 124-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy oʻrta taʼlim toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash toʻgʻrisida»gi 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori;

OʻzDSt 1.0-98. «Oʻzbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar»;

OʻzDSt 1.1-92. «Oʻzbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Oʻzbekiston Respublikasi standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va roʻyxatdan oʻtkazish tartiblari»;

Oʻz DSt 1.5-93. «Standartlashtirishga doir normativ hujjatlarni koʻrib chiqish, tekshirish, oʻzgartirish kiritish va bekor qilish tartibi»;

Oʻz DSt 1157:2008. Hujjatlarni unifikatsiyalashtirish tizimi. Tashkiliy-farmoyish hujjatlar tizimi. Hujjatlarni rasmiylashtirishga boʻlgan talablar.

Oʻz DSt 1.8:2009. Asosiy qoidalar. Tavsiyalar.

3. Davlat taʼlim standartini bajarish Oʻzbekiston Respublikasi hududida faoliyat koʻrsatayotgan barcha umumiy oʻrta taʼlim muassasalari uchun majburiydir.

**2-bob. Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartining maqsad va vazifalari**

4. Davlat taʼlim standartining maqsadi — umumiy oʻrta taʼlim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

5. Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;  
milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

### **3-bob. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplari**

6. Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

### **4-bob. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlari**

7. Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;

baholash tizimi.

8. Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi (keyingi o'rinlarda — tayanch o'quv reja deb ataladi) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

9. Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

10. Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

### Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv

#### REJASI

T/r	O'quv fanlari	Sinflar									Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	
	Davlat ixtiyoridagi soatlar	22	24	26	26	30,5	32,5	33,5	34	36	264,5
1.	Ona tili va adabiyot	8	8	10	10	9	7	5	5	5	67
2.	O'zbek tili/rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	16
3.	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	23
4.	Tarix					2	2	3	3	4	14
5.	Davlat va huquq asoslari								1	1	2
6.	Iqtisodiy bilim asoslari								1	1	2
7.	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	45
8.	Informatika va axborot texnologiyalari					0,5	0,5	0,5	1	2	4,5
9.	Fizika						2	2	2	2	8
10.	Kimyo							2	2	2	6
11.	Biologiya					1	2	2	2	2	9
12.	Tabiiyot va geografiya	1	1	1	1	1	2	2	2	2	13
13.	Odobnoma	1	1	1	1						4
	Vatan tuyg'usi					1	1				2
	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari							1	1	1	3
14.	Musiq madaniyati	1	1	1	1	1	1	1			7
15.	Tasviriy san'at	1	1	1	1	1	1	1			7
16.	Chizmachilik								1	1	2
17.	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1	12
18.	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	2	2	2	2	18
	Maktab ixtiyoridagi soatlar	0,5						0,5	0,5	1	2,5
	Umumiy soatlar	22,5	24	26	26	30,5	32,5	34	34,5	37	267
	Amaliy mehnat mashg'uloti (kun hisobida)					6	6	10	16		

11. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15 %gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

12. Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi (keyingi o'rinlarda — o'quv dasturi deb ataladi) tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

13. Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

**bilim** — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

**ko'nikma** — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

**malaka** — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

**kompetensiya** — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

14. Baholash tizimi — davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

#### **5-bob. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini joriy etish tartibi**

15. O'zbekiston Respublikasida davlat ta'lim standartini joriy etish, muvofiqlashtirish, unga metodik rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

16. Davlat ta'lim standartini joriy etish, shu jumladan, umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan minimal talablarni, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlash pedagogik tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, ularga ekspert baho berilgach amalga oshiriladi.

17. Davlat ta'lim standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

#### **6-bob. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti talablariga rioya etilishini nazorat qilish**

18. Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat ta'lim standarti talablarini bajarish darajasini

aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta'lim sifatini ta'minlashdan iborat.

19. Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

davlat ta'lim standarti talablari asosida barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan malaka talablariga baho berish;  
tayanch o'quv reja va o'quv dasturlarining bajarilishini tahlil qilish;  
umumiy o'rta ta'lim muassasasida davlat ta'lim standartlari talablari bajarilishi va ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni, foydalanilgan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining natijaviyligini tahlil qilish.

20. Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

**ichki nazorat** — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o'rta ta'lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi;

**tashqi nazorat** — ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi;

**davlat-jamoatchilik nazorati** — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

**milliy va xalqaro darajada baholash** — Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta'limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

21. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarining bilimi sifatini nazorat qilishning reyting tizimi tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlanadi.

22. Davlat ta'lim standarti talablarining bajarilmaganligi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbariyatiga yuklanadi.



**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim  
fanlari boʻyicha  
MALAKA TALABLARI  
I-bob. Umumiy qoidalar  
1-§. Qoʻllanish sohasi**

1. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablari (keyingi oʻrinlarda — Malaka talablari deb ataladi) umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi davlat taʼlim standartlarining negizi hisoblanadi va standartlashtirishning umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning bosqichlarini, oʻquv fanlari boʻyicha taʼlim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

2. Malaka talablari taʼlimni boshqarish boʻyicha vakolatli davlat organlari hamda umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim faoliyati bilan shugʻullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan qoʻllanilishi majburiydir.

3. Malaka talablari asosida taʼlim muassasasining turi va xususiyatlarini inobatga olgan holda oʻquv dasturlari, davlat attestatsiyasi uchun umumtaʼlim fanlari boʻyicha nazorat-baholash koʻrsatkichlari ishlab chiqiladi va vakolatli vazirliklar, idoralar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

**2-§. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimida umumtaʼlim fanlarini oʻrganish bosqichlari**

4. Oʻzbekiston Respublikasi umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimida davlat taʼlim standartlariga asoslangan holda umumtaʼlim fanlarini oʻrganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

<b>Standart darajalari</b>	<b>Darajalarning nomlanishi</b>
<b>A1</b>	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
<b>A1+</b>	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan boshlangʻich darajasi
<b>A2</b>	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning tayanch darajasi
<b>A2+</b>	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
<b>B1</b>	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning umumiy darajasi
<b>B1+</b>	Umumtaʼlim fanlarini oʻrganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

**3-§. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablarining tuzilishi**

5. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablari:

oʻquv fanini oʻrganishning bosqichlarini;

tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni;  
o'quv fanining maqsad va vazifalarini;  
umumta'lim fanlarini o'rganishning mazmunini;  
umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha majburiy tayyorgarlik darajalarini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

#### **4-§. Tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar**

6. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

**Kommunikativ kompetensiya** — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi** — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya** — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi** — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim muassasalari uchun  
umumtaʼlim fanlaridan oʻquv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab  
chiqishga qoʻyiladigan  
UMUMIY TALABLAR**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Umumiy talablar Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi toʻgʻrisida»gi qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumtaʼlim maktablari oʻquvchilarini darsliklar bilan taʼminlash tizimini takomillashtirish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» 2006-yil 31-maydagi 362-son, Vazirlar Mahkamasining «2005-2009 yillarda umumtaʼlim maktablari uchun darsliklar va oʻquv-metodik qoʻllanmalar nashr etish dasturi toʻgʻrisida» 2004-yil 22-noyabrdagi 548-son hamda «2009-2013 yillarda oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari uchun oʻquv qoʻllanmalarini nashr etish dasturi toʻgʻrisida» 2009-yil 20-martdagi 80-son qarorlariga muvofiq, umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari uchun oʻquv-metodik majmualarni ishlab chiqish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Umumiy talablarda quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

**Oʻquv-metodik majmua** — darslik, mashq daftari, oʻqituvchi uchun metodik qoʻllanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

**Darslik** — davlat taʼlim standartlariga muvofiq oʻquv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, oʻquv fanining mavzulari toʻliq yoritilgan, uning asoslari mukammal oʻzlashtirilishiga qaratilgan, oʻquv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda taʼlim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy maʼlumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi oʻquv nashri.

**Mashq daftari** — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat taʼlim standartlariga muvofiq oʻquvchilar tomonidan egallangan bilim va koʻnikmalarni mustahkamlash hamda oʻquv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat boʻlgan didaktik vosita.

**Oʻqituvchi uchun metodik qoʻllanma** — darslikdagi har bir mavzuni samarali oʻqitish metodikasi, qoʻshimcha sinov topshiriqlari va oʻqituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik koʻrsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashgʻulotlar, qoʻshimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik koʻrsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi oʻquv nashri.

**Darsliklarning multimediali ilovalari** — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

3. O'quv-metodik majmualar davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimediali ilovalarini o'z ichiga oladi.

4. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qonun hujjatlari hamda ushbu Umumiy talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

### **2-bob. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsad va vazifalari**

5. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsadi umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun zamonaviy fan va texnika rivojini hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida o'quv materiallari mazmuni va sifatini takomillashtirish hamda ushbu sohadagi ilg'or xorijiy tajribani samarali tatbiq etishdan iborat.

6. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor, moddiy va ma'naviy merosga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish;

davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

yangi avlod o'quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

### **3-bob. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish prinsiplari**

7. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

#### **4-bob. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar**

8. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

##### **Didaktik talablar:**

o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash; matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi illustrasiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

##### **Ilmiy-metodik talablar:**

fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illustrasiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo'l qo'yilmasligi;

kasb-hunarga yo'naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi lozim.

##### **Pedagogik-psixologik talablar:**

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

**Estetik talablar:**

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibli ta'minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

**Gigiyenik talablar:**

matn va ilustrasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) Vazirlar Mahkamasining «Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to'g'risida» 2015-yil 3-iyundagi 146-son qarori talablariga mos bo'lishi lozim.

# TEXNOLOGIYA FANI O‘QUV DASTURI (1-9-sinf)

## UQTIRISH XATI

O‘quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro‘zg‘orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi** - o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:**

materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish;

texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;

texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish;

texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;

ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fani boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda “**Texnologiya va dizayn**”, “**Servis xizmati**” yo‘nalishlarida o‘qitiladi.

Texnologiya fani quyidagi bo‘limlar asosida o‘qitiladi.

### **1-4-sinflar uchun**

1. Qog‘oz va karton bilan ishlash.
2. Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash.
4. Badiiy qurish-yasash va texnik modellashtirish.

### **5-7-sinflar uchun:**

#### **Texnologiya va dizayn yoʻnalishi:**

1. Yogʻochga ishlov berish texnologiyasi.
2. Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi.
3. Metallga ishlov berish texnologiyasi.
4. Elektrotexnika ishlari.
5. Roʻzgʻorshunoslik asoslari.

#### **Servis xizmati yoʻnalishi:**

1. Pazandachilik asoslari.
2. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi.
3. Roʻzgʻorshunoslik asoslari.

### **8-9 sinflar uchun**

#### **Texnologiya va dizayn yoʻnalishi:**

1. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi.
2. Elektronika asoslari.
3. Kasb tanlashga yoʻnaltirish.

#### **Servis xizmati yoʻnalishi:**

1. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi.
2. Roʻzgʻorshunoslik asoslari.
3. Kasb tanlashga yoʻnaltirish.

Malakali oʻqituvchilar yetarli boʻlgan V-IX sinflarda “Texnologiya” oʻquv fanidan oʻquvchilar soni 25 nafar va undan ziyod boʻlgan umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida ikki guruhga boʻlib oʻqitishga ruxsat etiladi.

Texnologiya fanini oʻqitishda boshlangʻich sinflarda “Iqtisod alifbosi”, yuqori sinflarda “Sogʻlom avlod asoslari”, “Hayot xavfsizligi asoslari” hamda “Iqtisod saboqlari” oʻquv kurslari singdirilib oʻqitiladi.

Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, oʻquvchilarga texnologiya fanini yoʻnalishlari boʻyicha kasb turlari haqida axborotlar beriladi.

Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimning uzluksizligi, uzviyligi, oʻquvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

### **Kommunikativ kompetensiya:**

#### **A1**

texnologiya faniga oid atamalarni muloqot jarayonida qoʻllay olish;  
tayyorlanadigan buyum koʻrinishini sodda bayon qilish;  
mavzu boʻyicha savollar berish hamda savollarga javob berish;  
muloqotda muomala odoibiga rioya qilish, suhbatdoshining fikrini tinglay olish, oʻz fikrini tushuntira bilish.



### **A1+**

maktabda, ko'chada, uydagi turli vaziyatlarda o'zini tuta olish muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga rioya qilish;  
olgan bilimlari asosida mustaqil fikr yuritish;  
yasalgan buyumlarga mustaqil ravishda munosabat bildirish.

### **A2**

texnologiya faniga oid atamalarni xorijiy tillardan ifodalay olish, o'z do'stlari bilan texnika tilida muloqotga kirisha olish;

mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

### **A2+**

texnologiya faniga oid suhbat jarayonida suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qilish va unga ishontirish;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildirish va zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish.

## **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

### **A1**

texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko'rish, o'rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma'lumotlarni o'rganib borish.

### **A1+**

texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish;

fayllarni ochishda media-madaniyatga rioya qilish.

### **A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo'natish) foydalana olish;

media vositalardan texnologiya fanini o'rganishga oid zarur bo'lgan axborotlarni izlab topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlashda xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish.

### **A2**

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish, texnologik xarita va sxemalarga oid manbalarni qidirib topish, o'rganish, tahlil qilish, tatbiq qilish.

## **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

### **A1**

texnologiya fanini o'rganish;

amaliy ishni bajarishda tozalikka rioya qilish, kattalarni gapiga quloq tutish, "Mohir qo'llar" to'garagida fanlarni o'qib-o'rganish, mehnatsevarlik, to'g'rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo'lish;

to'g'ri so'z bo'lish, o'rtoqlarining xatosini tushuntirish, kattalarga, kichiklarga, o'rtoqlariga yordam berish, o'qib-o'rganish orqali bilimni oshirib borish.

**A1+**

texnologiya faniga oid turli yo'nalishdagi kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish;

o'zini xato va kamchiligini to'g'ri tushunish, xatolarini tuzatishga harakat qilish, o'zini nazorat qilish.

**A2**

texnologiya fanini yo'nalishlar bo'yicha chuqurroq o'rganish, yo'nalishlarni bugungi kun talabi bo'yicha o'z ixtirolarini olib kirish, har bir buyumni tayyolashda dizayner-modelerlik kasbi bo'yicha yondasha olish, shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish;

guruhlarda ishlashda ma'suliyatni o'ziga olish, lider bo'la olish, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish;

konstitutsion huquq va burchlaridan to'g'ri foydalana olish;

jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish.

**A2+**

shaxs sifatida o'z qiziqishlariga qarab, qobiliyatlarini namoyon qila olish, ongli kasb tanlash, halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlariga ega bo'lish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A1**

o'zining o'quvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish, sinfda va oilada o'z o'rniga ega bo'lish;

o'zidan kattalarga, o'rtoqlari va o'zidan kichiklarga yordam berish, maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish va muomala madaniyatga amal qilish;

kattaga hurmat, kichikka izzatda bo'lish kabi sifatlarga ega bo'lish, oiladagi o'z o'rnini hamda vazifalarini anglay olish; maktab binosi, sinfdagi jihozlar.

**A1+**

mebellarni asrab-avaylash farzandlik va o'quvchilik burchini bilish, unga amal qilish;

o'zining yoshiga nisbatan qanday huquqlari borligini bilish, sinfdagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash;

maktabda, oilada, turar joyida bo'layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h.k.) ishtirok etish.

**A2**

sog'lom e'tiqod va dunyoqarash tushunchalarini bilish;

jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘lmaslik, o‘z munosabatini bildirish;

kasblarning mohiyatini tushunish va ongli ravishda tanlash.

**A2+**

Inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini bilish va unga amal qilish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A1**

orasta kiyinish va doimo shunga amal qilish, do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘lish, orasta kiyinish, yurish-turishda kattalardan o‘rnak olish, o‘z uyi, maktabi, turar mahallasini qadrlash;

ozodalikka rioya qilish, milliy bayramlarini bilish, o‘quvchining odob-axloq qoidalari tushunchaga ega bo‘lish, o‘zi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarini bilish.

**A1+**

san’at turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlay olish, san’at asarlarini tahlil qilish, maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish, ziyorat qilish odobiga amal qilish, milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy an’analar, bayramlar, sayillar) bilish.

**A2**

xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlarida ularning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini o‘rganish, avaylab asrash, an’ana va marosimlarini hurmat qilish.

**A2+**

xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlarida ularning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini o‘rganish, avaylab asrash, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A1**

oilasida nechta odam borligi, kim katta, kim kichikligini bilish, maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish;

kundalik rejalarini tuza olish; kundalik faoliyatda turli chizmalarni chiza olish, mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish;

isrof va tejamkorlikning ma’nosini tushunish va kundalik hayotda unga amal qilish.

**A1+**

dars jarayonida zarur bo‘ladigan o‘quv qurollari, xomashyolardan tejamkorlikka rioya qilgan holda foydalanish, bir kunlik xarajatlarini hisoblashni bilish;

texnika turlari va ularni qachon paydo bo‘lganligini bilish.

## **A2**

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.

## **A2+**

mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga tutgan o'rni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera olish, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o'sish sur'atlarini bilish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni o'qiy olish va foydalana olish.

Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch va fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

### **I. TK-tayanch kompetensiya**

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umuminsoniy kompetensiya
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

### **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1-Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi:
2. FK2-Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya:
3. FK3-To'g'ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi:

## **1-SINF**

**(haftasiga 1 soatdan, 33 soat)**

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:** **Kommunikativ kompetensiya:**

texnologiya faniga oid atamalarni to'g'ri talafuz qila olish.

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

turli manbalardan axborotlarni eshitish, ko'rish va tushunish.

### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

texnologiya faniga oid bilimlarini boyitish, tirishqoqlikni, qo'l harakati motorikasini rivojlantirish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o'zining o'quvchilik burchini bilish, jamoada ishlay olish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

xalq hunarmandchilik sohalariga oid ma'lumotlar va kasb-hunarlarini haqida tushunchaga ega bo'lish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

tabiiy va turli materiallardan foydalanishda tejamkorlikka rioya qilish.

## **Qog'oz va karton bilan ishlash**

**(4 soat)**

**1-mavzu.** Texnologiya darslarida xavfsiz mehnat usullari va o'quv qurollari bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi qoidalari. (1 soat)

Qaychi, yelim, qog'oz bilan ishlashda xavfsiz mehnat usullar, qalam, qaychi, o'chirg'ich, chizg'ich, sirkul, bigiz va boshqalar rangli va oddiy qog'ozlar bilan ishlash.

**2-mavzu.** Qog'oz va uning turlari. Qog'ozni buklash usullari. (1 soat)

Qog'ozni buklashning oddiy usullaridan foydalanib, kema, qayiq va h.k.o'yinchoqlar yasash)

**3-mavzu.** Kitob uchun xatcho'p yasash. (1 soat)

Kitob uchun xatcho'p yasash bosqichlari

**4-mavzu.** Kvadrat shaklidagi qog'ozni buklash orqali hayvonlar shaklini yasash. (1 soat)

Qog'ozni buklash usulidan foydalanib, kuchuk va mushukchani yasash bosqichlari.

## **Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash**

**(5 soat)**

**5-mavzu.** Tabiiy materiallar haqida tushuncha. Tabiiy materiallardan "Oltin kuz" manzarasini tayyorlash. (1 soat)

Tabiiy materiallarga nimalar kiradi, uni ishga tayyorlash qoidalari.

**6-7-mavzu.** Tabiiy materiallardan har xil shakldagi jonivorlar shaklini yasash. (2 soat)

Kapalak, ninachi, parranda, hayvonlar va h.k.

**8-9-mavzu.** Tabiiy va turli materiallardan parrandalar yasash. (2 soat)

Tabiiy va turli materiallardan qush, parrandalar yasash texnologik xaritasi yoki yasash bosqichlari.

## **Badiiy qurish-yasash va texnik modellashtirish**

**(2 soat)**

**10-mavzu.** Rangli qog'ozdan jonivorlar shaklini qurish-yasash. (1 soat)

Rangli qog'ozdan buklash usulida baliq va boshqa jonivorlar shaklini qurish-yasashning texnologik xaritasi yoki yasash bosqichlari.

**11-mavzu.** Qog'ozdan mushuk yoki tulki shaklini qurish-yasash. (1 soat)

Qog'ozdan mushuk yoki tulki shaklini qurish-yasash texnologik xaritasi yoki qurish-yasash bosqichlari.

### **Qog'oz va karton bilan ishlash**

**(1 soat)**

**12-mavzu.** Qog'ozdan buklash usulida turli o'yinchoqlar yasash. (1 soat)  
Qayiqcha, samolyot, paroxod va h. k qog'ozni oddiy buklash usuli orqali yasash bosqichlari.

### **Badiiy qurish-yasash va texnik modellashtirish**

**(1 soat)**

**13-mavzu.** Uchuvchi planer qurish-yasash. (1 soat)  
Uchuvchi planer qurish-yasash texnologik xaritasi yoki qurish-yasash bosqichlari.

### **Qog'oz va karton bilan ishlash**

**(3 soat)**

**14-mavzu.** Maydalangan rangli qog'ozlardan mozaika usulida mevalar va sabzavotlar shaklini yasash. (1 soat)

Meva rasmini shablon asosida qog'ozga tushirish, maydalangan rangli qog'ozlardan meva shaklini ranglar bo'yicha yopishtirish bosqichlari.

**15-mavzu.** Archa o'yinchoqlarini yasash. (1 soat)

Archaga osiladigan turli o'yinchoqlarni yasash texnologik xaritasi yoki yasash bosqichlari.

**16-mavzu.** Turli bayramlar uchun niqoblar tayyorlash. (1 soat)

Tulki, ayiq, quyon va h.k niqoblarni karton qog'ozga chizish, qirqish, qosh, ko'zi, tumshug'ini qalamda chizish va bo'yash yo'llari.

### **Badiiy qurish-yasash va texnik modellashtirish**

**(1 soat)**

**17-mavzu.** "Qish" manzarasini qurish-yasash. (1 soat)

"Qish" manzarasini applikasiya usulida qurish-yasashning texnologik xaritasi yoki qurish-yasash bosqichlari.

### **Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash**

**(3 soat)**

**18-19-mavzu.** Plastilin va loy bilan ishlash qoidalari. Loy yoki plastilindan idishlar, hayvonlarni yasash. (2 soat)

Plastilin va loy bilan ishlash qoidalari haqida tushuncha, oshxona jihozlari, hayvonlar shaklini yasash.

**20-mavzu.** Oshpazlik va qandolatchilik kasblari haqida tushuncha. Plastilindan tort shaklini yasash. *Mehnat. Ishlab chiqarish.* (1 soat)

Oshpazlik va qandolatchilik kasblari haqida tushuncha. Plastilindan tort shaklini yasash texnologik xaritasi yoki yasash bosqichlari.

### **Qog'oz va karton bilan ishlash**

**(5 soat)**

**21-mavzu.** 8-mart bayramiga tabriknoma tayyorlash. (1 soat)

Karton, rangli qog'ozlardan bayram tabriknomasini yasash bosqichlari.

**22-mavzu.** Geometrik shakldagi qog'ozlardan har xil hayvonlar shaklini yasash. (1 soat)

Qog'ozlardan geometrik shakllarni qirqish bosqichlarini ko'rsatish, geometrik shakllar asosida har xil hayvonlar shaklini yasash bosqichlari.

**23-mavzu.** Navro'z bayramiga tabriknoma tayyorlash. (1 soat)

Applikatsiya usulidan foydalanib, karton, rangli qog'ozlardan bayram tabriknomasini yasash bosqichlari.

**24-mavzu.** Simmetrik shaklda qog'ozni qirqish orqali meva, sabzavot yasash. (1 soat)

Simmetrik qirqish usullarini ko'rsatish, applikatsiya usulida meva, sabzavot shaklini yasash.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**25-mavzu.** Quruvchilik kasbi haqida tushuncha. Kim qayerda ishlaydi? Qog'ozdan uycha yasash. (1 soat)

Qog'ozdan buklash usulidan foydalanib, uycha yasash bosqichlari.

### **Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash**

**(2 soat)**

**Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi:**

#### **A2**

Avtomatika haqida umumiy tushuncha va atamalar, avtomatik qurilmalar, avtomatik qurilmalarning asosiy elementlari, sodda avtomatik qurilmalar tayyorlay oladi, xabarchi qurilma va uning turlari, birlamli signal turlari va kuchaytirgichlar, o‘zgaruvchi va o‘zgarmas tok signalini kuchaytiruvchi kurilmalar, tranzistorlar haqida umumiy tushunchaga ega bo‘ladi, tranzistorlarning ishlash prinsipi, tranzistorni turlari, tuzilishi, ulanish sxemasi, shartli belgisi, raqamli hisoblash qurilmalari va uning vazifasi, raqamli hisoblash qurilmalarida qo‘llaniladigan sxemalar, sanoat robotlar haqida tushunchaga ega bo‘ladi, sanoat robotlari va monipulyatorlarni boshqarish uchun elektr yuritmalar, harakatlanuvchi sodda qurilmalar (robotlar) tayyorlay oladi, xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni biladi, hunarmandchilik

mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholay oladi, shaxmat doskasi va donalarini yasay oladi, xalq hunarmandchiligiga oid buyumlar tayyorlashda morfologik jadvaldan foydalanish usullarini biladi, mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qila oladi, o'lchash va taqqoslash texnologiyasini biladi, xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflay oladi, texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning davlat standartlarini biladi.

#### **A2+**

Yog'och o'ymakorligining boshqa fanlar bilan aloqasini biladi, yog'ochdan "Lagan" yasay oladi, laganga mos ravishda naqsh kompozitsiyasi chiza oladi va tushira oladi, lagan naqshlarini o'ya oladi, laganni jilvirlay oladi, laganni loklay oladi, laganni pardozlay oladi, me'moriy obidalar, muzeylar, zamonaviy inshootlar va xalq ustalari ijodlarini biladi, kompyuter texnologiyasi yordamida ustalar ijodidan slaydlar tashkil qila oladi, yog'ochdan "Lavh" yasay oladi, lavh uchun kompozitsiya chiza oladi va buyumga tushira oladi, lavh naqshlarni o'yadi, lavhni jilvirlay oladi va laklay oladi, lavhni pardozlay oladi, Toshkent o'ymakorlik maktabi va uning namoyondalarini biladi, Samarqand o'ymakorlik maktabi va uning namoyondalarini biladi, yog'ochdan "Panno" yasay oladi, panno uchun kompozitsiya chiza oladi va buyumga tushira oladi, panno naqshlar o'yadi, pannoni jilvirlay oladi va loklay olladi, Qo'qon, Xiva o'ymakorlik maktabi va uning namoyondalarini biladi.

#### **Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiyasi:**

##### **A2**

mustaqil ishlash, ijodiy yondoshish, kreativ fikrlay oladi.

##### **A2+**

kasbiy odob-axloq qoidalarini egallaydi va unga rioya qila oladi.

#### **To'g'ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi:**

##### **A2, A2+**

kasb tushunchasining ta'rifini biladi, kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqbolini anglay oladi, kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik, qobiliyat va o'quvchining imkoniyatlarini ongli tushuna oladi, kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini qo'llay oladi, qizikish va kobiliyatni aniqlash usullarini qo'llay oladi, kasb tanlashga qo'yiladigan talablarga amal qila oladi, kasbiy o'zgaruvchanlik va tanlov tushunchasini anglay oladi, kasb professiogrammasi haqida tushunchaga ega bo'ladi, kasb tarbiyasi, kasbiy burch, kasb sha'ni, kasb ma'suliyati va kasb etikasini biladi, tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'play oladi va tahlil qila oladi. "Men tanlagan kasbni egallashdagi kelgusi rejalarim" mavzusida ijodiy ish yoki taqdimot tayyorlay oladi, kasbga tanlashga yo'llashda mahalla, oila va maktab hamkorligini tushunadi, kasb-hunar turlarining inson salomatligiga qo'yadigan talablarni biladi, o'z imkoniyatlarini psixologik va fiziologik jihatdan baholay oladi.

## **SERVIS XIZMATI YO'NALISHI**

### **Kasb tanlashga yo'naltirish (14 soat)**

**1-mavzu.** Kasb tushunchasining ta'rifi. Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli. (1 soat)

**2-mavzu.** Kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik, qobiliyat va o'quvchining imkoniyatlari. O'smir va muomala psixologiyasi. (1 soat)

**3-mavzu.** Kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullari. (1 soat)

**4-mavzu.** Qiziqish va qobiliyatni aniqlash usullari. (1 soat)

**5-mavzu.** Kasb tanlashga qo'yiladigan talablar. Kasbiy o'zgaruvchanlik va tanlov tushunchasi. (1 soat)

**6-mavzu.** Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik. Kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklar, kasblarning murakkablik omillari. (1 soat)

**7-mavzu.** Kasb tushunchasi, kasbiy qiziqish, moyillik, qobiliyat, yaroqlilik va o'quvchining imkoniyatlari. (1 soat)

**Nazorat ishi.** (1 soat)

**8-mavzu.** Kasb tanlash varaqasi. (o'quvchining f.i.sh, tug'ilgan yili, sinfi, manzili, ota-onasi to'g'risida ma'lumotlar, oiladagi bolalar soni, o'quvchining shug'ullanishi uchun uyda sharoit yaratilganligi, salomatligi, kasb tanlash xususida shifokor bilan maslahatlashilganligi, fanlarga qiziqishi, qobiliyati, oilaviy ishlarni bajarishda mustaqil fikrlashi, uy topshiriqlarini qanday bajaradi, farzandingiz kelgusida kim bo'lmoqchi, siz kaysi kasbni egallashni xohlaysiz?, farzandingiz va sizning fikringiz mosmi?, Farzandingiz sizning kasb faoliyatingizga qiziqadimi, farzandingizning akademik litseyda o'kishini davom ettirishini xohlaysizmi, farzandingizning kasb-hunar kollejida o'qishini xohlaysizmi sizningcha u tanlagan kasbi bo'yicha malakali mutaxassis bo'lib etisha oladimi, qo'shimcha fikrlaringiz) (1 soat)

**9-mavzu.** Kasb professiogrammasi haqida tushuncha. (Professiogramмага ta'rif, uning sxemasi, kasbning sog'liqqa to'g'ri kelmasligi haqida tibbiy xulosasi; shaxsning irodaviy, ishchanlik va boshqa fazilatlariga qo'yiladigan talablar; kasbning shaxsga: uning umumiy madaniyat darajasining shakllanishiga, aqliy qobiliyatlarini rivojlanishiga, xarakteriga va shu kabi sifatlariga ko'rsatadigan ta'siri. (1 soat)

**10-mavzu.** Kasb tarbiyasi, kasbiy burch, kasb sha'ni, kasb ma'suliyati va kasb etikasi. (1 soat)

**11-mavzu.** Tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish. (1 soat)

**12-mavzu.** Xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflash. Kasbga tanlashga yo'llashda mahalla, oila va maktab hamkorligi. (1 soat)

**13-mavzu.** Kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash bo'yicha amaliy mashqlar bajarish. (1 soat)

**Nazorat ishi.** (1 soat)

**14-mavzu.** “Men tanlagan kasbni egallashda kelgusidagi rejalarim” (Farovon hayot yo‘lida) mavzusida ijodiy ish taqdimoti (1 soat)

### **Ro‘zg‘orshunoslik asoslari**

**(9 soat)**

**15-mavzu.** Mavsumiy tuzlamalar tayyorlash texnologiyasi. Tuzlamalar tayyorlash. (1 soat)

**16-mavzu.** Oshirma xamir tayyorlash texnologiyasi. Oshirma xamirdan non va shirin kulcha tayyorlash. (1 soat)

**17-mavzu.** “Bahor” salatini tayyorlash texnologiyasi. (1 soat)

**18-mavzu.** Kir yuvish mashina turlari, ularning tuzilishi, ishlash prinsipi, foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari. (1 soat)

**19-mavzu.** Issiqlik, elektr, suv ta‘minoti va oqava suv quvurlar sistemasidan to‘g‘ri foydalanish qoidalari. (1 soat)

**20-mavzu.** Xonani bezatishda pardaning roli. Parda tikish texnologiyasi. (xonani bezatishda pardaning roli, parda tikish texnologiyasi, kichik hajmdagi pardani bichish) (1 soat)

**21-22-mavzu.** Oddiy va murakkab usullarda parda tikish. (2 soat)

**Nazorat ishi.** (1 soat)

**23-mavzu.** Dasturxon bezatish qoidasi. Mehmon kutish odobi. (nonushta, tushlik, kechki va bayram uchun stol bezatish) (1 soat)

### **Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (7 soat)**

**24-mavzu.** Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar. Hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta‘minlanishiga ko‘ra baholash. Texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning davlat standartlari. (1 soat)

**25-26-mavzu.** Kalta shim (kapri) ni bichish va tikish. (2 soat)

**Nazorat ishi.** (1 soat)

**27-mavzu.** Xalq hunarmandchiligiga oid buyumlar tayyorlashda morfologik jadvaldan foydalanish usullari. Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o‘lchash va taqqoslash texnologiyasi. (1 soat)

**28-29-30-mavzu.** Zamonaviy modeldan ko‘ylakni bichish va tikish. (3 soat)

### **Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (A2+34 soat)**

**1-2-mavzu.** Kalta shim (kapri) ni bezak berib tikish. (2 soat)

**3-4-5-mavzu.** Modellashtirish. Vytochka urnini almashtirib yangi modellar yaratish.

**Nazorat ishi.** (1soat)

**7-8-9-10-mavzu.** Zamonaviy modelda ko‘ylakni tikish va bezak berish. (4 soat)

**Nazorat ishi.** (1soat)

**11-12-13-14-mavzu.** “Gullar” pannosini tasmalardan tayyorlash. (4soat)

**15-16-17-18-mavzu.** Sovga uchun savatni bezash. Xom ashyo va materiallar tayyorlash. Tasmalar va turli bezaklardan foydalanib savatni bezash.(4soat)

**Nazorat ishi.** (1soat)

**19-20-21-22-23-24-mavzu.**To‘qish san‘ti. Bolalar (chaqaloqlar) komplektini to‘qish. (6 soat)

**25-mavzu.** Oyoq kiyim turlari.

**Nazorat ishi.** (1soat)

**26-27-28-29-mavzu.** Ayollar oyoq kiyimi (tapochkasi)ni zardo‘zlik usulida bezatib tikish. Naqsh tanlash, naqshni joylashtirib zardo‘zlik chokida bezatib tikish. (4 soat)

**30-mavzu.** Ayollar oyoq kiyimiga oxirgi ishlov berish.

### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar.**

**Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi:**

#### **A2**

Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni biladi, hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta‘minlanishiga ko‘ra baholay oladi, texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning davlat standartlarini biladi, kalta shim (kapri)ni bichadi va tika oladi, xalq hunarmandchiligiga oid buyumlar tayyorlashda morfologik jadvaldan foydalanish usullarini biladi, mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qila oladi, o‘lchash va taqqoslash texnologiyasini biladi, zamonaviy modelda ko‘ylakni bicha oladi va tika oladi, mavsumiy tuzlamalar tayyorlash texnologiyasini biladi, tuzlamalar tayyorlay oladi, oshirma xamir tayyorlash texnologiyasini biladi, oshirma xamirdan non va shirin kulcha tayyorlay oladi, bahor salatini tayyorlash texnologiyasini biladi, kir yuvish mashina turlari, ularning tuzilishi, ishlash prinsipi, foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalarini biladi, issiqlik, elektr, suv ta‘minoti va oqava suv quvurlar sistemasidan to‘g‘ri foydalanish qoidalarini, iste‘mol quvvatlari haqini to‘lash tartibi va ahamiyatini biladi, xonani bezatishda pardaning rolini, parda tikish texnologiyasini biladi, oddiy yoki murakkab usullarda parda tika oladi, dasturxon bezatish qoidasini, mehmon kutish odobini biladi.

#### **A2+**

iroqi chokida “Gullar” pannosini tika oladi, sovga uchun savatni bezay oladi, xom ashyo va materiallar tayyorlay oladi, tasmalar va turli bezaklardan foydalanib savatni bezay oladi, to‘qishni san‘t darajasida ekanligini biladi, bolalar (chaqaloqlar) komplektini to‘qiy oladi, oyoq kiyim turlari xaqida ma'lumotga ega buladi, ayollar oyoq kiyimi (tapochkasi)ni zardo‘zlik usulida bezatib tika oladi.

**Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiyasi:**

#### **A2**

mustaqil ishlash, ijodiy yondoshish, kreativ fikrlay oladi.

**A2+**

kasbiy odob-axloq qoidalarini egallaydi va unga rioya qila oladi.

**To‘g‘ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi:**

**A2, A2+**

kasb tushunchasining ta‘rifini biladi, kasbni to‘g‘ri tanlashning mohiyati va istiqbolini anglay oladi, kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik, qobiliyat va o‘quvchining imkoniyatlarini ongli tushuna oladi, kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini qo‘llay oladi, qiziqish va kobiliyatni aniqlash usullarini qo‘llay oladi, kasb tanlashga qo‘yiladigan talablarga amal qila oladi, kasbiy o‘zgaruvchanlik va tanlov tushunchasini anglay oladi, kasb professiogrammasi haqida tushunchaga ega bo‘ladi, kasb tarbiyasi, kasbiy burch, kasb sha‘ni, kasb ma‘suliyati va kasb etikasini biladi, tanlangan kasb-hunarga doir ma‘lumotlar to‘play oladi va tahlil qila oladi. “Men tanlagan kasbni egallashdagi kelgusi rejalarim” mavzusida ijodiy ish yoki taqdimot tayyorlay oladi, kasbga tanlashga yo‘llashda mahalla, oila va maktab hamkorligini tushunadi, kasb-hunar turlarining inson salomatligiga qo‘yadigan talablarni biladi, o‘z imkoniyatlarini psixologik va fiziologik jihatdan baholay oladi.

**Mavzularni o‘rganish uchun - 30 (A2+60) soat**

**Nazorat ishlari uchun - 4 (A2+8) soat**

**Jami - 34 (A2+ 68) soat**

**O‘quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

**A2**

texnologiya faniga oid atamalarni xorijiy tillardan ifodalay oladi, o‘z do‘stlari bilan texnika tilida muloqotga kirisha oladi; mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya oladi va javob bera oladi; o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qila oladi, jamoaviy hamkorlikda ishlay oladi, suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila oladi va unga ishonтира oladi.

**A2+**

turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqara oladi, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildira oladi va zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qila oladi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo‘natish) foydalana oladi; media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa oladi, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlashda xavfsizligini ta‘minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qila oladi.

**A2+**

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay oladi (tavsifnoma yozish, ariza, shaxsiy ma'lumotnoma.)

**O'zini o'zini rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish; guruhlarda ishlashda ma'suliyatni o'ziga oladi, lider bo'la oladi, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladi; konstitutsion huquq va burchlaridan to'g'ri foydalana oladi, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intila oladi.

**A2+**

o'zining qiziqishlariga qarab qobiliyatlarini namoyon qila oladi, ongli kasb tanlash, halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'ladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

sog'lom e'tiqod va dunyoqarash tushunchalarini biladi; jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik, o'z munosabatini bildira oladi, vatan oldidagi mas'uliyatni his qila oladi, kasblarning mohiyatini tushuna oladi va ongli ravishda tanlay oladi, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini biladi va unga amal qila oladi.

**A2+**

mehnat hamda fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, ekologik, huquqiy madaniyatiga rioya qila oladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2**

xalq hunarmandchiligi yo'nalishlarida ularning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini o'rgana oladi, avaylab asray oladi, an'ana va marosimlarini hurmat qila oladi, milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini biladi.

**A2+**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar) biladi va unga hurmat bilan munosabatda bo'la oladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2**

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'ladi hamda foydalana oladi, taraqqiyotni isloh qilishning besh tamoyili va yetti ustuvor yo'nalishini sharhlay oladi, kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni o'qiy oladi va foydalana oladi.

**A2+** mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga tutgan o'рни va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera oladi.

**O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar.**

**Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi:**

## **A2**

tabiiy va turli materiallarning xususiyatlarini tavsiflaydi va farqlay oladi; materiallarni saralay oladi;

buyum va mahsulotlarni texnologik loyihalay oladi;

materiallarga issiq va sovuq ishlov berish usullarini bajara oladi;

detallarni bir-biriga yopishtirishda maxsus yelimlardan foydalana oladi;

buyumlarni konstruksiyalash va modellashtirish ishlarini bajara oladi;

texnik obyektlarni biladi va texnologik jarayonlarni qoʻllay oladi;

kichik hajmdagi sodda buyumlarni tikadi va toʻqiy oladi;

harakatlanuvchi modellarni yasay oladi;

asbob-uskunalarini saqlash va taʼmirlash ishlarini bajara oladi;

xalq hunarmandchiligi turlari boʻyicha buyumlarni loyihalay oladi;

elektrotexnika, avtomatika va robototexnika turlarini tavsiflay oladi;

sodda elektrotexnika ishlarini bajara oladi;

texnika va texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini biladi;

sanoat sohalari boʻyicha tayanch bilimlarga ega boʻladi;

zamonaviy bozor munosabatlariga moslashadi hamda faoliyat yurita oladi;

turli materiallarga ishlov berishda, asbob-uskuna, moslama, mexanizm, mashinalarda texnika xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda ishlay oladi.

## **A2+**

mahsulot tarkibi, xossalari va xususiyatlarini aniqlaydi, tavsiflay oladi;

xalq hunarmandchiligi sohalari boʻyicha buyumlarni texnologik loyihalash va tayyorlashda texnologik jarayonlarni qoʻllay oladi;

xomashyolarga badiiy ishlov bera oladi;

xalq hunarmandchiligi bilan uygʻunlashgan kasb-hunarlarini sodda ish usullari vositasida qoʻllay oladi.

**Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya:**

## **A2**

hozirjavoblik, ishchanlik, faollik va muomala madaniyatiga amal qila oladi;

oʻquv-amaliy topshiriqlarni tizimli, tartib-intizom asosida bajara oladi;

mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlay oladi.

## **A2+**

texnologik loyihalash va jarayonlarni amalga oshirish boʻyicha mustaqil qaror qabul qila oladi;

oʻz xato va kamchiliklarini anglay oladi, koʻra biladi va tuzatishga harakat qila oladi.

**Toʻgʻri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi:**

## **A2**

kasblarda mehnat turlarini (odam-odam, odam-texnika, odam-tabiat, odam-belgili tizim, odam-badiiy obrazni) taʼriflay oladi;



hududda joylashgan o'рта maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari va ularning yo'nalishlari, joylashuvini biladi, tahlil qila oladi;

kelgusi ta'lim yo'nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kollejini) ongli va mustaqil ravishda tanlay oladi;

kasb-hunar turlarining inson salomatligiga qo'yadigan talablarini va o'z imkoniyatlarini psixologik va fiziologik jihatdan baholay oladi.

**A2+**

kasbiy axborotlarni, kasblarning murakkablik omillarini tahlil qila oladi;

uzluksiz ta'lim tizimini, unda o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limining tutgan o'rini tavsiflay oladi;

kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash bo'yicha mashqlarni mustaqil bajara oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi PF-3431.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirli va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 140-sonli qarori.
10. Yaponiya (Reforming of National Curriculum Standards of Japan: Implementation and Impacts on Education in Schools for the Blind, Japan's National Curriculum Reforms: Focus on Integrated Curriculum Approach, "Duradgorlik"- Woodwork Joints, William Fairham 2008, "Tikuvchilik"- Ashish Kashyap, Rashmi Sharhan, Rishika Jalali Little Girls Dress Making Course Book,
11. Yaponiya ta'lim standarti, The Basis Of Industrial Technology Education. Experiment and Practice MEXT International Cooperation Initiative (Japan). 2010. Educational Curriculum Development. Department of technology Education, Aichi University of Education. ISBN 4-9901927-1-0, Japan, 2005.[2]. Industrial Technology Education. For All. Aichi University of Education. Japan, 2004.[3])
12. Hindiston (Radha Mohan. TEACHER EDUCATION. Published by Asoke K.Ghosh, PHI Learning Private limited, Rimjhim House, 111,Printed by Mudrak, 30-A, Delhi-110091/ ISBN-978-81-203-4382-5, India, 2013 [1])

**Umumiy o'rta ta'limning Texnologiya fanidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy guruhi**

<b>T/r</b>	<b>Ismi va familiyasi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1	Sharipov Shavkat Safarovich	Nizomiy nomidagi TDPU rektori, p.f.d., guruh rahbari
2	Qo'ysinov Odil Almurotovich	Nizomiy nomidagi TDPU ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo'yicha prorektor, p.f.n., dotsent
3	Shamsieva Zulfizarxon Saidakbarovna	Respublika ta'lim markazi bo'lim boshlig'i
4	Yakubova Xilola Sunnatovna	Nizomiy nomidagi TDPU Kasb ta'limi metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi
5	Tohirov O'ktamjon Otaqo'zievich	Toshkent shahar XTXQTMOI bo'lim boshlig'i
6	Nasrullaeva Fotima Azatovna	Xalq ta'limi vazirligi tasavvuridagi profilli mehnatga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi mehnat ta'limi o'qituvchisi
7	Maxamatova Feruza Botiraliyevna	Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 326-sonli davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi mehnat ta'limi o'qituvchisi
<b>EKSPERT GURUHI</b>		
1	Zaripov Lochin Rustamovich	Nizomiy nomidagi TDPU Kasb ta'limi metodikasi kafedrasida o'qituvchisi
2	Irmuxamedov Abdurauf	Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 308-sonli umumta'lim maktabi mehnat ta'limi o'qituvchisi
3	Tolipova Umida Yuldasheva	Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi 198-sonli umumta'lim maktabi mehnat ta'limi o'qituvchisi

**19-§. Jismoniy tarbiya fani**  
**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya fanini oʻrganish bosqichlari**

<b>Taʼlim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Standart darajalari</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy oʻrta taʼlim</b>	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich 4-sinf bitiruvchilari	<b>A1</b>	Jismoniy tarbiya fanini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	<b>A2</b>	Jismoniy tarbiya fanini oʻrganishning tayanch darajasi
<b>Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi</b>	Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari	<b>B1</b>	Jismoniy tarbiya fanining umumiy darajasi

**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya oʻquv fanini oʻqitishning maqsad va vazifalari**

**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida jismoniy tarbiya oʻquv fanini oʻqitishning asosiy maqsadi:**

oʻquvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sogʻlom qilib tarbiyalash, inson salomatligi toʻgʻrisidagi bilimlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya fanidan egallagan bilimlarini hayotda qoʻllay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida jismoniy tarbiya oʻquv fanini oʻqitishning asosiy vazifalari:**

sogʻlomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qoʻllay olish;  
 jismoniy mashqlarni ketma-ketlikda toʻgʻri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

sport asbob-anjomlaridan foydalanishning xavfsiz usullarini oʻrgatish;  
 sogʻlom turmush tarzini keng jamoatchilik oʻrtasida targʻib etishda tayanch va jismoniy tarbiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

**Jismoniy tarbiya fani boʻyicha umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim muassasalari bitiruvchilariga qoʻyiladigan malaka talablari**

**1. Sogʻlomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qoʻllay olish kompetensiyasi**

**A1**

Kun tartibi qoidalariga rioya qila oladi;  
 ertalabki badantarbiya va dars jarayonida chiniqtirish mashqlarini bajara oladi;

saflanish va yurish qoidalarini bajara oladi;

harakatli o'yin turlari va ularning qoidalarini biladi;  
jismoniy mashqlarni inson salomatligiga ta'sirini biladi;  
shaxmatning boshlang'ich o'yin qoidalarini biladi.

## **A2**

Jismoniy mashqlarni bajarishda gigienik qoidalarni biladi;  
gimnastika anjomlaridan xavfsiz foydalana oladi;  
yengil atletikaning inson salomatligida tutgan o'rnini biladi;  
basketbol, voleybol, qo'l to'pi, futbol sport o'yinlarining himoya va hujum usullarini biladi;

kurash elementlari hamda usullarini bajara oladi;  
qomatni to'g'ri shakllantirish mashqlarini bajara oladi;  
shaxmat donalarining yurish hamda shoxni mot qilish qoidalarini biladi.  
o'yin mashqlarni bajarish paytida xavfsizlik qoidalarini biladi.

## **B1**

Jismoniy mashqlarni bajarishda o'quv mashg'uloti uchun qulay sharoitlarni yarata oladi;

jismoniy mashqlar yordamida organizmning barcha guruhlarining funktsiya tizimlarini to'g'ri va o'z vaqtida rivojlantira oladi;

jismoniy mashqlar yordamida asab tizimini mustahkamlaydi, modda almashuv jarayonini faollashtira oladi;

gimnastika anjomlaridan to'g'ri va xavfsiz foydalana oladi;

yengil atletikaning inson salomatligida tutgan o'rni va ta'sirini biladi;

shaxmat, shashka, basketbol, voleybol, qo'l to'pi, futbol, suzish, badminton, stol tennisi va boshqa sport o'yinlarining himoya va hujum usullarini biladi;

kurash turlari, elementlari hamda usullarini bajara oladi.

## **2. Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi**

### **A1**

Jismoniy mashqlarni (saf, akrobatika, tayanib sakrash, muvozanat saqlash, tayanish va osilish, tirmashib chiqish) bajarishda mashqlar ketma-ketligini bir-biri bilan bog'lay oladi;

mashqlarni bajarishda jismoniy sifatlarga (chaqqonlik, kuchlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va koordinatsiyaga) ega bo'ladi;

mantiqiy o'yinlarni (shaxmat, shashka va boshqalarni) o'ynay oladi.

### **A2**

Saf, umumrivojlantiruvchi (buyumlar va buyumlarsiz bajariladigan) mashqlar majmuasi, gimnastika (tayanib sakrash, tirmashib chiqish, osilish va tayanishlar, umboloq oshish, muvozanat saqlash), yengil atletika (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish), sport va harakatli o'yin mashqlarini bajarish qoidalariga rioya qila oladi;

hayotiy zarur ko'nikmalarga ega bo'lishda jismoniy sifatlarga (chaqqonlik, kuchlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va koordinatsiya) ega bo'ladi;

fikrlash asosida mantiqiy o'yinlarni (shaxmat, shashka va boshqalarni) o'ynay oladi.

## **B1**

Buyum va buyumsiz bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlarning bo'g'inlar va mushak guruhlariga ijobiy ta'siri va uni ketma-ketligi, osilish, tirmashish, muvozanat saqlash, tayanib va tayanmay sakrash, tortilish, akrobatika elementlari va ritmik gimnastika qoidalariga rioya qiladi;

fazoviy harakatlar va uning bajarilish ketma-ketligiga amal qiladi;

sport turlarining kelib chiqishi va uning rivojlanish tarixini biladi;

sport turlari bo'yicha bajariladigan mashqlarining inson salomatligini saqlashdagi ahamiyati haqidagi ma'lumotni biladi;

respublika miqyosida o'tkazilayotgan uch bosqichli sport musobaqa turlarini biladi.

### **3. Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi**

#### **A1**

Jismoniy mashqlarni bajarishda shikastlanishning oldini olish qoidalariga amal qila oladi;

jismoniy mashqlarni bajarishdan oldin va keyin yurak urish me'yorini aniqlay oladi;

jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qila oladi.

#### **A2**

Gimnastika sport turlari bo'yicha turli jihoz va anjomlarning nomlarini biladi, tuzilishini tushuntira oladi hamda amaliy mashg'ulotlarda belgilangan qoidalar asosida foydalana oladi;

o'zi yoki boshqalar shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish haqida boshlang'ich bilimga ega bo'ladi.

#### **B1**

Sport o'yinlari, jihoz va anjomlarning nomlari, tuzilishi va o'lchamlari haqida ma'lumotlarni biladi;

sport o'yinlariga oid jihoz va anjomlar, basketbol shchiti, halqa, to'p, futbol darvozasi, to'r, to'p, bayroqlar, voleybol ustuni, hakamlar o'tirish uchun maxsus joy, to'ldirma to'p, turli to'siqlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga amal qila oladi;

kurash turlari bo'yicha anjom, jihozlarning nomlari, tuzilishi, o'lchamlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi va foydalana oladi.

respublikamizda joriy etilgan uch bosqichli sport musobaqalari haqida tushunchaga ega bo'la oladi;

kurashda xavfsizlik texnikasiga rioya qila oladi;

shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsata oladi.

**JISMONIY TARBIYA FANI**  
**O‘QUV DASTURI**  
**(1-9-SINF)**  
**UQTIRISH XATI**

Jismoniy tarbiya darslarini o‘tkazishdan maqsad – o‘quvchilarning salomatligini saqlash, ularning jismonan yetuk bo‘lib yetishishlari uchun shart-sharoitlar yaratish va mashg‘ulotlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi ta’limiy, tarbiyaviy, sog‘lomlashtiruvchi vazifalarni bajarish lozim bo‘ladi:

**Ta’limiy** – jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha asosiy tushunchalarni, ularning mohiyatini hamda dasturda mavjud bo‘lgan jismoniy tarbiya jarayonida mashqlarni o‘quvchilarga o‘rgatish tushuniladi. Ta’limiy vazifani amalga oshirishda o‘quvchilarda jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi nazariy bilimlar, ya’ni sport turlari, sport anjomlari va ulardan foydalanish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etgan holda yosh-fiziologik xususiyatlariga mos bo‘lgan jismoniy yuklamalarni mustaqil ravishda belgilay olish kabi ma’lumotlar beriladi.

**Tarbiyaviy** – jismoniy tarbiya va sport faoliyatining kerakligicha ta’minlash, jismoniy sifatlarni rivojlantirish va aqliy, estetik tarbiyalar bilan shakllantirib boriladi.

**Sog‘lomlashtiruvchi** – o‘quvchilarning organizmlari, sog‘lig‘ini mustahkamlash, har tomonlama jismonan tarbiyalashga qaratiladi. O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab quyidagi vazifalar amalga oshirib boriladi:

- a) organizmni chiniqtirish;
- b) jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog‘lom qilib tarbiyalash, inson salomatligi to‘g‘risidagi bilimlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya fanidan egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat. Jismoniy tarbiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari esa sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish;

jismoniy mashqlarni ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

sport asbob-anjomlaridan foydalanishning xavfsiz usullarini o‘rgatish;

sog‘lom turmush tarzini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishda tayanch va jismoniy tarbiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Jismoniy tarbiya fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga quyidagi malaka talablari qo‘yiladi:

Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi, jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

kompetensiyasi hamda sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi.

Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirishni boshlang'ich sinflarda o'qitish salomatlikni mustahkamlash, jismoniy sifatlar (kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamiylik, egiluvchanlik va koordinatsiya)ni rivojlantirish, o'yinli vaziyatlarda oqilona va murakkab hayotiy-amaliy, shuningdek, sportning harakatli turlarini o'zlashtirishga yo'naltiriladi.

Yuqori sinflarda ushbu fanni o'qitish me'yoriy jismoniy rivojlanishga ko'maklashish, harakatlanish vaqtida va statik holatlarda gavdani to'g'ri tutish malakasini mustahkamlash, gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari (basketbol, voleybol, gandbol, futbol va boshqalar) mashqlarini bajarishda texnika va taktika asoslarini o'rgatish ko'nikma va malakalarni mustahkamlaydi.

Jismoniy tarbiya fanini o'qitishda yuqori sinflarda "Sog'lom avlod asoslari" hamda "Hayot xavfsizligi asoslari" o'quv kurslarining "Suvdagi xavfsizlik qoidalari", "Cho'milish himoya vositalari haqida tushuncha", "Burundan qon ketish sabablari va birinchi yordam ko'rsatish", "Ko'zga chang tushganda muhofazalanish qoidalari", "Nafas olish a'zolari va teri yuzasini muhofaza qilish vositalari haqida tushuncha", "Jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida xavfsizlik choralari" mavzulari orqali singdiriladi.

Kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalari o'quvchilarning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda A1, A2 darajalar bo'yicha elementlarga ajratib berildi. Jumladan, **Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:**

#### **A1**

kun tartibi qoidalariga rioya qila olish;  
ertalabki badantarbiya va dars jarayonida chiniqtirish mashqlarini bajara olish;

saflanish va yurish qoidalarini bajara olish;  
harakatli o'yin turlari va ularning qoidalarini bilish;  
jismoniy mashqlarning inson salomatligiga ta'sirini bilish;  
shaxmatning boshlang'ich o'yin qoidalarini bilish.

#### **A2**

jismoniy mashqlarni bajarishda gigienik qoidalarni bilish;  
gimnastika anjomlaridan xavfsiz foydalana olish;  
yengil atletikaning inson salomatligida tutgan o'rnini bilish;  
basketbol, voleybol, qo'l to'pi, futbol sport o'yinlarining himoya va hujum usullarini bilish;

kurash elementlari hamda usullarini bajara olish;  
qomatni to'g'ri shakllantirish mashqlarini bajara olish;  
shaxmat donalarining yurish hamda shoxni mot qilish qoidalarini bilish.  
o'yin mashqlarni bajarish paytida xavfsizlik qoidalarini bilish.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A1**



jismoniy mashqlarni (saf, akrobatika, tayanib sakrash, muvozanat saqlash, tayanish va osilish, tirmashib chiqish) bajarishda mashqlar ketma-ketligini bir-biri bilan bog'lay olish;

mashqlarni bajarishda jismoniy sifatlarga (chaqqonlik, kuchlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va koordinatsiyaga) ega bo'lish;

mantiqiy o'yinlarni (shaxmat, shashka va boshqalarni) o'ynay olish.

## **A2**

saf, umumrivojlantiruvchi (buyumlar va buyumlarsiz bajariladigan) mashqlar majmuasi, gimnastika (tayanib sakrash, tirmashib chiqish, osilish va tayanishlar, umbaloq oshish, muvozanat saqlash), yengil atletika (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish), sport va harakatli o'yin mashqlarini bajarish qoidalariga rioya qila olish;

hayotiy zarur ko'nikmalarga ega bo'lishda jismoniy sifatlarga (chaqqonlik, kuchlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va koordinatsiya) ega bo'lish;

fikrlash asosida mantiqiy o'yinlarni (shaxmat, shashka va boshqalarni) o'ynay olish.

## **Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:**

### **A1**

jismoniy mashqlarni bajarishda shikastlanishning oldini olish qoidalariga amal qila olish;

jismoniy mashqlarni bajarishdan oldin va keyin yurak urish me'yorini aniqlay olish;

jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qila olish.

### **A2**

gimnastika sport turlari bo'yicha turli jihoz va anjomlarning nomlarini biladi, tuzilishini tushuntira oladi hamda amaliy mashg'ulotlarda belgilangan qoidalar asosida foydalana olish;

o'zi yoki boshqalar shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish haqida boshlang'ich bilimga ega bo'lish.

Jismoniy tarbiya fani bo'yicha tayanch va fanga oid kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirish o'quv dasturining mazmuni hamda umumta'lim muassasasining sharoiti (sport zali, sport maydonining mavjudligi hajmi)dan kelib chiqqan holda taqvim-mavzu rejalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Mazkur dastur asosida umumiy o'rta ta'lim maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi maktab sharoitini inobatga olgan holda taqvim-mavzu rejasini ishlab chiqadi. O'quv dasturi bo'limlari uchun ajratilgan soatlarga o'zgartirish kiritish yoki boshqa bo'lim hisobidan o'quv-mashg'ulotlarni amalga oshirish mumkin emas.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturiga quyidagi o'zgartirish kiritildi. Jumladan, 3-sinflarda "Harakatli o'yinlar" bo'limi soatlari (8 soat) hisobidan "Futbol" bo'limi kiritildi va 8 soat ajratildi.

Shaxmat 1-4-sinf “Harakatli o‘yin”lar bo‘limidan, 5-9-sinflar uchun “Kurash” bo‘limi hisobidan 2 soatdan ajratildi.

Shuningdek, 5-7- sinflarda o‘qitilishi belgilangan “Harakatli o‘yinlar” bo‘limi soatlari. (2 soat) “Gimnastika” bo‘limiga o‘tkazildi.

Ushbu o‘quv dasturidagi 1-9-sinflar uchun berilgan “Suzish” bo‘limini o‘qitish o‘quv yilining aprel-may oylarida dars jarayonlarida nazariy va amaliy (suzish harakatlariga oid bo‘lgan) mashqlarni bajarish tavsiya etiladi.

O‘quv dasturida berilgan mavzular va ular uchun ajratilgan soatlarni o‘qitishda bajarilayotgan mashqlarni keyingi darslarda takrorlash, takomillashtirish orqali maktab o‘quvchilarining yosh-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda jismoniy yuklamalar belgilanadi va bajariladi.

**1-9 sinflarda jismoniy tarbiya fanini o‘qitish  
quyidagi dastur asosida amalga oshiriladi**

/r	Dastur bo‘limlari	Sinflar								
1	Nazariy bilim asoslari	Dars jarayonida								
2	Gimnastika	6	6	6	4	4	4	2	2	0
3	Yengil atletika	6	8	8	8	6	6	6	8	8
4	Harakatli o‘yinlar	2	2	4	2					
5	Sport o‘yinlari: - basketbol, voleybol, gandbol - futbol				0	6	6	6	4	4
					2	2	2	2	2	2
6	Kurash							0	0	2
7	Shaxmat									
8	Suzish									
<b>Jami soat:</b>		<b>6</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>

**1-SINF  
JISMONIY TARBIYA  
66 soat (haftasiga 2 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:** mustaqil fikrini og‘zaki ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ishlay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** jismoniy tarbiyaga oid bo‘lgan ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida kuzatib borish;

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:** muntazam ravishda o‘zi ustida ishlash, aqliy, axloqiy, estetik, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:** atrofida bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarini anglash va his etish, muomala madaniyatiga ega bo‘lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:** ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan milliy urf-odatlarini bilish, tengdoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘la olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:** jismoniy mashqlarni bajarishda matematik sanoq sonlarni sanash yordamida bajarish.

### **NAZARIY BILIM ASOSLARI**

Mashg'ulotlar o'tish joyi (sport zali va maydonchalar) hamda unda foydalaniladigan sport anjomlarining nomlari va ularni qo'llash haqida tushuncha. Shaxsiy gigiena va kun tartibiga rioya qilish. Inson salomatligida jismoniy mashqlarning ahamiyati. Suv yordamida chiniqishlar. Sport turlari bo'yicha bajarilayotgan o'quv-mashg'ulotlari jarayonida bajariladigan jismoniy mashqlarga qo'yiladigan talablar va xavfsizlik qoidalari.

Sport kiyimlariga qo'yiladigan gigienik talablar. Inson salomatligi uchun ochiq havoda bajariladigan mashqlarning ahamiyati. Tabiatning sog'lomlashtiruvchi (quyosh, suv, havo) omillarining inson organizmiga ta'siri. Kishi uchun qaddi-qomatning ahamiyati, harakat va ko'nikmalarni rivojlantirish. Sport zalida turish va yurish qoidalari. Gigienik gimnastikaning ahamiyati.

Saf mashqlari, saflanish va buyruqlarini bilish.

O'quvchilarni yengil atletika sport maydonchasida o'zini tutish qoidalari hamda yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish turlari haqida tushuncha.

Harakatli o'yin turlari va ularning qoidalarini o'rgatish. Harakatli o'yinlarni o'ynashda o'qituvchining qo'rsatmalariga va sardorning qoidalariga rioya qilish, o'yin boshlanishi va o'yin jarayonida o'z joylarini aniq egallashni bilish.

### **GIMNASTIKA (16 soat)**

#### **1-mavzu: Saf mashqlari. (1 soat)**

Saflanish, navbatchi o'quvchidan bildirgini qabul qilish, (o'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashish "Assalom!"); Saf mashqlari, asosiy tik turish; ketma-ket va yonma-yon bo'lib bir qatorga, aylanma bo'lib saflanish; chiziq bo'ylab safga turish, qo'l ushlab doira hosil qilish; safda yurish va to'xtash mashqlarini bajarish; saf buyruqlarini bajarish: "Sinf saflan!", "Sinf tekislan!", "Sinf rostlan!", "Sinf o'ngga!", "Sinf chapga!", "Sinf ortga!", "Sinf qadam bos!", "Sinf to'xta!" kabilar.

#### **2-3-mavzu: Umumrivojlantiruvchi mashqlar. (2 soat)**

Buyumlarsiz (asosan beriladigan mashqlar qomatni to'g'ri shakllantirish, qo'llarni har tomonga ko'tarish, gavgani oldinga, ortga, yonga egish, oyoqlarda o'tirib turish, oyoq uchida sakrash), buyumlar bilan (gimnastika tayoqchasi, bayroqcha, katta va kichik to'plar bilan mashqlar, arg'amchida sakrash va gardishni aylantirish) mashqlarini bajarish.

#### **4-5-mavzu: Tayanib sakrash. (2 soat)**

Gimnastik o'rindig'ida turgan joyda yuqoriga qayishib sakrab, pastga yumshoq tushish; gimnastika o'rindiq ustidan pastga, to'shakka yumshoq sakrab tushish; gimnastika o'rindiqdan tayanib sakrab o'tish mashqlari; gimnastika o'rindig'iga tayanib, o'ng va chap tomonlarga sakrab o'tishlar.

#### **6-7-mavzu: Tirmashib chiqish. (2 soat)**

Tirmashib chiqish mashqlari: gimnastik narvonga qiya qo'yilgan gimnastik o'rindiq ustida tizzalarda turib yuqoriga tirmashib chiqish va pastga tushish; yonga oyoq-qo'llar yordamida gimnastik narvonga tayangan holda chiqish va pastga tushish; arqon, uzun tayoqni ushlab va erkin usulda tirmashib chiqishga oid bo'lgan mashqlar; gimnastik o'rindiqlarning orasidan yoki balandligi 40-50 sm bo'lgan to'siqlar (barer) sport jihozlari tagidan o'tish mashqlari.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**(1-7-mavzular asosida)**

**8-9-mavzu: Osilish va tayanishlar. (2 soat)**

Osilishlar: gimnastik narvonga orqa bilan suyangan holda o'tirib, qo'llarda osilib turish; osilib turib, tizzalarni bukib ko'krak qafasigacha ko'tarish; past turnikka bir qo'lda, ikki qo'lda osilib turish.

Tayanishlar: gimnastik o'rindiq ustida qo'llarga tayangan holda gavgani oldinga egib, oyoqlarni orqaga ko'tarish; gimnastika o'rindig'ida qo'llarni bukish va yozish.

**10-12-mavzu: Akrobatika. (3 soat)**

Cho'qqayib o'tirgan holda orqaga va oldinga tebranish mashqlari; g'ujanak bo'lib o'tirish; g'ujanak bo'lib o'tirgan holda oldinga umbaloq oshish; belda tik turish; yotgan holatda "ko'prik" hosil qilish; qorin bilan yotgan holda ikki oyoq uchini qo'l bilan ushlab kerishish; yotgan holda oyoq uchlarini boshga tekkazishga harakat qilish.

**13-mavzu: Muvozanat saqlash va koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish. (1 soat)**

Polda, gimnastik o'rindiq ustida oyoq uchida, yon tomonlarda (ichki va tashqi), tovonlarda yurishlar; qo'l holatlarini o'zgartirib oyoq uchida yurish; gimnastik o'rindig'ida turgan joydan yuqoriga sakrab oyoq uchida yumshoq tushish; gimnastika o'rindig'ida 90°-180° ga burilish mashqlari va pastga yumshoq sakrab tushish; eni 10 sm.li chiziq ustida muvozanat saqlab yurish; bir oyoq uchida (o'ng va chap oyolarni almashtirgan holda) 13-15 soniya muvozanat saqlab turish.

**14-mavzu: Badiiy gimnastika va raqs elementlari. (1 soat)**

Badiiy gimnastika mashqlari uyg'unligida raqs harakat elementlarini o'rgatish. Musiqa jo'rligida xalq raqslari elementlarga mos bo'lgan qo'l va oyoq harakatlarini bajarish. Masalan: "Chittigul", "Chertmak", "O'rdaklar raqsi", "Vals qadamlari". "Andijon polkasi".

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**(8-14-mavzular asosida)**

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** gimnastik mashqlarning inson salomatligiga bo'lgan ijobiy omillari va ahamiyatini bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** saf, umumrivojlantiruvchi,

tayanib sakarash, tirmashib chiqish, osilish va tayanish, akrobatika, muvozanat saqlash mashqlarini ketma-ketlikda bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** gimnastika turiga oid bo'lgan asbob-anjomlari nomlarini biladi va ulardan xavfsiz foydalana oladi.

## **YENGIL ATLETIKA (16 soat)**

### **15-16-mavzu: Yurish. (2 soat)**

Yurishga oid bo'lgan mashqlar; sekin, o'rta tezliklarda yurish (20-30 m); to'g'ri chiziq ustida oyoq uchida, tovonda, oyoqning ichki va tashqi tomonlarida yurish; qad-qomatni to'g'ri tutib yurishga e'tibor berib yurish;

doira bo'ylab bir qator bo'lib yurish mashqlari (oyoq uchida chiziq bo'ylab, yarim cho'qqayib, 30-60 m ga qomatni rostlab).

### **17-mavzu: Yugurish. (1 soat)**

Turli masofalarga yugurishni tanishtirish va yugurish mashqlari (yakka tartibda, juftlashib yugurish);

Past startda turish; past startdan turib yugurish (past startda turish, chiqish, masofa bo'ylab yugurish, marraga kirib borish) qoidalari;

### **18-mavzu: Masofa bo'ylab yugurish. (1 soat)**

Masofa bo'ylab 15-20 m ga tez suratda yugurish mashqlari; yugurish yo'lakhasi bo'ylab yakka, juftlik tartibida qisqa masofaga yurish va yugurish mashqlari;

### **19-20-mavzu: 3x10 mokisimon yugurish. (2 soat)**

3x10 m mokisimon yugurishga oid bo'lgan mashqlarni bajarish va mokisimon yugurishni o'rgatish.

### **Nazorat ishi. (1 soat)**

### **(15-20-mavzular asosida)**

### **21-mavzu: Yuqori start. (1 soat)**

Yuqori startda turish qoidalari va qomatni to'g'ri tutib, sekin tezlikda 2 daqiqa davomida masofa bo'ylab yugurish;

### **22-mavzu: Masofani tez suratda yugurish. (1 soat)**

30 m masofani tez suratda yugurish; yo'nalishni o'zgartirib tizzani baland ko'tarib, oyoq uchida o'rtacha tezlikda yugurish mashqlari.

### **23-24-mavzu: Sakrashlar. (2 soat)**

Turgan joyda, harakatda (turli taraflarga: oldinga, ortga, chapga, o'ngga) sakrash mashqlari;

turgan joydan uzunlikka sakrash (fazalariga qat'iy e'tibor qaratish); yugurib kelib to'ldirma to'p, uzun arqon ustidan balandlikka va uzunlikka sakrash; 4-6 qadamdan yugurib kelib uzunlikka sakrash fazalarini bajarish.

### **25-mavzu: Buyumlar vositasida sakrashlar. (1 soat)**

Chizilgan chiziq, arqon va to'ldirma to'p ustidan sakrashlar.

Tepaga osilgan buyumga sakrab qo'llarni tekkazish mashqlari (turgan va turli harakatlarda).

### **26-28-mavzu: Uloqtirish. (3 soat)**

Tennis koptogini to'g'ri ushlab; nishonga aniq uloqtirish; tennis va boshqa har xil koptoklarni nishonga aniq uloqtirish mashqlari; turgan joydan chap va o'ng qo'llarda tennis koptogini uloqtirish mashqlari; 3-4 qadam tashlab tennis koptogini uzoqlikka uloqtirish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(21-28-mavzular asosida)*

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** yengil atletikaning yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish turlari haqida tushunchaga ega bo'ladi hamda ularni bir-biridan farqlaydi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** past va yuqori startlardan turib mokisimon yugurish mashqlarini bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantiradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** yengil atletikaga oid bo'lgan asbob-anjomlar nomini biladi va ulardan foydalana oladi.

## **HARAKATLI O'YINLAR (32 soat)**

**29-32-mavzu: Harakatli o'yinlar va ularni o'ynashda uning qoidalari bilan tanishtirish. (4 soat)**

O'yin turlari va qoidalari bilan tanishtirish; o'yin vaqtida yakka va jamoa tartibida harakatlanish qoidalari, jamoadoshlariga yordam berish.

**33-36-mavzu: Harakatli o'yinlarni o'ynashdan avval bajariladigan mashqlar. (4 soat)**

Sport anjomlaridan foydalangan holda yurish, qo'l va oyoq, gavdani har xil holatda harakatlantirish; maydonchada yo'nalishni turli taraflarga o'zgartirgan holda sekin va tez yurishlar; oyoqlar uchida va tovonlarda yurishlar; sakrashga doir bo'lgan bir va ikki oyoqlab sakrash, turgan joydan, harakatlangan holda oldinga sakrashlar; arg'amchida, halqada sakrash; to'pni irg'itish: kichik va katta to'plarni irg'itib ilib olish; o'quvchilarning yuzma-yuz turgan holda to'pni bir-birlariga irg'itish; to'pni uzoqqa otish; har xil nishonga uloqtirish va savatchaga tushirish mashqlarini bajarish.

**37-60-mavzu: Harakatli o'yinlarni o'ynash. (24 soat)**

“Charxpalak”, “Hamma tezda o'z joyiga”, “Danak”, “Oyog'ingni ho'l qilma”, “Bir qatorga saflaning!”, “Kim ko'p yong'oq yig'ish”, “To'pli estafeta”, “Sakragichli estafeta”, “Yashiringanni topish”, “Nishonga aniq ot”, “Bekinmachoq”, “Kim uzoqqa uloqtiradi”, “Topishmoq”, “Tortishmachoq”, “Chamalash”, “Qoch bolam, qor keldi”, “Qovun polizdan”, “O'rta barmoqni top”, “Chopon”, “Qopqon”, “Qirq tosh”, “Zag'izg'on”, “Jambul”, “Besh tosh”, “Pat”, “Qizil bayroq”, “Kartoshka ekish”, “Qo'ng'iroqcha”, “Sakra bodom chumchuqlar”, “Keladi-ketadi”, “Echki bolalari”, “Bo'yoq sotuvchi”, “Quruvchilar”, “Kosmonavtlar”, “Soqqa”, “Olib qochar”, “To'pni aylana ichiga

tushirma”, “Qo‘riqchi”, “Hurmacha bog‘i”, “Oq terakmi”, “Quloq cho‘zma”, “To‘p o‘rtaga”, “Arg‘amchi bilan estafeta”, “Sakrab o‘t va qochib ket”, “Birgalashib sakraymiz”, “Kuchlilar va chaqqonlar”, “To‘siqlardan oshib o‘tish”, “Kim uzoqqa otadi”, “Savatga to‘p tushirish”, “Uzatdingmi, o‘tir”, “Doiraga tort”, “Qovun polizida”, “Xo‘rozlar jangi”, “Juft-juft bo‘lib tortishish”, “Sehri kataklar”, “Qarmoqcha”, “Qirqtosh”, “Cho‘pon”, “Chavandozlar”, “Mashqni bajar, eslab qol” harakatli o‘yinlarining o‘yin tasrifi, qoidalarini o‘quvchilarga o‘rgatish.

### **O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** harakatli o‘yin turlari va ularning qoidalarini bilish orqali o‘yin boshlanishi, o‘yin jarayonida qoidaga asosan o‘zini boshqara oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** harakatli o‘yinlari qoidalariga rioya qilgan holda bajaradi hamda jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni bajara oladi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** harakatli o‘yinlari turlariga qarab sport anjomlarlarini tanlaydi, foydalanadi hamda o‘yin jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qila oladi.

## **SHAXMAT. (2 soat)**

### **61-62-mavzu: Shaxmat. (2 soat)**

Shaxmat taxtasi, sipohlar, sipohlarning shaxmat taxtasida joylashuvi, hamda ularning harakatlanadigan yo‘nalishlarini o‘rtatish.

### **O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:**

shaxmat taxtasi kataklari va unda donalarni joylashtirish, donalarning nomlarini bilish orqali harakatlantira oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:**

donalarni harakatlantira oladi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** shaxmat donalarini bir biridan farqlay oladi.

## **SUZISH**

Suzish havzalarida o‘zini tutish qoidalari. Avval quruqlikda keyin suvda erkin suzish usulida qo‘l va oyoq harakatlarini bajarish. Suvga tushish va nafas olish.

**Mavzularni o‘rganish uchun - 62 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 4 soat**

**Jami - 66 soat**



**2-SINF**  
**JISMONIY TARBIYA**  
**68 soat (haftasiga 2 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

mustaqil fikrini og‘zaki tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ishlay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid bo‘lgan ma’lumotlarni kuzatib, tushuna olish;

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda o‘zi ustida ishlash, aqliy, axloqiy, estetik, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarini tushunish va his etish, muomala madaniyatiga ega bo‘lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:** ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan milliy urf-odatlarini bilish, tengdoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘la olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:** jismoniy tarbiya faniga oid yangiliklaridan xabardor bo‘lish.

**NAZARIY BILIM ASOSLARI**

Ochiq havoda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishning inson salomatligiga bo‘lgan ta’siri.

Sport turlari haqida qisqacha ma’lumot. Harakatli o‘yinlar orqali rivojlanuvchi jismoniy sifatlari (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlikka) qisqacha tavsif. Kun tartibi, uni tuzish va rioya qilish.

Saf oldida va oxirida yuruvchilar haqida tushuncha. Bajarilishi murakkab bo‘lmagan gimnastika mashqlarini bajarishda nafas olib chiqarishning navbatlashuvi. Mashg‘ulotga sport kiyimini tayyorlash. Mashg‘ulot jarayonida shikastlanishni oldini olish qoidalarini o‘rgatish. Salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan jismoniy mashqlar, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, qaddi-qomatni yaxshilash, ish qobiliyatini oshiruvchi mashqlar. Yurish, yugurish mashqlarini bajarishda nafas olish va chiqarish. Ovqatlanishga qo‘yiladigan talablar.

Gimnastikada foydalaniladigan sport jihozlarini bilish. Yengil atletika mashg‘ulotlarida o‘zini tutish (yurish-turish) qoidalari. Past va yuqori startda turish qoidalari. Harakatli o‘yinlarning o‘quvchilar organizmiga ijobiy ta’siri, ularning sog‘lom jismoniy rivojlanishida, chiniqishida, qaddi-qomatini tiklanishida, harakat faoliyatining o‘sishi, ishchanlik hamda jismoniy ko‘nikma, malaka va sifatlarning rivojlanishi; harakatli o‘yinlarning tarbiya va ta’lim jarayonida insonning axloqiy

va estetik jihatdan shakllantirishdagi roli, o‘yin qoidalari va ularga rioya qilish. Suvda suzish va uning ahamiyati, o‘z-o‘zini nazorat qilishni bilish.

## **GIMNASTIKA (16 soat)**

### **1-mavzu: Saf mashqlari. (1 soat)**

Saf elementlari (safda turish, burilishlar) mashqlari; bir kishilik qatordan ikki, uch kishilik qatarga o‘tib saflanish va qayta saflanish.

### **2-3-mavzu: Umumrivojlantiruvchi mashqlar. (2 soat)**

Dastlabki holatda turish, qaddi-qomatni to‘g‘ri shakllantirish uchun qo‘l, oyoq mashqlarini bajarishda turli holatlarni to‘g‘ri bajarish; mashqlar majmuasini buyumlar va buyumlarsiz bajarish; gimnastik narvon yonida va gimnastika anjomlari (tayoqcha, arg‘amchi, kichik to‘p, qum solingan xaltacha) bilan mashqlar majmuasini bajarish.

### **4-mavzu: Tayanib sakrash. (1 soat)**

Gimnastik o‘rindig‘ida bajariladigan mashqlar (qo‘llarga tayanib o‘ngga-chapga sakrashlar).

### **5-6-mavzu: Tirmashib chiqish. (2 soat)**

Qiya qo‘yilgan gimnastik o‘rindiqlarda ( $20^0$ - $30^0$ ) burchak pastdan va yuqoridan ushlab tirmashib chiqish;

polda (tizzalab) to‘rt oyoqlab doira atrofida oldindagi to‘ldirma to‘pni navbatma-navbat qo‘llar bilan itarib sudralib yurish; biror (30-40 sm balandlikdagi) to‘siq tagidan o‘tish;

balandligi 70 sm keladigan to‘siq ustidan oshib o‘tish;

o‘rindiqlardan o‘rindiqlarga oshib o‘tish (oraliq 20-30 sm) mashqlarini bajarish.

### **Nazorat ishi. (1 soat)**

#### **(1-6-mavzular asosida)**

### **7-mavzu: Osilish va tayanishlar. (1 soat)**

Osilishlar: turgan va yotgan holatda osilish; gimnastika narvonchasiga orqa bilan turgan holatda osilib oyoqlarni bukish va yozish; qo‘llarni bukkan holda osilib turish; bukilib osilgan holatda tortilish; past turnikda osilish mashqlari.

Tayanish: qo‘llarga tayanib yotgan holda va tizzalab turib gimnastik “kon”, gimnastika o‘rindig‘ida bajariladigan mashqlar.

### **8-9-mavzu: Muvozanat saqlash. (2 soat)**

Gimnastika o‘rindiqlarda buyumlarni qo‘lda ushlab yurish (to‘p, halqa, gimnastik tayoqcha); gimnastik o‘rindiqlarning tag qismini (to‘nkarilgan) egilgan holatda uning ustidagi to‘siqlardan har xil harakatlarda yurish; yon tomon bilan qadamlar qo‘yib yurish; polga chizilgan chiziqlar ustida tekkis yurish; bir oyoqda tik turib, qo‘llarni har xil holatda tutib ikkinchi oyoqni yonga, oldinga, orqaga ko‘tarish; bir oyoqda turib, qo‘llarni yonga uzatib muvozanatni saqlash; “qaldirg‘och” hosil qilish; yarim shpagat turish.

### **Nazorat ishi. (1 soat)**

#### **(7-9-mavzular asosida)**

### **10-12-mavzu: Akrobatika. (3 soat)**

G'ujanak bo'lib o'tirish orqali oldinga, orqaga umbaloq oshish; kuraklarda tik turish; yon tomonlarga dumalash; yotgan holatda "ko'prik" hosil qilish; qorin bilan yotgan holda ikki oyoq uchini qo'l bilan ushlab, kerishish; arg'amchi va gardishlar bilan turli mashqlarni bajarish.

### **13-mavzu: Badiiy gimnastika va raqs elementlari. (1 soat)**

Musiqa jo'rligidagi mashqlarni bajarish; qadamlarda sakrab oldinga va o'ng tomonlarga yurish; qo'l va oyoq harakatlarini musiqaga moslab borish; milliy musiqa ritmlarini ijro etish: "Andijon polkasi", "Lazgi". Ritmik gimnastika elementlari va aerobika: "Vals", "Polka qadamlari", "O'rdakchalar raqsi".

### ***Nazorat ishi. (1 soat)***

***(10-13-mavzular asosida)***

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** saflanish, asosiy tik turish, ketma-ket va yonma-yon bo'lib bir qatorga, aylanma bo'lib saflanish, chiziq bo'ylab safga turish, qo'l ushlab doira hosil qilish mashqlarini bajara oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** ertalabki badantarbiya mashqlarini ketma-ketlikda bajara oladi, shaxsiy gigienaga amal qiladi, badanni chiniqtirish mashqlarini bajara oladi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** gimnastika anjomlarni joylashtirishda xavfsiz xolda to'g'ri o'rnatiladi, foydalana oladi.

## **YENGIL ATLETIKA (18 soat)**

### **14-mavzu: Yurish. (1 soat)**

Turli sur'atda masofa bo'ylab harakatlanib sportcha yurish; harakat tezligini o'zgartirib yurish; qo'lni har xil holatda tutib yurish; mo'ljalga yugurish yo'lakchasi chizig'i bo'ylab yurish;

### **15-16-mavzu: Yugurish mashqlari. (2 soat)**

Past to'siqlar orasidan o'tib yugurish; tezlikni oshirib yugurish; tizzani yuqoriga ko'tarib, 50-60 sm bo'lgan to'siqlar osha yurish; tez-tez qadamlab, yarim cho'qqayib keng qadamlab yurish mashqlarini bajarish.

### **17-mavzu: Aralash yugurish. (1 soat)**

Oyoq uchida, turgan joyda tizzani baland ko'tarib yugurish mashqlari; yugurishni yurish bilan almashlab 4 daqiqa davomida yugurish;

### **18-mavzu: 3x10 m mokisimon yugurish. (1 soat)**

3x10 mokisimon yugurish;

### **19-mavzu: Masofa bo'ylab yugurish. (1 soat)**

Past va yuqori startlarda turish texnikasi, qisqa (30, 60 m) va o'rta (500, 800, 1000 m) masofalarga yugurish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(14-19-mavzular asosida)*

**20-21-mavzu: Uzunlikka sakrash. (2 soat)**

Joyida turib uzunlikka sakrash; bir qadamdan (depsinish mashqlari) uzunlikka, 4-6 qadam tashlab uzunlikka sakrash;

**22-23-mavzu: Balandlikka sakrash. (2 soat)**

Yugurib kelib to'g'ridan balandlikka sakrash; yugurib kelib 40-50 sm balandlikdagi to'siqdan sakrab o'tish;

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(20-23-mavzular asosida)*

**24-26-mavzu: Uloqtirishyu (3 soat)**

To'ldirma to'pni (1 kg) to'g'ri ushlab; to'ldirma to'pni pastdan uloqtirish turlari va mashqlarini bajarish; o'tirgan joydan to'ldirma to'pni ikki qo'lda bosh orqasidan va turgan holatda ko'krakdan oldinga tashlash; tennis koptogini bir qo'lda mo'ljalga va uzoqlikka uloqtirish; katta va kichik to'plarni belgilangan masofadan gorizont va vertikal nishonga otish; 5-6 qadam tashlab tennis koptogini aniq nishonga, uzoqlikka uloqtirish.

**27-28-mavzu: Kross tayyorgarlik. (2 soat)**

Kross yugurish qoidasi; uncha baland-past va o'nqir-cho'nqir bo'lmagan joylarda ohista 400-500 m ga (vaqt hisobga olmagan holda) yugurish; yurish bilan almashlab yugurish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(24-28-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** yengil atletika mashg'ulotlarida o'zini tutish (yurish, turish), masofa bo'ylab yugurishda harakat tempini nazorat qila oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** uncha baland-past, o'nqir-cho'nqir bo'lmagan joylarda ohista yugurish orqali kross tayyorgarligi mashqlarini bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** yugurib kelib to'g'ridan balandlikka sakrashda texnika qoidalariga amal qilgan holda sakray biladi.

**HARAKATLI O'YINLAR (32 soat)**

**29-31-mavzu: Harakatli o'yinlarni o'ynashda uning qoidalari bilan tanishtirish hamda bajariladigan mashqlar. (3 soat)**

Maktab kun tartibida - jismoniy tarbiya darslarida, sinfdan tashqari paytlarda harakatli o'yinlarni mustaqil tashkil qilish va o'tkazish, unda ishtirok etish; harakatli o'yinlarni hamda sport o'yinlariga tayyorlovchi o'yinlarda qoidalarga rioya qilgan holda ishtirok etishni o'rgatish.

**32-34-mavzu: Harakatli o‘yinlarni o‘ynashdan bajariladigan mashqlar. (3 soat)**

Sport anjomlaridan foydalangan holda yurish, qo‘l va oyoq, gavdani har xil holatda harakatlantirish; maydonchada yo‘nalishni turli taraflarga o‘zgartirgan holda sekin va tez yurishlar; oyoqlar uchida va tovonlarda yurishlar; sakrashga doir bo‘lgan bir va ikki oyoqlab sakrash, turgan joydan, harakatlangan holda oldinga sakrashlar; arg‘amchida, halqada sakrash; to‘pni irg‘itish: kichik va katta to‘plarni irg‘itib ilib olish; o‘quvchilarning yuzma-yuz turgan holda to‘pni bir-birlariga irg‘itish; to‘pni uzoqqa otish; har xil nishonga uloqtirish va savatchaga tushirish mashqlarini bajarish.

**35-58-mavzular. Harakatli o‘yinlarni o‘rgatish va bajarish. (24 soat)**

“Soqqa”, “Olib qochar”, “To‘pni aylana ichiga tushirma”, “Qo‘riqchi”, “Quloq cho‘zma”, “To‘p o‘rtaga”, “Kengurucha”, “Arg‘amchi bilan estafeta”, “Sakrab o‘t va qochib ket”, “Birgalashib sakraymiz”, “Kuchlilar va chaqqonlar”, “To‘siqlardan oshib o‘tish”, “Kim uzoqqa otadi”, “Savatga to‘p tushirish”, “Tortishmachoq”, “Uzatdingmi, o‘tir”, “Doiraga tort”, “Xo‘rozlar jangi”, “Juft-juft bo‘lib tortishish”, “Qarmoqcha”; “Qirqtosh”, “Cho‘pon”, “Chavandozlar”, “Qovun polizida”, “Sehrli kataklar”, “Mashqni bajar, eslab qol” va boshqa o‘yinlar yordamida diqqat, xotira va jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

*Nazorat ishi. (2 soat)*

*(35-58-mavzular asosida)*

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** harakatli o‘yinlarning o‘quvchilar organizmiga ijobiy ta‘siri va ularning sog‘lom jismoniy rivojlanishidagi o‘rnini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** jismonan chiniqishga, qaddi-qomatni tiklanishiga, harakat faoliyatining o‘sishiga, ishchanlikka oid bo‘lgan harakatli o‘ynlarni o‘ynay biladi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** harakatli o‘yinlarning qoidalarini biladi va ularga rioya qiladi.

**SHAXMAT (2 soat)**

**59-60-mavzu: Shaxmat. (2 soat)**

“Kisht qo‘yish”, mot, pot, durrang holatlari.

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** shaxmat taxtasi kataklari va unda donalarni joylashtirish, donalarning nomlarini bilish orqali harakatlantira oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** donalarni harakatlantira oladi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** shaxmat donalarini bir biridan farqlay oladi.

### **SUZISH**

Erkin suzish usuli elementlarini o'rganish. 25 metrga erkin usulda suzish. Suzishga oid bo'lgan o'yinlar: "Laylak va qurbaqalar", "Baliqchi va baliqlar", "To'pli quvlashmachoq", "Dengizchi".

**Mavzularni o'rganish uchun - 60 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Jami - 68 soat**

### **3-SINF**

#### **JISMONIY TARBIYA**

**68 soat (haftasiga 2 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ishlay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid gazeta va adabiyotlardan foydalana olish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid bo'lgan ma'lumotlarni kuzatib, tushuna olish;

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda o'zi ustida ishlash, aqliy, axloqiy, estetik, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarini anglash va his etish, muomala madaniyatiga ega bo'lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlarini bilish, tengdoshlari bilan do'stona munosabatda bo'la olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid sanoq sonlarining mohiyatini anglash.

### **NAZARIY BILIM ASOSLARI**

Olimpiya o'yinlari va ularning kelib chiqish tarixi haqida tushuncha berish. O'zbekiston iftixorlari yuzasidan ma'lumotlar ("Iftixor" unvoniga sazovor bo'lgan sportchilar). "Umid nihollari" sport musobaqasi haqida ma'lumot berish. Sport o'yinlari va harakatli o'yinlari haqida tushuncha, ularning bir-biridan farqlash.

Jismoniy mashqlarning inson sog'ligini mustahkamlashda, qomatining to'g'ri rivojlanishida, jismoniy ish qobiliyatlarining ta'siri. Inson mushaklarini bo'shashtiruvchi mashqlarning ahamiyati. Har xil nojo'ya harakatlardan shikastlanishning oldini olish. Qomatni rostlaydigan, ertalabki badantarbiya mashqlari majmuasini bajarish. Chiniqtirish muolajalarning ahamiyati. Jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida to'g'ri nafas olish. Yengil atletika darslarida xavfsizlik qoidalari. Qisqa va o'rta, uzoq masofalarga tez suratda yugurish qoidalari. Sakrash turlari va ularning fazalari. O'quvchilarni yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish holatlarida gavdani to'g'ri tutishni ahamiyati. Harakatli o'yinlarning o'tqazilishida hayotiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni, o'yinlar jarayonida sport maydonida yoki sport zalida o'quvchilarning tartib-intizomni saqlashi va o'yin qoidalariga rioya qilishi to'g'risida. Mini-futbol o'yini haqida ma'lumot va uning qoidalarini o'rgatish.

## **GIMNASTIKA (16 soat)**

### **1-mavzu: Saf mashqlari. (1 soat)**

Saf mashqlarini turgan va harakatda bajarish; bir kishilik qatordan ikki, uch kishilik qatorga o'tib saflanish va qayta saflanish.

### **2-3-mavzu: Umumrivojlantiruvchi mashqlar. (2 soat)**

Qomatni to'g'ri shakllantirish uchun qo'l, oyoq mashqlarini bajarishda turli holatlarni to'g'ri bajarish; saf mashqlarini bajarishda sheriklari bilan mutanosib harakatlanish; umumrivojlantiruvchi mashqlar majmuasini buyumsiz va buyumlar bilan bajarish. Mustaqil ravishda 4-5 ta umumrivojlantiruvchi mashqlarni tuzishni o'rgatish.

### **4-5-mavzu: Tayanib sakrash. (2 soat)**

O'g'il bolalar balandligi 90 sm bo'lgan gimnastik "kozyol" ustiga turgan joydan qo'llar bilan tayanib tizzalarga sakrab chiqish, tikka turish va yuqoriga kerilib yumshoq sakrab tushish; sakrab tushishda oyoqlarni yozish.

Qiz bolalar balandligi 80-90 sm gimnastik "kozyol"ga qo'llarga tayanib tizzalarga sakrab chiqish, yuqoridan kerilib yumshoq sakrab tushish; sakrab tushishda oyoqlarni yozish.

### ***Nazorat ishi. (1 soat)***

### ***(1-5-mavzular asosida)***

### **6-7-mavzu: Tirmashib chiqish. (2 soat)**

Qiya joylashtirilgan gimnastik o'rindiq ustidan qo'llarda tortilib tirmashib chiqishda qo'l kuchini rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish; erkin holda arqonga 3 usulda tirmashib chiqishni o'rgatish; 30 soniya mobaynida gimnastik narvonga orqa bilan qo'llarda osilib turish.

### **8-9-mavzu: Osilish va tayanishlar. (2 soat)**

Gimnastika anjomlari: gimnastik narvon, yakkacho'pda, gimnastika o'rindiqlarida mashqlar bajarish; b) Qo'llarda osilib, tizzalarni yuqoriga ko'tarish; v) baland turnikda tortilish (o'g'il bolalar), gimnastika o'rindig'ida tayanib, qo'llarni bukish va yozish (qiz bolalar).

### **10-mavzu: Muvozanat saqlash. (2 soat)**

Gimnastik o‘rindiq ustida oyoq uchida, yonboshlab qadam tashlab, muvozanat saqlab yurish; “qaldirg‘och” hosil qilish; gimnastika o‘rindig‘ida orqaga qadamlab yurish, burilish va tizzada turish, qiya tekislikda yurish; gimnastika o‘rindig‘ining tag qismi (orqasi)da yurish; gimnastika o‘rindiq ustida yurib, to‘pni yuqoriga otib, ilib yurish; 1 metr balandlikdagi yakkacho‘p ustida yurish, 180° burilish, cho‘qqayib o‘tirish, sakrab tushish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(6-10-mavzular asosida)*

### **11-12-mavzu: Akrobatika. (3 soat)**

G‘ujanak bo‘lib o‘tirgan holatdan orqaga dumalash, oldinga dumalab dastlabki holatga qaytish; har xil dastlabki holatlardan oldinga umbaloq oshish; sidirg‘asiga 2-3 marta umbaloq oshishni o‘rgatish; dastlabki holat asosiy turish, to‘xtamasdan ikki marta oldinga umbaloq oshish; orqaga dumalash bilan kuraklarda tik turish; kuraklarda tik turish holatida oyoqlarni bukish, birdaniga “ko‘prik” hosil qilish; bir qo‘lda tayanib, yondan orqaga burilish bilan cho‘qqayib tayanishga o‘tish hamda gavdani to‘g‘rilab yuqoriga sakrab, yumshoq qo‘nish.

### **13-mavzu: Badiiy gimnastika va raqs elementlari. (1 soat)**

Milliy musiqa ritmlarini ijro etish: “Andijon polkasi”, “Lazgi”.

Musiqa jo‘rligida qadamlarda sakrab oldinga va o‘ng tomonlarga yurish kabi bajariladigan mashqlar.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(11-13-mavzular asosida)*

### **O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** chiniqishning asosiy turlari, tabiiy omillari, muolajalarning ahamiyatini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** g‘ujanak bo‘lib o‘tirgan holatdan orqaga dumalash, oldinga dumalab dastlabki holatga qaytish, sidirg‘asiga 2-3 marta umbaloq oshishni bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** akrobatik mashqlarni bajarishda mashqlar majmuasini buyumlar va buyumlarsiz bajara oladi, xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda bajaradi.

## **YENGIL ATLETIKA (18 soat)**

### **14-mavzu: Yurish. (1 soat)**

Sekin, o‘rta va tez sur‘atlarda yurish.

### **15-mavzu: Buyumlar bilan yurish. (1 soat)**

Yurishda qo‘llar bilan turli harakatlanib yurishlar (masalan: qo‘llar oldinda, tepada, qarsak chalib yurish va h.k.); buyumlar (gardish, to‘p) yordamida yugurish yo‘lakchasi chizig‘i bo‘ylab yurish.

### **16-17-mavzu: Yugurish. (2 soat)**



Tezlik sifatini oshiruvchi mashqlar; past startdan tezlikni oshirib 30, 60 m masofalarga yugurish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(14-17-mavzular asosida)*

**18-mavzu: Mokisimon yugurish. (1 soat)**

4x10 m mokisimon yugurish.

**19-mavzu: To'siqlar osha yugurish. (1 soat)**

Balandligi 30-40 sm bo'lgan to'siqlar ustidan oshib yugurish; turli buyumlarni chetlab, aylanib yugurish mashqlari.

**20-21-mavzu: O'rta va uzoq masofalarga yugurish. (2 soat)**

Past va yuqori startlarda turish qoidalari, o'rta masofaga yugurish, yugurish mobaynida nafasni to'g'ri olib, chiqarish; 1000-1500 m masofalarga yugurish.

**22-mavzu: Estafeta yugurish. (1 soat)**

Tayoqchani ushlash, tayoqcha bilan yugurish, tayoqchani sherigiga harakat jarayonida uzatish, estafeta (4x30 m) yugurish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(18-22-mavzular asosida)*

**23-24-mavzu: Sakrash. (2 soat)**

Turgan joydan oyoqda deysinib sakrab, oldinga harakatlanish mashqlari; bir oyoqda sakrab harakat qilish mashqlari; turgan joydan uzunlikka sakrash.

**25-mavzu: Balandlikka sakrash. (1 soat)**

40-50 sm balandlikdagi to'siqlardan oshib sakrash; yugurib kelib uzunlikka va balandlikka sakrash; ikki oyoqlab 180<sup>0</sup> burilib sakrash mashqlari.

**26-27-mavzu: Uloqtirish. (2 soat)**

Turgan joydan tennis koptogini o'ng va chap qo'lda uloqtirish; turgan joydan koptokni nishonga uloqtirish; yugurib kelib tennis koptogini uzoqlikka uloqtirish.

**28-mavzu: Kross tayyorgarlik. (1 soat)**

Baland-past, o'nqir-cho'nqir joylarda yurish va yugurish mashqlari; yugurish davomida turli burchaklarga burilish mashqlari; 50 metrgacha bo'laklardan iborat estafet yugurish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(23-28-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** sakrash turlari va ularning fazalarini bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** yurish, yugurish, sakrash va uloqtirish mashqlarini bajarish jarayonida gavdani to'g'ri tutgan holda amalga oshiradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** qisqa, uzoq masofalarga yugurish mashqlarini bajarishda belgilangan maydonni mustaqil ravishda tanlay oladi va bajaradi.

## HARAKATLI O'YINLAR (24 soat)

**29-30-mavzu: Harakatli o'yinlarni o'ynashda uning qoidalari bilan tanishtirish hamda bajariladigan mashqlar. (2 soat)**

O'yinlarda tartib-intizomga, sabr-qanoatga, shoshilinch chiqishlar, chaqirishlarning me'yorida bo'lishiga odatlantirish. To'plarni uzatish, arg'amchilarda to'g'ri sakrash, aniq nishonga, masofaga otish mashqlari asosida va sport o'yinlari bo'lgan harakatli o'yinlarni bajarish.

**31-32-mavzu: Harakatli o'yinlarni o'ynashdan avval bajariladigan mashqlar. (2 soat)**

Sport turlari elementlariga o'rgatishda o'quvchilardan o'yinni mustaqil tashkil qilishni talab etish. Masalan, gimnastika o'rindiqlaridan yugurib o'tish, sakrab tushish, gimnastik tayoqchalarni olib hatlab o'tish, sakrab-yugurib olib kelish, estafetalar. Sport o'yinlaridan voleybolga taalluqli bo'lgan o'yinni mustaqil tashkil qilib o'tkazish va h.o.

**33-51-mavzu: Harakatli o'yinlarni o'rgatish va bajarish. (19 soat)**

Harakatli o'yinlar va estafetalar: "Olimpiya globusi", "Sehrli kataklar", "Podachi", "Chirgizak", "Qo'riqchi", "Qirq tosh", "Oq suyak", "Doira", "Doira bo'ylab katta estafeta", "To'p uchun kurash", "To'p kapitanga", "Tun va kun", "Qarmoqcha", "G'ildiraq", "Arqon tortish", "Mergan", "To'pni tez ol", "Havoi to'p", "Chavandozlar", "Taqiqlangan harakat", "Kechib o'tish", "To'pga tegib ketma", "Tez olib ot", "Otishma", "Bo'ron" va shular kabi o'yinlar yordamida o'quvchilarda hayotiy fazilatlarni tarbiyalash va rivojlantirish. «To'plarni qatordan uzatish», «Man etilgan mashq», «Doira bo'ylab to'p uzatish», «Hamma o'z bayroqchasiga», «Bolalarda tartib qat'iy», «Qun va tun», «Oq ayiqlar», «Olib qochar», «Insiz quyon», «Yugurishli estafeta», «Nina, ip va tuguncha», «Qopqon», «Charxpalak», «Cho'rtan baliq va baliqlar», «Kim uzoqqa otadi?», «Tulkilar va namatak», «Qurbaqa bilan laylak» o'yinlari orqali chaqqonlik, mardlik, mehnatsevarlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(33-51-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** harakatli o'yinlarning bolalar harakat tayanch malaqalarini osishi va rivojlanishidagi ahamiyatini bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** jismoniy sifatlarni rivojlantirish, hayotiy faoliyat uchun zarur bo'lgan o'yinlar bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** harakatli o'yinlarni bajarishda sport maydoni yoki sport zalda o'zini tutish, tartib-intizomni saqlashi va o'yin qoidalariga rioya qiladi.

## FUTBOL (8 soat)

**52-53-mavzu: Futbol o‘yini bilan tanishtirish. (2 soat)**

Futbol maydoni, darvozasi va to‘pi bilan tanishtirish, erkin holatda to‘pni olib yurish; to‘pni turgan holatda va harakat jarayonida sherigiga to‘g‘ri uzatish mashqlari; futbolchilarning o‘yin va mashqlarni bajarish paytida xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o‘rgatish.

**54-mavzu: To‘pni darvozaga kiritish. (1 soat)**

To‘pni darvozaga turli tarafdin kiritish, jarimadan kiritish;

**55-56-mavzu: Futbol o‘yinida to‘pni o‘yinga kiritish. (2 soat)**

To‘pni o‘yinga kiritish (aut, burchak to‘pi) mashqlarini bajarish;

**57-58-mavzu: Darvozabon texnikasi. (2 soat)**

Darvozabon texnikasi (darvozada turish va harakatlanish), jamoaviy futbol o‘yinini o‘ynash.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(52-58-mavzular asosida)*

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** futbol maydoni, to‘p va darvozaning o‘lchamlarini bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** to‘p bilan harakatlanish va sherigiga uzatishni bajara oladi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** to‘pni o‘yinga kiritish holatlarida to‘pni belgilangan joyga o‘rnatadi va mashqni bajaradi.

**SHAXMAT (2 soat)**

**59-60-mavzu: Shaxmat. (2 soat)**

Rokirovka, piyoda bilan yo‘ldan urib olish, sipohlarning qiymati.

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** futbol maydoni, to‘p va darvozaning o‘lchamlarini bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** to‘p bilan harakatlanish va sherigiga uzatishni bajara oladi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** to‘pni o‘yinga kiritish holatlarida to‘pni belgilangan joyga o‘rnatadi va mashqni bajaradi.

**SUZISH**

Erkin suzish usuli elementlarini o‘rganish. 25 metrda erkin usulda suzish. Suzishga oid bo‘lgan o‘yinlar: “Laylak va qurbaqalar”, “Baliqchi va baliqlar”, “To‘pli quvlashmachoq”, “Dengizchi”.

**Mavzularni o‘rganish uchun - 60 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Jami - 68 soat**

**4-SINF**

**JISMONIY TARBIYA**

**68 soat (haftasiga 2 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

Fanga oid olingan bilimlarni yuzasidan mustaqil fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ishlay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid adabiyotlardan foydalana olish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid bo‘lgan ma‘lumotlarni kuzatib, tushuna olish; darslik va boshqa manbalardan foydalana olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda o‘zi ustida ishlash, aqliy, axloqiy, estetik, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarini tushunish va his etish, muomala madaniyatiga ega bo‘lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan milliy urf-odatlarini bilish, tengdoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘la olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid sanoq sonlarining mohiyatini anglashva amalda qo‘llay olish.

#### **NAZARIY BILIM ASOSLARI**

Qadi-qomatning tuzilishiga maxsus mashqlarning ta’siri. Badanni chiniqtirishning asosiy qoidasi va ahamiyati haqida tushuncha berish. Mashg‘ulot vaqtida shikastlanishning oldini olish va birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida. Qomat buzilishining oldini olish, qomatni rostlaydigan mashqlar haqida tushuncha berish. Ommaviy sport turlari to‘g‘risida (futbol, voleybol, gandbol, basketbol, badminton, tennis va h.k.) ma‘lumot berish. O‘z-o‘zini nazorat qilish to‘g‘risida bilim berish. Badanni chiniqtirishning asosiy qoidalari va ahamiyati.

Gimnastika turlari, sport anjomlaridan foydalanish tartibi. Gimnastika mashqlarini qo‘llab, dars va tanaffus vaqtida o‘yinlarga o‘rgatish, qo‘llar bilan simmetrik va assimetrik harakatlarni bajarish. Harakat tartibi (rejimi) hamda uning

o'quvchilar salomatligi va qobiliyatini oshirishdagi ahamiyati. Yengil atletika mashg'ulotlarida o'zini tuta bilish qoidalari. Qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish chora tadbirlari.

Salomatlikni saqlashda jismoniy mashqlarning ahamiyati. O'quvchilarning salomatligini mustahqamlashda jismoniy tarbiyaning o'rni. Jismoniy mashq bilan shug'ullanishning gigienik qoidalari.

O'zbekistonda basketbolning rivojlanishi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Mini-basketbol o'yinining soddalashtirilgan qoidasi. Maktabda o'tkaziladigan voleybol haqida tushuncha va uning ahamiyati. Voleybol o'yinida turish holatini, o'yin qoidasini, o'rin o'zgartirish qoidalarini o'rganish. Jismoniy mashqlarni tana a'zolariga ijobiy yoki salbiy ta'siri haqida tushuncha berish. O'zbekistonda gandbol o'yini haqida (qisqacha ma'lumot).

Futbolchilarning o'yinda o'zini tutishi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi. Yosh futbolchilarning sport formasi va kiyimlari. Futbol bilan muntazam shug'ullanish orqali chiniqtirish. Futbolchilarning o'yin mashqlari va o'yin paytida xavfsizligining asosiy qoidalari. Futbolchilarning kiyim va poyabzallariga qo'yiladigan talablar.

Harakatli o'yinlarning insonning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati, o'yinlar jarayonida ta'lim-tarbiya, axloq-odob, do'stlarga qanday munosabatda bo'lish belgilarini aniq misollar bilan yetkazish, harakat paytida o'zining qobiliyatini o'zi aniqlay bilish, uzoq-yaqinni, tevarak-atrofdan qilinayotgan harakatlarni ko'ra bilish.

## **GIMNASTIKA**

**(14 soat)**

### **1-mavzu: Umumrivojlantiruvchi mashqlar. (1 soat)**

Tizzalarda cho'kkalab, qo'llar yordamisiz tik turish; gimnastik narvonida hamda gimnastik o'rindig'ida mashqlar bajarish; buyumlar bilan umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish (gimnastik tayoqchalari, gantellar, gardishlar, kichik to'plar, arg'amchi va h.k.).

### **2-3-mavzu: Tayanib sakrash. (2 soat)**

Yugurib kelib gimnastik "kozyol"ga tayangan holda tizzaga turish, shu holatda bir qo'lga tayanib yon tomonga (chap, o'ng) tizzadan sakrab tushish mashqlari;

### **4-mavzu: Gimnastik "kozyol"da tayanib sakrash. (1 soat)**

Gimnastik "kozyol"da tizzaga tayanib turishdan tayanib o'tirishga o'tish, ko'krakni kerib yumshoq sakrab tushish; balandligi 100 sm bo'lgan gimnastika "kozyol"dan oyoqlarni kerib sakrab o'tirish; gimnastik "kozyol" ustidan oyoqlarni kerib tayanib sakrash mashqlarini bajarish:

1. O'g'il bolalar – gimnastik "kozyol" (uzunasiga o'rnatilgan, balandligi 100 sm) ustidan oyoqlarni kerib sakrash;

2. Qiz bolalar – gimnastik "kozyol" (eniga o'rnatilgan, balandligi 80 sm) ustiga sakrab chiqish, cho'qqayib o'tirish, qo'llarni siltab yumshoq sakrab tushish.

### **5-mavzu: Tirmashib chiqish mashqlari. (1 soat)**

Gimnastik narvoniga qo‘l va oyoqlarni bir vaqtda qo‘yib chiqish hamda tushish; qiya ko‘tarilgan ( $45^0$ - $50^0$ ) gimnastik o‘rindiqqa tirmashib chiqish va tushish;

**6-7-mavzu: Arqonga tirmashib chiqish. (2 soat)**

Arqonga erkin usulda tirmashib chiqish; arqonga uch harakat usulida tirmashib chiqish va tushish; tik arqonga uch harakat usulida tirmashib chiqishda gimnastika devorida osilib turishdan, uch harakat usuli texnikasi bilan tirmashib chiqish, tik arqonda ko‘rsatilgan usulda 2-3 metrgacha tirmashib chiqish mashqlarini bajarish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(1-7-mavzular asosida)*

**8-mavzu: Gimnastik narvonda osilish va tayanishlar. (1 soat)**

Gimnastika narvoniga o‘rgatilgan usullarda tirmashib chiqishlar (oddiy, bir taraflama, har taraflama); gimnastika narvonida osilib turgan holatdan, qo‘llarga tortilish bilan tirmashib chiqish; gimnastika narvonidan qiya qo‘yilgan gimnastika o‘rindiq‘iga o‘tish; gimnastik narvonga tayanib turgan holda chap va o‘ng oyoqni yon tomonga uzatish; turnikda osilish, oyoqlarni bukib osilish, osilishda oyoqlarni bukib to‘g‘rilab oldinga ko‘tarilish mashqlarini bajarish.

**9-mavzu: Past turnikda tortilishlar. (1 soat)**

Past turniqda osilib turishdan to‘ntarilib tayanchga ko‘tarilish (bir oyoqda deysinib, ikkinchisida siltanib bajariladi); mashqni bajarish uchun oyoq harakatlenganda qo‘llar buqilib, oyoq va gavdani turnikka yaqinroq olib borishga harakat qilinadi.

**10-mavzu: Muvozanat saqlash. (1 soat)**

Gimnastik o‘rindiqda bir oyoqlab 2-3 soniya davomida “qaldirg‘och” turish; o‘ng va chap oyoqlarda tayanch bilan muvozanat saqlab turish; yakkacho‘p ustida mashqlar: oddiy, oyoq uchlarida, yonlarga juftlama qadam bilan, oldinga va orqaga juftlama qadam bilan, buyumlar ustidan xatlab o‘tish; yakkacho‘p ustida yon bilan turib oyoqlarni chalishtirib yurish; yakkacho‘p ustida sakrab burilishlar: avval yerda to‘ntarilgan gimnastik o‘rindiq‘ida  $90^0$ ,  $180^0$  o‘ng (chap)ga sakrab burilishlarga o‘rgatish; yakkacho‘p ustida turgan holatdan 35-40 sm balandliqdagi to‘siqlar ustidan xatlab o‘tish bilan yurish.

**11-12-mavzu: Akrobatika. (2 soat)**

“Yarim shpagat”, “shpagat” o‘tirishlarni bajarish uchun maxsus mashqlar bilan shug‘ullantirish; kuraklarda tik turish; akrobatika mashqlar majmuasi; dastlabki holat oyoqlar kerilgan, qo‘llar yuqorida orqaga engashib “ko‘prik” hosil qilish, chap (o‘ng) qo‘lga tayanib burilib, cho‘kkayib tayanish holatini bajarish. Ikki marta ketma-ket oldinga umbaloq oshib, yuqoriga kerishib sakrash mashqlarini bajarish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(8-12-mavzular asosida)*

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** gimnastika turlari xususiyatiga mos bo'lgan sport anjomlarining nomi, o'lchamlari va ulardan xavfsiz usulda foydalanish tartibini bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** tik arqonga uch harakat usulida tirmashib chiqadi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralarini biladi va ularga amal qiladi.

## **YENGIL ATLETIKA**

**(18 soat)**

### **13-14-mavzu: Yurish. (2 soat)**

Qo'llarni turli holatlarda harakatlantirib yurish; yarim o'tirib yurish; oyoqda hamla qilib yurish; oyoq uchida va tovonda yurish; har xil tezlikda yurish.

### **15-16-mavzu: Yugurish. (2 soat)**

O'rta tezlikda 4 daqiqa davomida yugurish; past startdan turib juftlikda 60 m masofaga yugurish; 200 m masofaga o'rta tezlikda 3-4 marta dam olish bilan almashib yugurish;

### **17-18-mavzu: Uzoq masofaga yugurish. (2 soat)**

Uzoq masofaga yugurish texnikasi, uzoq masofaga (1000 m) o'rta tezlikda 6-8 marta dam olish bilan almashib yugurish;

### **19-mavzu: Mokisimon yugurish. (1 soat)**

4x10 m mokisimon yugurish;

### **20-mavzu: Estafeta yugurish. (1 soat)**

4x60 m estafeta yugurish.

### **Nazorat ishi. (1 soat)**

*(13-20-mavzular asosida)*

### **21-22-mavzu: Yugurib kelib "oyoq bukish usulida" sakrash. (2 soat)**

Bir oyoqda 15-20 metr masofaga sakrab borish mashqlari; balandligi 30-50 sm bo'lgan buyumlar ustidan sakrab, yumshoq tushish; to'g'ridan yugurib kelib balandlikka sakrash; yugurib kelib uzunlikka "oyoq bukish usuli"da sakrash,

### **23-24-mavzu: Yugurib kelib balandlikka "hatlab o'tish usulida" sakrash. (2 soat)**

sakrashda fazalarga bo'lib texnikasini o'rganish; yugurib kelib balandlikka "hatlab o'tish usuli"da sakrash (fazalarga e'tibor qaratgan holda) mashqlarini bajarish.

### **25-26-mavzu: Uloqtirish. (2 soat)**

Tennis koptoklarini o'ng va chap qo'llar bilan mo'ljalga uloqtirish; tennis koptogini bir qadam kengligi 4 metr bo'lgan yo'lakcha ichidan uloqtirish; koptokni uzoq masofaga 3-4 qadam tashlab uloqtirish.

### **27-28-mavzu: Kross tayyorgarligi. (2 soat)**

Past-baland noqulay vaziyatlarga ega bo'lgan sharoitlarda 400-500 metr masofa bo'ylab kross yugurish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(21-28-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** gimnastika turlari xususiyatiga mos bo'lgan sport anjomlarining nomi, o'lchamlari va ulardan xavfsiz usulda foydalanish tartibini bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** tik arqonga uch harakat usulida tirmashib chiqadi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralarini biladi va ularga amal qiladi.

### **HARAKATLI O'YINLAR (12 soat)**

**29-30-mavzu: Harakatli o'yinlarni o'ynashda uning qoidalari bilan tanishtirish hamda bajariladigan mashqlar. (2 soat)**

Tanish harakatli o'yinlarni tashkil etishda o'qituvchiga, onaboshiga ko'maklashish, o'yinlar qoidasini, mazmunini tashkiliy tomonlarini bilish; tartib-intizom qoidalariga rioya qilish hamda harakat belgilari – sakrash, uloqtirish, tortilish, yugurish me'yorlarini bajarish.

**31-39-mavzu: Harakatli o'yinlarni o'rgatish va bajarish. (9 soat)**

"Oq terakmi, ko'k terak?", "Raqam bilan chaqirish", "Qirq tosh", "Kim chaqqon?", "Olib qochar", "To'pni tushirib yuborma", "To'rt tomondan to'p uzat", "To'pni savatga tashla", "Quloq cho'zma", "Tungi soqchi", "Otishma", "Bo'ron", "Qubba", "Doiraga tort", "Sakrab va o'rmalab o'tish estafetasi", "To'pni uzatib yugurish estafetasi", "Balandlikka sakrash estafetasi", "Yo'laklar bo'ylab sakrash", "Halqachani kiygizish", "Ilon izi bo'lib yurish", "Kalxat hujumi", "To'xtamasdan qidir", "Eng sezgir o'yinchi", "Kim ko'p qo'ziqorin teradi", "Bo'sh o'rin", "Otib qochar", "Estafetali yugurish", "Chizmadan shakl yasash", "Sehri kataklar", "Man etilgan mashq" va boshqa o'yinlar bilan o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(31-39-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** harakatli o'yinlarning insonning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati, o'yinlar jarayonida ta'lim-tarbiya, axloq-odob, do'stlarga qanday munosabatda bo'lish, harakat paytida o'zining qobiliyatini o'zi aniqlay bilish, uzoq-yaqinni, tevarak-atrofdan qilinayotgan harakatlarni ko'ra biladi.



**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** harakatli o'yinlarni bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantiradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** harakatli o'yinlarning tavsifiga xos bo'lgan harakat belgilari – sakrash, uloqtirish, tortilish, yugurish me'yorlarini bajarish qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralari biladi va ularga amal qiladi.

## **SPORT O'YINLARI** **(basketbol, voleybol, gandbol)** **(10 soat)**

### **40-mavzu: Basketbol o'yini. (1 soat)**

Basketbol o'yin qoidasi, to'p og'irligi, maydon o'lchami; maydonda o'yinchilarning joylashuvi va harakatlanish.

### **41-mavzu: Basketbol to'pi bilan mashqlar. (1 soat)**

Tik turgan holda himoya va hujum harakatlarini bajarish; to'pni ilib olish va uzatish; to'p bilan ikkala qo'l bilan bir joyda turib, joyni almashtirib harakatlanish; to'pni bir qo'l bilan to'g'ri chiziqdan urib olib yurish;

### **42-mavzu: Basketbol to'pini savatga tashlash. (1 soat)**

To'pni joydan turib bir qo'lda yelkadan oshirib savatga tashlash; ikki tomonlama mini-basketbol o'yinining oddiy elementlarini soddalashtirib bajarish; basketbol o'yini qoidasi asosida jamoaviy o'yin o'tkazish.

### **43-mavzu: Voleybol. (1 soat)**

Voleybol o'yin qoidasi, to'p og'irligi, maydon o'lchami; maydonda o'yinchilarning joylashuvi va harakatlanish.

### **44-45-mavzu: Voleybol to'pi bilan mashqlar. (2 soat)**

To'pni ushlab; ikki qo'llab to'pni pastdan, yuqoridan uzatish; ikki qo'l bilan yuqoridan kelgan to'pni bir-biriga uzatish; o'yinchilarning asosiy burchi va huquqlarini o'rgatish va o'ynash qoidalarini bilish; voleybol o'yini qoidasi asosida jamoaviy o'yin o'ynash.

### **46-47-mavzu: Gandbol o'yini. (2 soat)**

O'yinchining tik turgan holatida turishni bilish; to'pni uloqtirish va ushlab olishni bilish, to'pni yerga urib (asta-sekin) darvozaga otishni o'rganish; gandbol o'yini qoidasi asosida jamoaviy o'yin o'ynash.

### **Nazorat ishi. (2 soat)**

### **(40-47-mavzular asosida)**

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** O'zbekistonda sport o'yinlarining (basketbol, voleybol, gandbol) rivojlanishi to'g'risida hamda o'yin qoidasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** to'p bilan bajariladigan harakatning taktik-texnikalarini bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** harakat jarayonida o‘z-o‘zini mustaqil ravishda xavfsizligini ta’minlay oladi.

### **FUTBOL (12 soat)**

#### **48-mavzu: Futbol o‘yin elementlarini o‘rgatish. (1 soat)**

Futbolchilarning o‘yin elementlari va mashqlarni bajarish paytida xavfsizlik qoidalari; ertalabki gigienik gimnastika mashqlari majmuasini bajarish;

#### **50-58-mavzu: Futbol texnikasi. (2 soat)**

Futbol bo‘yicha o‘yin mashqlari va mezon talablarini bajarish; to‘pni olib yurishni va sherigiga uzatishni o‘rganish; to‘pni o‘yinga kiritishni bajarish.

#### **Nazorat ishi. (1 soat)**

*(48-58-mavzular asosida)*

#### **O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:**

FIFA, OFK, O‘FF haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:**

futbolga oid bo‘lgan mashqlarni bajarishda texnika-taktikalarga ega bo‘ladi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** to‘pni olib yurish mashqlarini bajarishda (“sakkizlik”) jihozlarni o‘zi o‘rnatadi.

### **SHAXMAT**

**(2 soat)**

#### **59-60-mavzu: Shaxmat. (2 soat)**

Shaxmat notatsiyasi, qisqa partiyalar, shaxmat odobi.

#### **O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** futbol maydoni, to‘p va darvozaning o‘lchamlarini bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** to‘p bilan harakatlanish va sherigiga uzatishni bajara oladi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** to‘pni o‘yinga kiritish holatlarida to‘pni belgilangan joyga o‘rnatadi va mashqni bajaradi.

### **SUZISH**

Erkin suzish usulida suzish; 50 metrdan 100 metrgacha bo‘lgan masofada erkin usulda suzish; suvdagi o‘yinlar: “Koptok uchun kurash”, “G‘ovvos”, “Torpedo”.

#### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

Fanga oid olingan bilimlar yuzasidan mustaqil fikrini ogʻzaki va yozma tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ishlay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid adabiyotlardan foydalana olish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid boʻlgan maʼlumotlarni kuzatib, tushuna olish; darslik va boshqa manbalardan foydalana olish.

**Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda oʻzi ustida ishlash, aqliy, axloqiy, estetik, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida boʻlayotgan voqea, hodisa va jarayonlarini tushunish va his etish, muomala madaniyatiga ega boʻlish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

ajdodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan milliy urf-odatlarini bilish, tengdoshlari bilan doʻstona munosabatda boʻla olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid sanoq sonlarining mohiyatini anglash va amalda qoʻllay olish.

**Mavzularni oʻrganish uchun - 60 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Jami - 68 soat**

**5-SINF****JISMONIY TARBIYA**

**68 soat (haftasiga 2 soat)**

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:****Kommunikativ kompetensiya:**

Eganlangan bilimlar asosida mustaqil fikrini ogʻzaki va yozma tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ishlay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid adabiyotlardan foydalana olish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid boʻlgan maʼlumotlarni kuzatib, tushuna olish va jismoniy tarbiya va sportga oid internet tarmoqlaridan foydalana olish; darslik va boshqa manbalardan foydalana olish.

**Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda oʻzi ustida ishlash, jismoniy sifatlarni bilish, har bir sport turidan uning texnikasi va taktikasini anglash, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish, sogʻlom turmush tarzini anglash.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarni tushunish va his etish, fan doirasida qabul qilingan qaror va qonunlarni tushunish va muomala madaniyatiga ega bo'lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlarni bilish, tengdoshlari bilan do'stona munosabatda bo'la olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid sanoq sonlarining mohiyatini anglash, vaqt me'yorlarini va maydon o'lchamlari borasidagi bilimlarni anglash.

## **NAZARIY BILIM ASOSLARI**

Jismoniy mashq bilan shug'ullanishning gigienik qoidalari. Ertalab darsgacha o'tkaziladigan gimnastika mashqlarini bajarish qoidalari va talablari. Maktab o'quvchilarining ovqatlanish tartibi. Jismoniy mashqlarni bajarishda qo'llaniladigan gigienik omillar. Jismoniy mashqlarni bajarishda shikastlanishning oldini olish. Jismoniy mashqlarning inson hayotiga va salomatiga zaruriy ahamiyati. Uyga berilgan topshiriqlarni va jismoniy tarbiya daqiqalarining qoidalari haqida tushuncha berish. Zararli odatlarning inson salomatligiga bo'lgan salbiy ta'siri. Jarohatlanishning oldini olish haqida ma'lumot. Jismoniy mashqlar mashg'ulotining gigienik qoidalari. Uyga berilgan mashqlarni mustaqil ravishda bajarishda qaratiladigan talablar. Yugurish vaqtida to'g'ri nafas olish, o'quvchilarning harakat va ovqatlanish tartibi. Yugurib kelib uzunlikka sakrash mashqining fazalarini bajarish tartibini bilish. Basketbol o'yini kelib chiqish tarixi va O'zbekistonga kirib kelishi. Basketbol o'yinining qoidalarini bilish. Voleybol o'ynash qoidalari to'g'risida tushuncha berish va amaliy o'rgatish.

Jismoniy tayyorgarlik – ishchanlik unumdorligi mezoni. Dars paytida belgilangan mashg'ulot-mashq o'tkazishning xavfsizligini ta'minlash qoidalari. Yosh futbolchilarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligi. To'pni egallash texnikasi futbolda muvafaqqiyatga erishishning asosidir. Futbol bilan shug'ullanganda kelib chiqadigan shikastlanishning sabablari haqida tushuncha.

O'zbekistonda Kurashning kelib chiqish tarixi. Kurash turlarini farqlay bilishi. Milliy kurash kiyimi. Kurash atamallari. Kurash texnikasi va taktikasi haqida.

O'quvchilarni jismoniy barkamol, aqliy va axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda harakatli o'yinlarning ahamiyati; ochiq havoda tashkil qilinadigan o'yinlarda dam olish, o'rtacha harakatlar bilan bajariladigan o'yinlarning ahamiyati. Olimpiya o'yinlari va "Umid nihollari" haqida tushuncha. Olimpiya o'yinlarining kelib chiqish tarixi haqida tushuncha berish. va sport o'yinlari haqida ma'lumot berish.

## **GIMNASTIKA (14 soat)**

### **1-mavzu: Umumrivojlantiruvchi mashqlar. (1 soat)**

O'quvchilarning yosh-fiziologik xususiyatlariga mos bo'lgan buyumsiz va buyumlar (to'ldirma to'p, gimnastik tayoqcha, arg'amchi va boshqalar) bilan mashqlar bajarish; sakrashlar, cho'qqayib o'tirishlar, har xil yo'nalishda egilish va tayanishlarni, birga qo'shilgan mashqlar majmuasini bajarishni o'rgatish; arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

### **2-3-mavzu: Tayanib sakrash. (2 soat)**

Yugurib kelib gimnastika "kozyoli" ustiga tayanib, tizzalarga sakrab chiqish, tizzalardan qo'llarni ko'tarib yumshoq sakrab tushish; gimnastika "kozyoli" ustiga tayanib oyoqlarga ko'tarilish va tik holatdan ko'krakni kerib yumshoq sakrab tushish; gimnastik "kozyol" ustidan oyoqlarni kerib tayanib sakrash mashqlarini bajarish:

1. O'g'il bolalar – gimnastika "kozyoli" (uzunasiga o'rnatilgan, balandligi 100 sm) ustidan oyoqlarni kerib sakrash;

2. Qiz bolalar – gimnastika "kozyoli" (eniga o'rnatilgan, balandligi 80 sm) ustiga sakrab chiqish, cho'qqayib o'tirish, qo'llarni siltab yumshoq sakrab tushish.

### **4-5-mavzu: Tirmashib chiqish. (2 soat)**

Gimnastik narvon bo'ylab yuqoriga, diagonal bo'yicha tirmashib chiqish va tushish; arqonga ikki, uch harakat usulda (o'g'il bolalar – 3 m, qiz bolalar – 2 m) tirmashib chiqish va tushish.

### **6-7-mavzu: Osilish va tayanishlar. (2 soat)**

Osilishlar: gimnastika narvonida oyoqlar bilan osilib turishdan oyoqlar bilan deysinib, kerishishdan osilishga o'tish; qo'shpoyada oyoqlarni kerib oshirgan holda qo'llarga tayanib tik turish; o'g'il bolalar – bukilish va osilish, baland turnikka osilib tortilish, osilib turgan holda oyoqni tik ko'tarish; qiz bolalar – aralash osilishlar, past turnikda yotgan holda osilib tortilish.

Tayanishlar: polda, gimnastika o'rindig'iga qo'llar bilan tayangan holda bukish va yozish mashqlari.

### ***Nazorat ishi. (1 soat)***

### ***(1-7-mavzular asosida)***

### **8-9-mavzu: Akrobatika. (2 soat)**

Oldinga va orqaga ikki marta ketma-ket umbaloq oshish; orqa tomonga oyoqlarni yuqoriga ko'tarib kuraklarda tik turish; chalqancha yotgan holda "ko'prik" hosil qilish; akrobatikaga oid bo'lgan 2-3 ta mashqlardan iborat majmualarni bajarishni o'rgatish; mashqlari yakunidan so'ng bir qadam oldinga chiqib, qo'llarni yonga ko'tarish.

### **10-11-mavzu: Muvozanatni saqlash mashqlari. (2 soat)**

Yakkacho'p yonida ikki qo'l bilan tayanib, o'ng oyoqni oldinga siltab o'tkazib, yakkacho'p ustiga chiqib chap tomonga burilib, oyoqlarni ochib o'tirish (yakkacho'p balandligi 90-100 sm); yakkacho'p ustida turli harakat mashqlarini bajarish: oyoqlarni orqaga siltab, oldinga qo'llarni bukib qorinda yotish; qo'llarni yozib (to'g'irlab) gavdani ko'tarib turish; o'ng oyoqni oldinga bukib, yarim o'tirib, qo'llarni yonga uzatish; chap oyoqni o'ng oyoq orqasiga qo'yib, qo'llarni yondan yuqoriga ko'tarib, oyoq uchida tik turish; chap oyoqni yarim bukib oldinga qadam

tashlab yurish; o'ng qo'lni orqadan doira shaklida aylantirib yuqoriga ko'tarish; o'ng oyoqni chap oyoq kabi bukib oldinga qadam tashlab, chap qo'lni orqadan aylantirib yuqoriga ko'tarish; chap oyoqni o'ng oyoq yoniga qo'yib, chap tomonga burilish; qo'llarni oldinga tushirib orqaga uzatish, oyoqlarni yarim bukkan holda yuqoriga kerilib sakrab tushish (yakkacho'p bo'lmagan taqdirda gimnastik o'rindiqa bajarilishi mumkin); yakkacho'p ustida bir oyoqda (chap, o'ng) "qaldirg'och" bo'lib turish.

**12-mavzu: Estafetali quvnoq o'yinlar. (1 soat)**

O'rgatilgan akrobatika mashqlaridan sakrash, yurish, to'siqlardan o'tish, arg'amchi, gardishlarda o'rgatilgan mashqlardan, to'plarni polga urib yurish mashqlaridan iborat estafetali quvnoq o'yinlarni bajarish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(8-12-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** bajarilayotgan gimnastika mashqlarining insonning tana a'zolariga bo'lgan ta'sirini bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** muvozanat saqlash mashqlarini ketma-ketlikda bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** muvozanat saqlash mashqlarini bajarishda musiqa ohanglari ostida bajaradi.

**YENGIL ATLETIKA (16 soat)**

**13-14-mavzu: Yurish. (2 soat)**

Chiziq bo'ylab oyoq uchida, tovonda, oyoq yon qismlarida (ichki, tashqi) yurishlar; turli yurish mashqlariga oid bo'lgan majmualar (yarim o'tirib, orqa bilan yurish, o'tirgan holatda sakrash bilan bog'liq yurish) mashqlari.

**15-18-mavzu: Yugurish. (4 soat)**

Past startdan chiqib yugurish; o'rta masofalarga yugurish; 200-300 m masofaga 4-5 marta yurish bilan almashlab yugurish; 4x10 m mokisimon yugurish; turli masofalarga (30, 60, 100, 400, 1000 m) texnikaga rioya qilgan holda yugurishlar; bir me'yorda 4 daqiqa davomida yengil yugurish.

**19-mavzu: Kross tayyorgarlik. (1 soat)**

Past, baland yerlarda yurish va yugurish; pastlikdan tepalikka va tepalikdan pastga yugurish; 60 m bo'laklardan iborat estafetalar; 1000 m masofaga kross yugurish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(13-19-mavzular asosida)*

**20-23-mavzu: Sakrash. (4 soat)**

Turgan joydan uzunlikka sakrash; yugurib kelib uzunlikka “oyoq bukish usuli”da sakrash, sakrash fazalariga rioya qilish; yugurib kelib balandlikka “hatlab o‘tish usuli”da sakrash (fazalarga e’tibor qaratgan holda) mashqlarini bajarish; planka ustidan sakrab oshib o‘tish.

*24-26-mavzu: Uloqtirish. (3 soat)*

Tennis koptogini turgan joydan uloqtirish; tennis koptogini 3-4 qadamdan yugurib kelib uloqtirish; tennis koptogini mo‘ljalga uloqtirish; to‘ldirma to‘p (1 kg) ikki qo‘llab turgan joydan uloqtirish mashqlari.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(20-26-mavzular asosida)*

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** kross yugurish, kross tayyorgarligi mashqlari haqida biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** past-balandlik bo‘ylab 1000 m yugurish mashqlarini bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** kross tayyorgarlik mashqlarini bajarishda me‘yorlarni biladi va ularga amal qiladi.

## **SPORT O‘YINLARI** **(basketbol, voleybol, gandbol)** **(16 soat)**

**27-31-mavzu: Basketbol. (5 soat)**

O‘yinchining turish holati; to‘p bilan harakatlanish; sakrab to‘xtash; himoya vazifasini har tomonlardan bajarish; to‘pni ilib olish; ko‘krakdan uloqtirish; joy almashtirib har tomonlama harakat qilish; to‘pni o‘ng va chap qo‘llarda yerga urib yugurish; to‘pni halqaga bir qo‘l bilan yelkada (boshqa qo‘l yordamida) ikki tashlash; mini-basketbol o‘yinini turli basketbol elementlari bilan almashlab o‘ynash.

**32-36-mavzu: Voleybol. (5 soat)**

O‘yinning boshlash va yakunlashda partiyalar necha hisobgacha davom etish qoidalari; ochkolarni hisoblash; hakamlik va musobaqalashish; o‘yinchilarning maydondagi joylashuvi va harakatlanishi; past va yuqori tomondan kelgan to‘pni qaytarish texnikasini bajarish; to‘pni pastdan va yuqoridan uzatish.

**37-40-mavzu: Gandbol. (4 soat)**

Bir qo‘lda to‘pni ushlash; turgan joydan to‘pni bir qo‘l bilan uloqtirish; sakrab to‘pni uloqtirish; harakatlanib kelib to‘pni darvozaga uloqtirish; darvozabon o‘yinini bilish (tik turish, harakatlanish, qo‘llar bilan kelayotgan to‘pni qaytarish); to‘pni yerga urib olib yurish; ikki qadamlab to‘xtash, to‘pni olib yurish.

*Nazorat ishi. (2 soat)*

*(27-40-mavzular asosida)*

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** sport o'yinlarining texnika va taktika qoidalarini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** sport o'yinlarida hujum va himoya taktikalariga oid mashqlarni bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** hujum va himoya taktikalarini bajarish jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.

## **FUTBOL (12 soat)**

### **41-51-mavzu: Futbol o'yin texnikasini o'rgatish. (12 soat)**

Tezlikni va harakat yo'nalishini o'zgartirib yugurish; o'yinchilarning harakatlanish tartibi; har xil holatlarda start olish mashqlari; to'pni oyoq yuzi, ichki tashqi yoni bilan tepib oshirish; to'pni oyoq yuzi va tashqi yoni bilan olib yurish; maydonning yon tomonlaridan to'pni o'yinga kiritish; burchaklardan to'pni o'yinga kiritish; 11 metrlik jarima (penalti) to'pini darvozaga tepish; Futbol qoidasi asosida ikki tomonlama o'yin; 2 m kenglikdagi yo'lakcha ichida to'p bilan harakatlanish (30 metr masofa).

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(41-51-mavzular asosida)*

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** to'pga beriladigan zarbalarni bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** darvoza burchaklari, darvozaga beriladigan zarbalar bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** to'pni oyoq yuzi va tashqi yoni bilan olib yurishni bajaradi.

## **KURASH (8 soat)**

### **52-58-mavzu: Kurash mashqlarining elementlarini o'rgatish. (8 soat)**

Kurash atamalari va iboralari; "yiqilishdan saqlanish", "bo'yinni toblash", "yon tomonlarga yiqilish" usullarini bajarish; qo'llarni orqaga qilib bir oyoqda turgan holda raqibni yelka va gavda bilan turtib belgilangan maydondan chiqarib yuborish; cho'qqayib o'tirgan holatdan orqaga dumalash; oldinga qarab umbaloq oshish mashqlarini bajarish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(52-58-mavzular asosida)*

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** kurash turlari haqida biladi.



**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** kurash usullarini bajarishdan avval tana a'zolarining chigalyozdi mashqlarini bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** kurash mashqlarini bajarishda xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.

### **SHAXMAT (2 soat)**

#### **59-60-mavzu: Shaxmatni o'rgatish. (2 soat)**

Yakka shohni mot qilish. Ikki ruh bilan mot qilish. Og'ir sipohlar bilan mot qilish.

### **SUZISH**

O'rganilgan usulda 50-100 m ga suzish; krol usulida suzishni o'rgatish uchun maxsus mashqlar; ko'krakda va chalqancha yotib, krol usulida turli tezlikda masofalarga suzish; yengil narsalarni suv sathida ushlay bilish; 2 metr chuqurlikda, suv ostidagi narsalarni olish; qutidan va suvning o'zidan startlar; suvdagi o'yin: "Sho'ng'ib quvlashmachoq"; vaqtni hisobga olmagan holda 25 metrga suzish; suvda burilish va qutidan sakrashlarni bilish.

**Mavzularni o'rganish uchun - 60 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Jami - 68 soat**

### **6-SINF**

#### **JISMONIY TARBIYA**

**68 soat (haftasiga 2 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

Egallangan bilimlar asosida mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda va yakka tartibda ishlay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid adabiyotlardan foydalana olish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid bo'lgan ma'lumotlarni kuzatib, tushuna olish va jismoniy tarbiya va sportga oid internet tarmoqlaridan foydalana olish; darslik va boshqa manbalardan foydalana olish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda o'zi ustida ishlash, jismoniy sifatlarni bilish, har bir sport turidan uning texnikasi va taktikasini bilish, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish, sog'lom turmush tarziga amal qilishni o'rganish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarini tushunish va his etish, muomala madaniyatiga ega bo'lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlarini bilish, tengdoshlari bilan do'stona munosabatda bo'la olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid sanoq sonlarining mohiyatini anglash, vaqt me'yorlarini va maydon o'lchamlarini anglash.

**NAZARIY BILIM ASOSLARI**

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning gigienik qoidalari. Mashg'ulotda kiyiladigan sport kiyimlarining gigienik talablari. Jismoniy mashqlarning insonga bo'lgan ahamiyati. Jismoniy mashqlarni bajarish inson organizmining ish qobiliyati yaxshilanishiga ta'siri va foydasi. Gimnastika darslaridagi tartib-qoidalar. Jismoniy mashqlar bilan mashg'ul vaqtida xavfsizlik qoidalari, o'zini-o'zi mudofaa qilish qoidalari. Shikastlanganda o'ziga va boshqalarga birinchi tibbiy yordam ko'rsata olish.

Jismoniy mashqlar mashg'ulotining gigienik qoidalari. Uyga berilgan mashqlarni mustaqil ravishda bajarish qoidalari. Yugurish vaqtida to'g'ri nafas olish, o'quvchilarning harakat va ovqatlanish tartibi. Mashg'ulot paytida xavfsizlik qoidalari. Yugurib kelib uzunlikka sakrash mashqining fazalarini bajarish tartibini bilish. Ish qobiliyatini birday saqlab turishda jismoniy mashqlarning ahamiyati. Sport zalida, maydonchasida yengil atletika mashqlarini bajarishda xavfsizlik qoidalari.

Organizmga jismoniy mashqlarning qanday ta'sir etishi haqida bilish, umumrivojlantiruvchi mashqlar bo'yicha uyga berilgan vazifani bajarishni bilish, yengil atletika bo'yicha o'quv mezonlarini egallash.

O'quvchilarning jismoniy kamol topishida basketbol o'yinining ahamiyati. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning salomatligini aniqlashda o'zini-o'zi nazorat qilish asoslari. Basketbol sport turi bilan shug'ullanish inson organizmiga bo'lgan ta'siri. Basketbol o'yinining qoidalari. Voleybol o'yini qoidalari, hakamlik qilish, voleybol o'yinining organizmga ijobiy ta'siri.

Jismoniy tayyorgarlik – ishchanlik unumdorligi mezoni. Dars paytida belgilangan mashg'ulot – mashq o'tkazishning xavfsizligini ta'minlash qoidalari. O'quvchilarning harakat sifatlari haqida tushuncha berish (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik). Yurakning qisqarish tezligini mustaqil o'lchash. Musobaqa qoidalarini bilish. Futbol texnikasi va taktikasi.

Kurash qoidalari haqida ma'lumot. Kurashchilarning halqaro musobaqalarda Osiyo va Jahon birinchiliklaridagi muvaffaqiyatlari. Kurashchilar kun tartibi, ovqatlanishi va gigienasi.

Harakatli o‘yinlarni bolalarning turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy xislatlarini tarbiyalashda qo‘llash, ularda turli o‘yinlarga, jismoniy mashqlarga, kun tartibiga rioya qilishga qiziqishni uyg‘otish.

Harakatli o‘yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o‘tkazish uchun zarur bilim va malakalar hosil qilish.

Brass suzish usulini o‘rganish uchun bajariladigan maxsus mashqlar. Elementlari bo‘yicha brass usulida suzish. Ko‘krakda chalqancha yotib krol usulida suzish vaqtida burilishlar.

## **GIMNASTIKA (14 soat)**

### **1-mavzu: Umumrivojlantiruvchi mashqlar. (1 soat)**

Buyumlarsiz va buyumlar bilan quyi sinflarda o‘zlashtirilgan mashqlarni takrorlash hamda takomillashtirish. Juft-juft bo‘lib buyumlarsiz va buyumlar bilan mashqlar bajarish. Gimnastika devori yordamida mashqlar bajarish. Mustaqil ravishda 6-8 ta umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish. Jismoniy sifatlardan tezkorlik va kuchni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish, mashqdan so‘ng nafasni to‘g‘ri olish va chiqarish. Belda gardishni 1 daqiqa davomida aylantirish, arg‘amchida 30 soniya davomida sakrash.

### **2-3-mavzu: Tayanib sakrash. (2 soat)**

Qiz bolalar – dastlabki holat, uzunasiga o‘rnatilgan (balandligi 90 sm) gimnastika “kozyoli”ga yugurib kelib sakrab, ustiga tayanib tizzalarda turish va cho‘qqaygan holda qo‘llar bilan siltanib kerishib yumshoq sakrab tushish; eniga o‘rnatilgan gimnastika “kozyoli”dan oyoqlarni bukib sakrab o‘tish.

O‘g‘il bolalar – balandligi 110 sm uzunasiga qo‘yilgan gimnastika “kozyoli”dan oyoqlarni kerib va bukib sakrash; gimnastika “kozyoli”dan oyoqlarni kerib sakrab 90<sup>0</sup> ga burilib tushish.

### **4-5-mavzu: Tirmashib chiqish. (2 soat)**

1. Gimnastika narvoniga navbatma-navbat har xil usullar bilan tirmashib chiqish; gimnastika narvoniga chiqishda bir qo‘lda buyumlar (to‘p, tayoqcha) bilan tirmashib chiqish va tushish mashqlari; gimnastika narvonida yonbosh va orqa bilan bilan aralash ushlar usuli bilan osilib turish.

2. O‘g‘il bolalar – 3 m, qiz bolalar – 2 m arqonga uch harakat usulda tirmashib chiqish va tushish.

### **Nazorat ishi. (1 soat)**

#### **(1-5-mavzular asosida)**

### **6-7-mavzu: Osilish va tayanishlar. (2 soat)**

Osilishlar: gimnastika narvonida oyoqlar bilan osilib turishdan, oyoqlar bilan depsinib, kerishishdan osilishga o‘tish; qo‘shpoya poyalaridan oyoqlarni kerib oshirgan holda qo‘llarga tayanib tik turish; o‘g‘il bolalar – baland turnikka osilish, bir oyoq bilan siltanib va ikkinchisi bilan depsinib aylanib ko‘tarilish, qiz bolalar – past turnikka osilish, cho‘qqayib osilish.

Tayanishlar: polda, gimnastika o‘rindig‘iga qo‘llar bilan tayangan holda bukish va yozish.

### **8-mavzu: Akrobatika. (1 soat)**

Cho‘qqayib tayanib o‘tirgan holda, oyoqlarda deysinib oldinga umbaloq oshish; 30-40 sm balandlikdagi to‘siq ustidan umbaloq oshib o‘tish; orqaga umbaloq oshib, yarim shpagatga tushish.

**9-10-mavzu: Muvozanat saqlash mashqlari. (2 soat)**

Yakka cho‘p ustida oyoq uchlarida yurish va yugurishlar, “polka” qadamlar bilan oldinga siljishlar; gimnastika ko‘prikchasida turib, qo‘llar yakkacho‘p ustida, sakrab, yakkacho‘p ustida tayanib cho‘qqayishga chiqib olish (o‘qituvchi yordamida); yakkacho‘p ustida qo‘llarni har xil holatda tutib, “qaldirg‘och” hosil qilish;

70-80 sm balandlikdagi yakkacho‘p ustida o‘ng yoki chap oyoqda muvozanat saqlash; yakkacho‘p ustida 30-35° burchak yo‘nalishda yugurib kelib, sakrab tayanib cho‘qqayishga chiqish, turib oldinga “polka” qadamlar bilan siljish, chap oyoqda “qaldirg‘och” hosil qilish, o‘ng oyoq bilan oldinga siltanib, chapga burilish va oyoqlarni juftlab, yuqoriga sakrab, kerishib tushish mashqlari; yakkacho‘pdan yumshoq sakrab tushish va muvozanat saqlab qolish.

**11-12-mavzu: Estafetali quvnoq o‘yinlar. (2 soat)**

O‘rgatilgan akrobatika mashqlari, sakrash, yurish, to‘siqlardan o‘tish, arg‘amchi, gardishlarda, gimnastik o‘rindiqlari, to‘plar bilan iborat estafetali quvnoq o‘yinlar o‘ynash.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**(6-12-mavzular asosida)**

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** gimnastikaga oid bo‘lgan mashqlarini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** gimnastika mashqlarini bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantiradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** gimnastika mashqlarini bajarishda me‘yorlarini bajarishda qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralari biladi va ularga amal qiladi.

**YENGIL ATLETIKA (16 soat)**

**13-mavzu: Yurish. (1 soat)**

O‘qituvchi ko‘rsatmasiga asosan yo‘nalishni o‘zgartirib yurish; to‘siqlar ustidan oshib yurish; sportcha yurishning harakat elementlarini o‘rgatish.

**14-16-mavzu: Yugurish. (3 soat)**

Past startdan maksimal tezlikdan 30, 60 m masofalarga yugurish; 30-60 m masofalarga estafetali yugurish; balandligi 30-40 sm bo‘lgan to‘siqlardan oshib yugurish; bir me‘yorda 6 daqiqa davomida yengil yugurish; 4x10 mokisimon yugurish; yuqori startdan 800-1000 m ga yugurish; yuqori startdan tepalikka va tepalikdan pastga yugurib tushish.

**17-18-mavzu: Kross tayyorgarlik. (2 soat)**

Joydagi tabiiy to'siqlarni hatlab, sakrab, bosib qadamlab oshib o'tish; to'siq ustidan sakrab tushish; 1500 m masofaga kross yugurish.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**(13-18-mavzular asosida)**

**19-22-mavzu: Sakrash. (6 soat)**

Bir va ikki oyoqlab chapga, o'nga, orqaga burilib sakrash; yugurib kelib uzunlikka "oyoq bukish usuli"da sakrash; yugurib kelib balandlikka "hatlab o'tish usuli"da sakrash.

**23-26-mavzu: Uloqtirish. (4 soat)**

Tennis koptogini turgan joydan uloqtirish; tennis koptogini yugurib kelib bosh ortidan yelkadan 4-6 qadam tashlab uloqtirish; tennis koptogini mo'ljalga uloqtirish; to'ldirma to'p (2 kg) ikki qo'llab yon tomon bilan turib irg'itish.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**(19-26-mavzular asosida)**

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** sakrashning "oyoqni bukib", "xatlab sakrash" usullari haqida biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** sakrashning "oyoqni bukib", "xatlab sakrash" usullarini bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** sakrash usullarini bajarishda me'yorlarni biladi va ularga amal qiladi.

## **SPORT O'YINLARI** **(basketbol, voleybol, gandbol)** **(16 soat)**

**27-31-mavzu: Basketbol. (5 soat)**

To'pni yerga urib yo'nalish va tezlikni o'zgartirib yugurish; to'pni bir qo'l bilan yelkadan, joyida turib qadam tashlab va joyni o'zgartirib uloqtirish; to'pni o'rganilgan usul bilan harakatda halqaga tashlash; to'pni shitga tekkizib halqaga tashlash (o'ng va chap tomonlardan); o'rganilgan basketbol elementlarini qo'llab, ikki tomonlama mini-basketbol o'ynash; to'p bilan harakatlangan holda tezlikni oshirib (10 m masofaga ) yugurish.

**32-36-mavzu: Voleybol. (5 soat)**

Voleybol o'yinida turish holatini va joylarni o'zgartirish qoidalarini o'rgatish; katta qadamlab chapga, o'ngga, orqaga, oldinga tezlik bilan yurish qoidalarini o'rgatish; to'pni yuqoridan uzatish malakasini mustahkamlash; pastdan kelgan to'pni ikki qo'lda qaytarishni o'rgatish; voleybol setkasi ustidan, 4-6 m masofada turib, pastdan to'g'riga to'pni bir qo'lda ushlab, ikkinchi qo'l bilan urib o'tkazishni o'rgatish; ikki tomonlama o'yin vaqtida to'pni yuqoridan, pastdan qabul qilish va qaytarish qoidalari.

### **37-40-mavzu: Gandbol. (4 soat)**

Himoyada yakkama-yakka harakat qilish; to'pni darvozaga pastdan, yuqoridan uloqtirishda to'siq hosil qilish; kuchni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(27-40-mavzular asosida)*

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** sport o'yinlarining texnika va taktika qoidalarini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** sport o'yinlarida hujum va himoya taktikalariga oid mashqlarni bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** hujum va himoya taktikalarini bajarish jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.

## **FUTBOL (12 soat)**

### **41-51-mavzu: Futbol o'yinida texnik va taktik harakatlarni o'rgatish. (12 soat)**

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish (futbol) jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish asoslarini bilish; to'pni olib yurish va to'pni oyoq yuzasining ichki tomoni bilan tepish; to'pni tepish texnikasini bajarish; darvozabon o'yini; o'yin jarayonida "bo'sh o'rinni tanlash" taktik harakati.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(41-51-mavzular asosida)*

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** to'pga beriladigan zarbalarni bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** darvoza burchaklari, darvozaga beriladigan zarbalarni bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** to'pni oyoq yuzi va tashqi yoni bilan olib yurishni bajaradi.

## **KURASH (8 soat)**

### **52-58-mavzu: Kurash elementlarini bajarish. (8 soat)**

Kurashda qulay holatni egallash, kurash bo'lgan harakatli o'yinlar; kurash usullari: "orqadan chalish", "oldindan chalish", "oyoqlarni yonidan qoqib yiqitish".

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(52-58-mavzular asosida)*

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** kurash turlari haqida biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** kurash usullarini bajarishdan avval tana a'zolarining chigalyozdi mashqlarini bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** kurash mashqlarini bajarishda xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.

### **SHAXMAT (2 soat)**

#### **59-60-mavzu: Shaxmat o'yini. (2 soat)**

Sipohlar (farzin, rux, ikki fil bilan) mot qilish. Amaliy o'yin.

### **SUZISH**

Brass usulini o'rganish uchun maxsus suzish mashqlari; o'rganilgan usulda 50-100 metrga suzish; krol usulida suzishni o'rgatish uchun maxsus mashqlar; ko'krakda va chalqancha yotib krol usulida turli tezlikda masofalarga suzish; yengil narsalarni suv sathida ushlay bilish; 2 m chuqurlikda, suv ostidagi narsalarni olish; qutidan va suvning o'zidan startlar; suvdagi o'yinlar: "Qutqaruvchilar", "Sho'ng'ib quvlashmachoq".

Vaqtini hisobga olmagan holda 25-50 metrga suzish; suvda va sport inshootlarida munosabat qoidalari; vaqtini hisobga olmagan holda 25 m ga suzish; suvda burilish va qutidan sakrashlarni bilish.

**Mavzularni o'rganish uchun - 60 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Jami - 68 soat**

### **7-SINF**

### **JISMONIY TARBIYA**

**68 soat (haftasiga 2 soat)**

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

Egallangan bilimlar asosida mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda va yakka tartibda ishlay olish.

#### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid adabiyotlardan foydalana olish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid bo'lgan ma'lumotlarni kuzatib, tushuna olish va jismoniy tarbiya va sportga oid internet tarmoqlarini bilish va ulardan foydalana olish;

darslik va boshqa manbalardan foydalana olish.

#### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda o‘zi ustida ishlash, jismoniy sifatlarni bilish, har bir sport turidan uning texnikasi va taktikasini amalda bajara olish, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish, sog‘lom turmush tarziga rioya etish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarini tushunish va his etish va uning mazmuniga shaxsiy fikrini bildira olish, muomala madaniyatiga ega bo‘lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan milliy urf-odatlarini bilish, tengdoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘la olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid sanoq sonlarining mohiyatini anglash, vaqt me‘yorlarini va maydon o‘lchamlarini anglash.

## NAZARIY BILIM ASOSLARI

Gimnastika turlari bilan shug‘ullanishning organizmga ta’siri. O‘z-o‘zini nazorat qilishni bilish. Jismoniy mashqlar vaqtida ehtiyotkorlik choralari, o‘z-o‘zini muhofaza qilish. Sport bilan shug‘ullanish vaqtida tibbiy nazorat.

Turli xil jismoniy yuklamaning organizmga ta’siri, o‘zini-o‘zi nazorat etishning asosiy usullari, jarohatlanganda birinchi yordam ko‘rsatish, mashqlarni bajarish chog‘ida o‘zini-o‘zi muhofaza qilish. Egiluvchanlik va mushak kuchining rivojlanish darajasini aniqlash.

Maktabda voleybol o‘yini va uning ahamiyati to‘g‘risida tushuncha berish. Voleybol bilan shug‘ullanishdan oldin va o‘yin vaqtida tibbiy nazoratdan o‘tish va tekshirtirib turishni o‘rgatish. O‘rta yoshdagi maktab o‘quvchilari bilan olib boriladigan jismoniy mashg‘ulotlarning xususiyatlari. Maktabda qo‘l to‘pi bo‘yicha musobaqalarni tashkil qilish. Qo‘l to‘pi o‘yining qoidalari. Sport bilan shug‘ullanishda shaxsiy namuna bo‘lish. Futbol o‘yini qoidalari haqida tushuncha. Harakatli o‘yinlarning tashkiliy tuzilishi, ularning mazmuni murakkabligi, sport turlari elementlari bilan uzluksiz bog‘liqligi hamda sport o‘yinlariga tayyorlanadigan xususiyatlari (masalan, "To‘p uchun kurash", "To‘p kapitanga" va h.k.).

## GIMNASTIKA (12 soat)

### 1-mavzu: Umumrivojlantiruvchi mashqlar. (1 soat)

Buyumlarsiz mashqlar bajarish, egilishlar, burilishlar, o‘tirib-turishlar, sakrashlar, aylanma harakatlar, raqs qadamlari; buyumlar (arg‘amchi, to‘plar, gimnastik tayoqcha, gantellar, gardishlar va o‘rindiqlar) bilan mashqlar; gimnastik devorda mashqlar bajarish. Juft bo‘lib mashqlar bajarish.

### 2-3-mavzu: Tayanib sakrash. (2 soat)

Gimnastik narvonga osilib siljishlar, gorizontol tortilgan arqonga osilib siljishlar, past turnikda osilib turgan holatda, bir oyoqda deysinib, ikkinchi oyoqda siltanib, to‘ntarilib tayanchga ko‘tarilish, turnikda tayangan holatda qo‘llarda siljishlar, qo‘llarda sakrab oldinga, orqaga sakrab tushish. Qo‘shpoyada tayangan



holatda qo‘llarni bukish va yozish, tebranish va oldinga tebranish bilan oyoqlarni oldinga kerib o‘tirish.

Gimnastik “kozyol” ustidan oyoqlarni kerib tayanib sakrash mashqi:

1. O‘g‘il bolalar – gimnastik “kon” (yonlamasiga o‘rnatilgan, balandligi 115 sm) ustidan oyoqlarni kerib sakrash;

2. Qiz bolalar – gimnastik “kozyol” (eniga o‘rnatilgan, balandligi 100 sm) ustiga oyoqlarni bukib sakrash.

**4-5-mavzu: Tirmashib chiqish. (2 soat)**

O‘g‘il bolalar – 4 m, qiz bolalar – 3 m arqonga uch harakat usulda tirmashib chiqish va tushish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(1-5-mavzular asosida)*

**6-mavzu: Osilish va tayanishlar. (1 soat)**

Osilishlar: gimnastika narvonida oyoqlar bilan osilib turishdan, oyoqlar bilan depsinib, kerishishdan osilishga o‘tish; qo‘shpoya poyalaridan oyoqlarni kerib oshirgan holda qo‘llarga tayanib tik turish; o‘g‘il bolalar – ikki oyoq bilan depsinib aylanib chiqish va tayanish, osilgan holatda oldiga-orqaga tebranish, orqaga tebranganda sakrab tushish. Qiz bolalar – bir oyoq bilan siltanib, ikkinchisi bilan depsinib pastki yog‘ochga to‘ntarilib chiqish.

Tayanishlar: Polda, gimnastika o‘rindig‘iga qo‘llar bilan tayangan holda bukish va yozish.

**7-8-mavzu: Akrobatika. (2 soat)**

Kuraklarda tik turish, oldinga umbaloq oshish, bo‘sh va qo‘llarda tik turish (sherigi yordamida). "Ko‘prik" holatidan burilib cho‘qqayib, tayanish holatiga otish. Mashqlar majmuasi. O‘g‘il bolalar – D.H-A.T. sakrab oldinga ikki marta umbaloq oshish – bosh va qo‘llarda tik turish – cho‘qqayib tayanish holatiga qaytish va orqaga umbaloq oshish, yuqoriga sakrab qo‘llarni yonga kerish. Qiz bolalar: D.H. cho‘qqayib tayanib o‘tirish. Ikki marta oldinga umbaloq oshib, orqaga dumalash bilan kuraklarda tik turish; oldinga dumalash bilan chalqancha yotish va shu holatda oyoq va qo‘llarni bukib, "ko‘prik" hosil qilish, o‘ngga yoki chapga burilib, cho‘qqayib tayanish holatiga qaytish va yuqoriga sakrab A.T qabul qilish.

**9-10-mavzu: Muvozanatni saqlash mashqlari. (2 soat)**

Muvozanat saqlash mashqlari (yakka cho‘pda yoki gimnastik o‘rindiq ustida). Yakkacho‘pda tayanib turgan holatdan uning ustiga tayanib, oyoqlarni kerib, minib o‘tirishga o‘tish. Yakkacho‘p ustida oyoq uchlarida yurish. O‘rindiqa va yakka cho‘p ustida ohista yugurish. Yakkacho‘p ustida sakrab qadam bilan siljishlar (180° ga burilish, tashlanib yurish, bir va ikki oyoqda sakrab siljishlar, oyoq joylarini almashtirish va sakrab siljishlar). Yakkacho‘p ustidan yuqoriga sakrab kerishib, oyoqlarni kerib sakrab tushish. Xuddi shuni 90° ga burilib bajarish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(6-10-mavzular asosida)*

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** koordinatsiyaga erishish uchun bajariladigan gimnastika mashqlarini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** gimnastika mashqlarini bajarish orqali koordinatsiya sifatini rivojlantiradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** gimnastika mashqlarini bajarishda me'yorlarini bajarishda qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralari biladi va ularga amal qiladi.

### **YeNGIL ATLETIKA (16 soat)**

#### **11-mavzu: Yurish. (1 soat)**

Har xil tezlikda (20-30 daqiqa) davomida yurish. Har xil qadam kengligi va tezligi bo'yicha o'zgartirib yurish.

#### **12-14-mavzu: Yugurish. (3 soat)**

Tepalikka pastlikka yugurish. Past-baland joylarda kross yugurish (O'g'il bolalar 800 m, qizlar 500 m). Bir me'yorda past tezlikda 8 daqiqa davomida yugurish. Past startdan 60 masofaga yugurish. To'siqlar osha yugurish. Estafeta 4x60 metr yugurish mashqlari. 4x10 metrga mokisimon yugurish.

#### **15-16-mavzu: Kross tayyorgarlik. (2 soat)**

Guruh bo'lib yugurish. Kross masofasidagi qattiq, yumshoq, qum va maysali joylardan yugurish. 2000 metrli masofa bo'ylab kross yugurish.

#### **Nazorat ishi. (1 soat)**

#### **(12-17-mavzular asosida)**

#### **17-18-mavzu: Sakrash. (2 soat)**

Balandligi 60-80 sm to'siq ustidan sakrash. Turgan joydan oyoqdan oyoqqa sakrash. Turgan joydan uzunlikka sakrash.

#### **19-20-mavzu: "Oyoq bukish usuli"da sakrash. (2 soat)**

Yugurib kelib uzunlikka "Oyoq bukish" usulida sakrash.

#### **21-22-mavzu: "Xatlab o'tish usuli"da sakrash. (2 soat)**

Yugurib kelib balandlikka "Xatlab o'tish" usulida sakrash.

#### **23-24-mavzu: Uloqtirish. (2 soat)**

Tennis koptogini turgan joydan uloqtirish. Tennis koptogini 5-6 qadamdan yugurib kelib uloqtirish. Tennis koptogini mo'ljalga, nishonga uloqtirish. Turgan joydan to'ldirma to'p (1 kg) ikki qo'llab uloqtirish.

#### **Nazorat ishi. (1 soat)**

#### **(18-24-mavzular asosida)**

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** yengil atletika insonning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati, o'yinlar jarayonida ta'lim-tarbiya, axloq-odob, do'stlarga qanday

munosabatda bo'lish, harakat paytida o'zining qobiliyatini o'zi aniqlay bilish, uzoq-yaqinni, tevarak-atrofdan qilinayotgan harakatlarni ko'ra biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** yengil atletika mashqlarini bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantiradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** yengil atletikaning turlariga xos bo'lgan harakat belgilari – sakrash, uloqtirish, tortilish, yugurish me'yorlarini bajarish qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralarini biladi va ularga amal qiladi.

## **SPORT O'YINLARI** **(basketbol, voleybol, gandbol)** **(16 soat)**

### **25-29-mavzu: Basketbol. (5 soat)**

To'p bilan orqaga, oldinga aylanishlarni bilib bajarish, to'pni yerga (polga) urib kelish va to'xtash, qarshi komanda o'yinchisidan to'pni urib tushirish va tortib olish, to'pni harakatda o'ng va chap qo'l bilan yelkadan boshqa qo'l yordamida, o'rganilgan usul bilan tushirish, turli basketbol elementlarini qo'llab ikki tomonlama o'ynash.

Sakrab to'xtash, turgan joyda orqa oyoqqa aylanib burilish, bir-biriga qarama-qarshi turganda to'pni ikki qo'llab ko'krak oldidan qadam qo'yib oshirish va ilib olish. To'pni ikki qo'llab harakatda oshirish, ilib olish va to'xtash.

Shitdan qaytgan to'pni ilib olish, urib yurish va halqaga qayta tashlash. Basketbol elementlari bilan estfeta o'yinlarini o'tkazish.

Qoidasi soddalashtirilgan o'quv o'yinlarini o'ynash.

### **30-34-mavzu: Voleybol. (5 soat)**

Voleybol o'ynash, to'pni qabul qilish va qaytarish, qoidalarni bilish, uy vazifalarini bajarish, ikki tomonlama setkada o'ynashni bilish. 3 urinish orqali setkada 2 guruh o'rtasida o'ynash. Voleybol o'ynash malakalarini o'stirish uchun to'pni yuqoridan, pastdan, yon tomondan ikki qo'l bilan qabul qilib olish va qaytarish, turgan joylarini tezda o'zgartira olishni o'rgatish. Mushtumda to'pni qaytarish. Pastdan to'g'riga qarab to'pni uloqtirish. Setkada ikki guruh o'rtasida 3 urinish bilan qoidasiga rioya qilgan holda bir-birlariga to'pni uzatib o'ynashni o'rgatish.

### **35-38-mavzu: Gandbol. (4 soat)**

To'pni yerga urib mokisimon yugurish. O'yinchilarning maydon bo'ylab joylashish tartibini (markaziy o'yinchi, yarim hujumchi, chekkadagi hujumchi, shuningdek, himoyachilar) bilish. To'pni har xil harakatlar bilan uzatish.

*Nazorat ishi. (2 soat)*

*(25-38-mavzular asosida)*

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** sport o'yinlarining texnika va taktika qoidalarini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** sport o‘yinlarida hujum va himoya taktikalariga oid mashqlarni bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** hujum va himoya taktikalarini bajarish jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.

### **FUTBOL (12 soat)**

**39-49-mavzu: Futbol o‘yini olib yurish va zarba berish texnikasi. (11 soat)**

To‘pni oyoq yuzasining ichki va tashqi qismida olib yurish; uchib kelayotgan to‘pni urib qaytarishni va yon chiziqdan to‘pni o‘yinga kiritish mashqlarini bajarish; turgan joyda to‘pni oyoq yuzi, uchi, ichki va tashqi yoni bilan oshirish va to‘xtatish; to‘pni yugurib, o‘ng va chap oyoqlar bilan surib tepib olib yurish; to‘pga zarb bilan tepish; to‘pni o‘yinga kiritish; jarima to‘pini tepish; o‘quv o‘yinlari.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(39-49-mavzular asosida)*

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** futbolning mamlakatdagi rivoji hamda o‘zbek futbolining Jahonda erishgan yaxshi natijalari haqida biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** to‘pni olib qo‘yish texnikasini mustaqil bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** futbol o‘yining tavsifiga xos bo‘lgan uloqtirish, tortilish, yugurish me‘yorlarini bajaradi.

### **KURASH (10 soat)**

**50-58-mavzu: Kurash usullarini o‘rgatish. (9 soat)**

Kurashda o‘z-o‘zini himoya qilish usullari; usullar: “oyoq oldidan oyoq bilan qoqish”, “ichkaridan boldir bilan boldirni ilib orqaga tashlash”, “oyoq yordamida ichidan ko‘tarib tashlash”.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(50-58-mavzular asosida)*

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** kurash turlari haqida biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** kurash usullarini bajarishdan avval tana a‘zolarining chigalyozdi mashqlarini bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:**  
kurash mashqlarini bajarishda xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.

### **SHAXMAT (2 soat)**

#### **59-60-mavzu: Shaxmat o'yini. (2 soat)**

Partiyani boshlash qoidalari, o'quv partiyalar. Shaxmatda raqib bilan o'ynash ko'nikmasini shakllantirish.

### **SUZISH**

Suzishning brass usulini o'rgatuvchi maxsus mashqlar; elementlari bo'yicha brass usulida suzish; brass usulida suzish vaqtida burilishlar; suzishning bir turini tanlash; tanlangan usulda 300 m masofaga suzish; dam olish oralig'i bir daqiqadan 30 soniyagacha bo'lib, 25-50-75 va 100 m li masofani o'zgaruvchan har xil tezliklarda suzish; suvdagi o'yinlar "Chexarda", "G'ovvoslar".

**Mavzularni o'rganish uchun - 60 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Jami - 68 soat**

### **8-SINF**

#### **JISMONIY TARBIYA**

**68 soat (haftasiga 2 soat)**

#### **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

##### **Kommunikativ kompetensiya:**

Egallangan bilimlar asosida mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda va yakka tartibda ishlay olish.

##### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid adabiyotlardan foydalana olish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid bo'lgan ma'lumotlarni kuzatib, tushuna olish va jismoniy tarbiya va sportga oid internet tarmoqlaridan foydalana olish;  
darslik va boshqa manbalardan foydalana olish.

##### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda o'zi ustida ishlash, jismoniy sifatlarni bilish, har bir sport turidan uning texnikasi va taktikasini qo'llay olish, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish.

##### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarini tushunish va his etish, muomala madaniyatiga ega bo'lish.

##### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlarini bilish, tengdoshlari bilan do'stona munosabatda bo'la olish.

## **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid sanoq sonlarining mohiyatini anglash, vaqt me'yorlarini va maydon o'lchamlarini tushunish va amalda qo'llay olish.

### **NAZARIY BILIM ASOSLARI**

Shaxsni har tomonlama kamol toptirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati. Sog'lom turmush tarzining ahamiyati. Davolash va tuzatish gimnastikasining ta'siri. Shikastlanganda birinchi tibbiy yordam. Ertalabki gimnastika mashqlarining majmuasini mustaqil tuzish. Sport va badiiy gimnastika, akrobatika turlari haqida ma'lumot.

Shaxsni har tomonlama kamol toptirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati. Tezkorlik, kuchni o'stiruvchi mashqlarni mustaqil bajarish, mashqlarni bajarishda o'z o'rtoqlari xavfsizligini ta'minlash qoidalari. Tamaki va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishning zarari. Shikastlanish vaqtida birinchi yordam ko'rsatish.

Basketbol o'yini qoidasi. Basketbol o'yini qoida buzilishlarida qo'llaniladigan jazolar (ishoralar). Basketbol o'yinining taktik tushunchasi. O'quvchilarni bir-birlariga qarama-qarshi kolonnalarda ikki qo'llab to'pni yuqoridan uzatish va bir necha marta o'z ustidan uzatishga o'rgatish. 3 marta tegish voleybol o'ynash ko'nikmasiga, 2 guruh o'rtasida o'ynashni mustahqamlash. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchining kun tartibi.

Futbolda irodaviy va psixologik tayyorgarlikning ahamiyati. Tamaki va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishning zarari. Futbol o'yinining taktikasi. O'yin qoidalari: to'p o'yinda va o'yindan tashqari holatda, "o'yindan tashqari" holat. Kurashning jahon maydonidagi shiddatli rivojlanishi. Kurash musobaqalarining mohiyati va unga qatnashish uchun kurashchilarga qo'yiladigan talablar. Hakam nazorati va o'z-o'zini nazorat qilish. Shikastlanishdan saqlanish. Kurash texnikasi va taktikasi.

Elementlar bo'yicha va suzishning o'rganilgan to'liq usullari bilan suzish. Ma'lum masofaga turli tezlikda (eng kam qulochkashlash orqali) suzish.

### **GIMNASTIKA (12 soat)**

#### **1-2-mavzu: Tayanib sakrash. (2 soat)**

Oyoqlarni kerib sakrashni takomillashtirish; yonlamasi qo'yilgan gimnastik "kozyol" ustidan 5-7 qadam yugurish bilan oyoqlarni bukib sakrab o'tish; gimnastika "kozyoli" ustidan oyoqlarni kerib sakrab, 180<sup>0</sup> burilib tushish; yonlamasi qo'yilgan gimnastik "kozyol" ustidan burchak hosil qilib sakrab o'tish; otning chap qanotida o'ng tomon bilan turib, o'ng qo'l gimnastika "kozyoli" ustida, bir oyoqda deysinib, ikkinchisida siltanib, qo'llar yordamida gavdani otning boshqa tomoniga olib o'tish; shuning o'zini 2-3 qadamdan yugurib kelib bajarish; yugurib kelib gimnastik "kozyol" ustidan burchak hosil qilib sakrab o'tish.

Eniga o'rnatilgan gimnastik "kozyol" ustidan tayanib sakrash (o'g'il bolalar 110 sm balandlikdagi) oyoqlarni kerib va bukib sakrash; yonlamasiga o'rnatilgan gimnastika "kozyoli" ustidan qo'llar bilan o'ng-chap qismiga tayanib, oyoqlarni

kerib, egilib tayanishga chiqish va yuqoriga sakrab kerishib turish; shu usulni sakrab tushayotganda 90, 180° burilish bilan bajarish.

Eniga oʻrnatilgan dastakli gimnastik “kozyol” ustidan (qiz bolalar 110 sm balandlikdagi) oyoqlarni kerib sakrash.

### **3-4-mavzu: Tirmashib chiqish. (2 soat)**

4-5 metrli arqonga, qoʻllar yordamida (vaqt hisobiga) tirmashib chiqish; shuni 90° burchak hosil qilib bajarish; toʻxtab-toʻxtab tirmashib chiqish (maʼlum balandlikda toʻxtash uchun belgilar qoʻyiladi).

### **5-6-mavzu: Osilish va tayanishlar. (2 soat)**

Osilishlar: past turnikda osilib turish holatidan kuch bilan koʻtarilib, tayanchga koʻtarilish; turnikda oʻng oyoqda minib, tayanib oʻtirishdan orqaga tushish bilan oʻng oyoq tizza ostida osilishga oʻtish; gimnastika narvonida osilgan holatda toʻgʻri oyoqlarni koʻtarib tushirish (burchak hosil qilish); gimnastik narvonda osilish holatidan 90° burchakka oyoqlarni koʻtarib tushirish; qoʻshpoyaning yuqori poyasida osilgan holatda bukilib, yozilish bilan tebranishlar; qoʻshpoyaning yuqori poyasiga osilib, pastki poyasida choʻqqaygan holatdan, bir oyoq bilan depsinib, ikkinchi oyoqda siltanish bilan kerishib osilish; pastki poyada tayanib minishdan, orqadagi oyoqni oldinga oshirish bilan 90°ga burilib sakrab tushish.

Tayanishlar: qoʻshpoyalarda qoʻllarda tayanishdan tebranib, oldinga siltanish bilan tayanchga koʻtarilish; qoʻshpoyada tirsakka tayanib turishdan tebranib, orqaga siltanish bilan tayanchga koʻtarilish; qoʻshpoyada tayanib tebranishda, oldindan (orqadan) yon tomonlarga 90° burilib sakrab tushishlar; polda, gimnastik oʻrindiqa qoʻllarga tayanib, bukish va yozish.

### ***Nazorat ishi. (1 soat)***

#### ***(1-6-mavzular asosida)***

### **7-8-mavzu: Akrobatika. (2 soat)**

Oldinga umbaloq oshish; bir necha ketma-ket orqaga umbaloq oshish; oʻqituvchining yordami bilan choʻqqayib, tayanish holatidan qoʻllarda tik turish holatiga otish, orqaga umbaloq oshish; uzoqqa umbaloq oshish: oldinga umbaloq oshish, toʻldirma toʻp ustidan oldinga umbaloq oshish. 40-60 sm balandlikdagi toʻsiq ustidan yugurib kelib umbaloq oshish; bosh va qoʻllarda tayanib tik turish (oʻgʻil bolalar uchun); choʻqqayib tayanishdan ikki oyoq bilan depsinib, qoʻllarga tik turish (yordam bilan).

### **9-10-mavzu: Muvozanatni saqlash mashqlari. (2 soat)**

Yakka choʻpga tayanib turgan holatdan sakrab tayanishga va burilish bilan sonlarga oʻtirishga oʻtish. Shu holatdan bir oyoq tizzasida tayanib oʻrnidan turish, qoʻllar yonga ochiladi va oldinga "polka", "galop" qadamlari bilan siljish, 2-3 qadam yugurib borib oyoqda siltanib, boshqasida depsinib, kerishib sakrab tushish (bu mashqlarni gimnastik oʻrindiqa ham bajarish mumkin). Balandligi 90-100 sm yakkachoʻpda bir oyoq uchidan ikkinchi oyoq uchiga oʻtib yurish. Qoʻllarni har xil xolatlarda ushlab, yarim shpagatda turish. Bir oyoqda muvozanat saqlab, ikkinchi oyoqni bukkan holda oldinga uzatib, qoʻllarni turli vaziyatlarda tutish. Yakka choʻpda “qaldirgʻoch” boʻlib turish, 90° burilish va sakrab tushish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*  
*(7-10-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** egiluvchanlikka erishish uchun bajariladigan gimnastika mashqlarini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** gimnastika mashqlarini bajarish orqali egiluvchanlik sifatini rivojlantiradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** gimnastika mashqlarini bajarishda me'yorlarini bajarishda qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralari biladi va ularga amal qiladi.

### **YENGIL ATLETIKA (18 soat)**

**11-mavzu: Yurish. (1 soat)**

Sportcha yurish texnikasi; 100, 200 m masofani tezlik suratini oshirib yurib o'tish; guruhlar o'rtasida kim o'zarga yurish.

**12-14-mavzu: Yugurish. (3 soat)**

Past tezlikda bir me'yorda 6-8 daqiqa yugurish; 60 m tezlikka yugurish; 60 m masofa bo'ylab to'siqlardan oshib yugurish; 100 m masofaga yugurish malakasini oshirish.

**15-16-mavzu: Uzoq masofaga yugurish. (2 soat)**

4x60 m masofaga estafetali yugurish, 1000-2000 m masofaga yugurish;

**17-18-mavzu: Kross tayyorgarligi. (2 soat)**

Yo'nalishni o'zgartira borib past-baland yerlardan yugurish; 2500 m masofaga kross yugurish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(11-18-mavzular asosida)*

**19-22-mavzu: Sakrashlar. (4 soat)**

Turgan joydan tepaga baland sakrash mashqlari; to'ldirma to'p (1 kg) bilan yuqoriga sakrashlar; yugurib kelib uzunlikka "oyoq bukish usuli"da sakrash; yugurib kelib balandlikka "Hatlab o'tish usuli"da sakrash; yugurib kelib 3 hatlab sakrash.

**23-26-mavzu: Uloqtirishlar. (4 soat)**

To'ldirma to'p (3 kg) ikki qo'llab pastdan, bosh orqasidan, ko'krakdan uloqtirish; yugurib kelib tennis koptogini uloqtirish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(19-26-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** yengil atletika insonning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati, o'yinlar jarayonida ta'lim-tarbiya, axloq-odob, do'stlarga qanday



munosabatda bo'lish, harakat paytida o'zining qobiliyatini o'zi aniqlay bilish, uzoq-yaqinni, tevarak-atrofdan qilinayotgan harakatlarni ko'ra biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** yengil atletika mashqlarini bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantiradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** yengil atletikaning turlariga xos bo'lgan harakat belgilari – sakrash, uloqtirish, tortilish, yugurish me'yorlarini bajarish, qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralarini biladi va ularga amal qiladi.

## **SPORT O'YINLARI** **(basketbol, voleybol, gandbol)** **(14 soat)**

### **27-30-mavzu: Basketbol. (4 soat)**

Himoya va hujum taktikasining asoslarini bilish; to'pni olib olish; uloqtirish, o'rganilgan usullar yordamida joyni almashtirib, qarama-qarshi harakatlarda mashq qilish, to'pni polga urib yurish-yugurishda qarshi jamoa o'yinchisiga (1x1) nisbatan tezlikni va tomonlarni o'zgartirib harakat qilish; to'pni yaqin masofadan to'xtatib, sakrab halqaga tashlash; o'quv-mashqi darsida o'yinchini "ushlab", himoya jamoasi o'yinchilari to'pni egallab olgunga qadar turishni bilish, o'rganilgan basketbol elementlari yordamida ikki tomonlama o'quv-mashq o'yini.

To'siqlar orasidan o'ng va chap qo'llarda to'pni olib yurish; to'pni yerga urib sakratgan holda kim tez yugurish (yugurish yo'lakchasi bo'ylab).

### **31-34-mavzu: Voleybol. (4 soat)**

Voleybol maydonida o'yinchilarning harakatlari: oldinga, orqaga uzatish. To'pni ikki qo'llab ko'p marta bosh ustida yuqoriga uzatib o'ynash. To'pni pastdan to'g'ri o'yinga kiritish va kiritilgan to'pni qabul qilib, ikkinchi, uchinchi zonaga to'g'ri uzatib berish. To'pni yon tomondan o'yinga kiritish. To'pni ikki qo'llab pastdan qabul qilish. To'rdan qaytgan to'pni qabul qilish usulini o'rgatish. To'pni pastdan bir va ikki qo'llab uzatish. Hujum zarbi berish va to'siq qo'yish bilan tanishish. Ikki tomonlama o'quv-mashg'ulot o'yini. "Taym-brek" usulida hisobni sanashni o'rgatish.

Har bir o'quvchi to'pni o'yinga kiritish, qabul qilish, uzatish texnikalarini mustaqil bajara olish.

Musobaqa qoidasini bilish; oldingi o'rgatilgan mashqlarni mustahqamlash va o'yin davomida qo'llashni bilish.

### **35-38-mavzu: Gandbol. (4 soat)**

Mokisimon yugurishda to'pni yerga urib yurish va yugurishlar; maydon bo'ylab o'yinchilarning joylashishlar; ikki tomonlama o'yinda to'pni otish, uzatish, ilib-olishlarni o'rgatish; ikki tomonlama o'yinda darvozaga yonboshlab otishni sinab ko'rish.

Gandbol o'yinchisining harakatlari: yurish, yo'nalishni o'zgartirib yugurish, maydonda joyni tanlash, sakrash. To'pni ikki qo'llab ko'krakda ilish, har xil balandlikda uchib o'tayotgan to'plarni ilish. To'pni yelka balandligida

tirsakni bukib uzatish. To'pni yondan, pastdan uzatish. To'pni yerga urib olib yurish, juft bo'lib harakat jarayonida to'pni uzatib olib yurish. To'pni tayanch holatda darvozaga tashlashni o'rgatish. Zona himoyalaridan 6x0,5x1 sistemalarini o'rgatish. O'quv mashg'ulot o'yini.

To'pni harakat jarayonida uzatish, to'pni yo'nalishni o'zgartirib olib yurish, himoyachi qarshiligida to'pni tayangan holda darvozaga tashlash ko'nikmalarini hosil qilish.

*Nazorat ishi. (2 soat)*

*(27-38-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** sport o'yinlarining texnika va taktika qoidalarini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** sport o'yinlarida hujum va himoya taktikalariga oid mashqlarni bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** hujum va himoya taktikalarini bajarish jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.

## **FUTBOL (12 soat)**

**39-49-mavzu: Futbol texnikasi. (11 soat)**

To'p bilan janglyor qilish; 11 metrlik jarima to'pidan (7 imkoniyatdan) darvozaga aniq tepish; 30 metrga to'pni olib yugurish (soniya).

Futbolchining maydon bo'ylab harakatlari. Yurish yo'nalishini o'zgartirib yurish va yugurish, maydonda joyni tanlash. Dumalab kelayotgan va tushib kelayotgan to'plarni oyoqning panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan to'xtatishni o'rgatish. To'pni oyoqni panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan tepib olib yurish. Dumalab kelayotgan to'pni oyoqning panja qismining ichki, tashqi va yuqori tomonlari bilan tepishini o'rgatish. Dumalab kelayotgan to'pni darvozabon tomonidan ilib olish. Har xil balandlikda uchib kelayotgan to'plarni musht bilan urib yuborish. To'pni ikki qo'llab bosh ustidan o'yinga kiritish. To'pni uzatish, chalg'itish usullarini o'rgatish. Guruhli taktik o'yin bilan tanishtirish. O'quv mashg'ulot o'yini.

Futbolchilar maydonda to'g'ri joy tanlash, harakat yo'nalishlarini o'zgartirib yugurishlarni bilish, har xil balandlikda uchib kelayotgan to'plarni oyoqning panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan to'xtatish, olib yurish va tepish harakat ko'nikmalarini hosil qilish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(39-49-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:**

mamlakatdagi rivoji hamda o‘zbek futbolining Jahonda erishgan yaxshi natijalari haqida biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:**

to‘pni olib qo‘yish texnikasi mustaqil bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** futbol o‘yinining tavsifiga xos bo‘lgan uloqtirish, tortilish, yugurish me‘yorlarini bajaradi.

### **KURASH (10 soat)**

**50-58-mavzu: Kurash texnikasi.**

Kurash musobaqalariga tayyorgarlik mashqlari; usullar: “oyoqlar yordamida yonboshdan ko‘tarib tashlash”, “yelkadan oshirib tashlash”, “qo‘llar yordamida qo‘ldan ushlab yelkadan tashlash”, “ikki oyoqning oldidan oyoq bilan ko‘tarib tashlash”.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(50-58-mavzular asosida)*

**O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo‘llay olish kompetensiyasi:** kurash turlari haqida biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** kurash usullarini bajarishdan avval tana a‘zolarining chigalyozdi mashqlarini bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** kurash mashqlarini bajarishda xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.

### **SHAXMAT (2 soat)**

**59-60-mavzu: Shaxmat o‘yini. (2 soat)**

Debyut qonunlari, Shoxning xavfsizligi, debyutdagi vazifalar.

### **SUZISH**

Vaqtning hisobga olmagan holda 50-100 m ga suzish; musobaqalarga hakamlik qilish bilimini kengaytirish.

**Mavzularni o‘rganish uchun - 60 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Jami - 68 soat**

### **9-SINF**

### **JISMONIY TARBIYA**

**68 soat (haftasiga 2 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

### **Kommunikativ kompetensiya:**

Egallangan bilimlar asosida mustaqil fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ishlay olish.

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid adabiyotlardan foydalana olish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid bo‘lgan ma‘lumotlarni kuzatib, tushuna olish va jismoniy tarbiya va sportga oid internet tarmoqlaridan foydalana olish; darslik va boshqa manbalardan foydalana olish.

### **O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda o‘zi ustida ishlash, jismoniy sifatlarni bilish, har bir sport turidan uning texnikasi va taktikasini erkin amalda qo‘llay olish, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarini tushunish va his etish, muomala madaniyatiga ega bo‘lish, fanga oid qonun va qarorlarning mohiyatini tushunish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan milliy urf-odatlarini bilish, tengdoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘la olish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid sanoq sonlarining mohiyatini anglash, vaqt me‘yorlarini va maydon o‘lchamlarini bilish va amalda qo‘llay olish.

## **NAZARIY BILIM ASOSLARI**

Inson mehnat faoliyatida gimnastikaning ahamiyati. Qizlar uchun gimnastika mashqlarining gigienik ahamiyati. Darsning qismlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni mustaqil ravishda o‘tkaza bilish. Gimnastika bo‘yicha o‘zbek sportchilarining yutug‘i. Xalqaro va Milliy Olimpiya qo‘mitasining tashkil etilishi, sportchilarimizning musobaqa o‘yinlaridagi ishtiroki. Gimnastika musobaqa qoidalari. Jismoniy mashg‘ulotlarni organizmning asosiy sistemalariga ta‘sirini bilish. Uzoq davom etadigan yugurishda o‘zini-o‘zi nazorat qilish usullaridan foydalanishni bilish. Chidamlilikni oshirishga qaratilgan mashqlarni mustaqil bajarish qoidalarini bilish. Dasturdagi yugurish, sakrash va uloqtirish o‘quv mezonlarini egallash.

Jismoniy mashg‘ulotlarning organizmning asosiy sistemalariga ta‘siri. Jismoniy mashqlarni bajarish ish qobiliyatini oshirish vositasidir. Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarni tibbiy nazoratdan o‘tkazib turish. Psixologik tayyorgarlik.

Chidamlilikni oshirishga qaratilgan mashqlarni mustaqil bajarish qoidalari. Mashqlarni bajarayotganda o‘z-o‘zini nazorat qilish va xavfsizlik qoidalari.

Basketbol o‘yining texnika va taktika asoslari. Basketbol o‘yinida jarohatlanishni muhofaza qilish. O‘zbekistonda voleybol o‘yining rivojlanishi. O‘yin taktikasi to‘g‘risida ma‘lumot. Jismoniy tayyorgarlik, texnika va taktika

birdamligi to'g'risida tushuncha berish. O'yinda yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish.

Massaj (silash) to'g'risida tushuncha (ko'rsatib) berish. Sport va jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanuvchining vazni. O'yin taktikasi to'g'risida ma'lumot. Jismoniy tayyorgarlik, texnika va taktika birdamligi to'g'risida tushuncha berish. O'yinda yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish. Kishi hayotida jismoniy tarbiyaning katta ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida bilish. O'quvchilarni hayotga va mehnat faoliyatiga tayyorlash. Futbol o'yini, o'yinchilarning tartib va intizom qoidalari, jarima va erkin to'p tepish, futbol taktikasi ("standart" holatda bajariladigan kombinatsiyalar). O'yin qoidalari asosida hakamlik qilish.

Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi, konfederatsiyalar va milliy federatsiyalar. Kurash musobaqalarining turlari haqida. Jarohatlanganda va shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish. Hammomda bug'lanish va uqalashni o'rganish. Kurash texnikasi va taktikasi haqida.

Inson salomatligini yaxshilashda suzishning ahamiyati. Suzishda asosiy qoidalarga amal qilish. Gigienik talablar.

## **GIMNASTIKA (10 soat)**

### **1-mavzu: Tayanib sakrash. (1 soat)**

Gimnastik "kozyol" dan ko'prikchani uzoqlashtirish va yaqinlashtirish bilan depsinib sakrashlar; uzunasiga o'rnatilgan gimnastik "kozyol" ustidan tayanib sakrash (o'g'il bolalar 120 sm balandlikdagi gimnastika ko'prigi oralig'i 1 m oraliqda) oyoqlarni kerib va bukib sakrash; yonlamasiga o'rnatilgan gimnastik "kozyol" ustidan qo'llar bilan otning o'ng-chap qismiga tayanib, oyoqlarni kerib sakrab o'tish.

Qiz bolalar 110 sm balandlikdagi uzunasiga o'rnatilgan gimnastik "kozyol" ustidan oyoqlarni kerib, sakrab o'tish; yonlama qo'yilgan gimnastik "kozyol" ustidan oyoqlarni bukib sakrab o'tishlar; oyoqlar tayanchning o'ng va chap tarafidan o'tish.

### **2-3-mavzu: Tirmashib chiqish. (2 soat)**

5 m li arqonga, qo'llar yordamida (vaqt hisobiga) tirmashib chiqish; shuni 90° burchak hosil qilib bajarish; to'xtab-to'xtab tirmashib chiqish (ma'lum balandlikda to'xtash uchun belgilar qo'yiladi).

### **4-5-mavzu: Osilish va tayanishlar. (2 soat)**

Osilishlar: turnikda: osilishdan quch bilan tayanishga ko'tarilish; gavgani bukib-yozish holatidan tebranishga o'tish; osilib tebranishda gavgani keskin yozish bilan tayanchga ko'tarilish; turnikda tayanishdan oyoq va gavgani bilan oldinga yarim oysimon harakat qilib, osilishga tushib tebranish.

Tayanishlar: gimnastik brussda qo'llarda tayanishdan tebranib, oldinga siltanish bilan tayanchga ko'tarilish; gimnastik brussda tirsakka tayanib turishdan tebranib, orqaga siltanish bilan tayanchga ko'tarilish; gimnastik brussda tayanib tebranishda, oldindan (orqadan) yon tomonlarga 90° burilib sakrab tushishlar.

### **Nazorat ishi. (1 soat)**

### **(1-5-mavzular asosida)**

### **6-7-mavzu: Akrobatika. (2 soat)**

O'g'il bolalar uchun: har xil D.H. dan oldinga umbaloq oshish; 40-50 sm balandlikdagi buyumlar ustidan umbaloq oshib o'tish; 2-3 qadam yugurib kelib, uzoqlikka umbaloq oshish; sherigi yordamida qo'llarda tik turish; tik turgan holatdan "ko'prik" hosil qilish.

Qizlar uchun: ikki marta oldinga, orqaga umbaloq oshish; kurakda turish; tik turgan holatdan "ko'prik" hosil qilish va yon tomonga aylanib turish. Milliy raqs elementlarini uyg'unlashtirish; "Munojot", "Rohat", "Tanovor" va boshqalar; ritmik gimnastika elementlari; qo'llar yordamida assimetrik harakatlari bilan har xil me'yorda turli mashqlar bajarish; har xil tezlikda qo'llar bilan (tulki holatda) mashqlar bajarishda qo'llarning yo'nalish harakatlari holatini tebrantirish; 85-90 sm li gardish bilan mashqlar bajarish; gardishlarni o'ng va chap qo'l bilan o'z oldida va orqa tomonga aylantirish.

Tasma (lenta) bilan mashqlar (uzunligi 5 m); har xil yo'nalishda, yuqoriga, pastga, orqaga, chapga, o'ngga, ilon izi, tik va yonbosh, har xil balandlikda va burama (spiral) tekisliklarda; mashqlar majmuasi (buyumlarsiz) va raqs harakatlarini dinamikasi va ohangiga mos ravishda murakkablashtirish; xalq raqslari elementlaridan iborat mashqlar.

### **8-mavzu: Muvozanatni saqlash mashqlari. (1 soat)**

Depsinib yakkacho'pga chiqish; yakkacho'pga tayanishdan bir oyoqni oshirish bilan 90° burilib, minib o'tirish, ikki oyoqda va holatlarini almashlab sakrashlar; yarim cho'qaygan holatda oyoqlar bilan siltanib yurish, oyoq uchlariga ko'tarilib burilishlar, o'ng (chap) oyoqda "qaldirg'och" hosil qilish; o'tirib burchak hosil qilish va qo'llarga oldindan tayanib, oyoqlarni kerib orqaga siltanish bilan kerishib sakrab tushish.

#### ***Nazorat ishi. (1 soat)***

#### ***(6-8-mavzular asosida)***

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** gimnastika bo'yicha Xalqaro va Milliy federatsiyalarining tashkil etilishi, sportchilarimizning musobaqa o'yinlaridagi ishtirokini biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** tayanib sakrash (o'g'il bolalar 120 sm, qiz bolalar: 110 sm balandlikdagi uzunasiga o'rnatilgan gimnastik "kozyol" ustidan) oyoqlarni kerib va hatlab sakrab o'tishni bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** shikastlanishning oldini olish choralarini biladi va ularga amal qiladi.

## **YENGIL ATLETIKA (18 soat)**

### **9-10-mavzu: Yurish. (2 soat)**

Sportcha yurish texnikasini takkomillashtirish; 100, 200 m masofalarga yuqori tezlikda sportcha yurish; past va balandliklardan iborat 400-600 m masofani bosib o'tish.

**11-14-mavzu: Yugurish (4 soat).**

60 m masofani tez yugurib o'tish; 4x100 m ga estafeta yugurish; o'rta masofaga masofa bo'ylab yugurishni bajarish; 500, 800, 1000 m masofalarga yugurish; yurish bilan almashlab 8 daqiqa davomida yugurish; 100 m ga yugurish malakasini oshirish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(9-14-mavzular asosida)*

**15-18-mavzu: Sakrash. (4 soat)**

Balandlik va uzunlikka sakrashning maxsus mashqlari; yugurib kelib uzunlikka "oyoq bukish usuli"da sakrash; yugurib kelib balandlikka "hatlab o'tish usuli"da sakrash.

**19-22-mavzu: Uloqtirish. (4 soat)**

Turli holatlarda turgan joydan tennis koptogini uloqtirish; tennis koptogini 3-4 qadamdan yugurib kelib uloqtirish; tennis koptogini mo'ljalga uloqtirish; to'ldirma to'p (3 kg) ikki qo'llab sapchib-sakrab uloqtirish.

**23-24-mavzu: Kross tayyorgarligi. (2 soat)**

Yo'nalishni o'zgartira borib past-baland yerlardan yugurish; 3000 m masofaga kross yugurish.

*Nazorat ishi. (1 soat)*

*(15-24-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** yengil atletika insonning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati, o'yinlar jarayonida ta'lim-tarbiya, axloq-odob, do'stlarga qanday munosabatda bo'lish, harakat paytida o'zining qobiliyatini o'zi aniqlay bilish, uzoq-yaqinni, tevarak-atrofdan qilinayotgan harakatlarni ko'ra biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** yengil atletika mashqlarini bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantiradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** yengil atletikaning turlariga xos bo'lgan harakat belgilari – sakrash, uloqtirish, tortilish, yugurish me'yorlarini bajarish, qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralarini biladi va ularga amal qiladi.

**SPORT O'YINLARI (**  
**(basketbol, voleybol, gandbol)**  
**14 soat)**

**25-28-mavzu: Basketbol. (4 soat)**

Basketbol o'yinini elementlari asosida har xil mashq usullarini bajarish; himoyaning maydon va shaxsiy ushlar turlarini o'rgatish; 2x3, 3x2, 2x1x2 va 1x2x2 taktikalari; hakamlik qilishni o'rgatish.

To'pni ikki qo'lda olib yurish; raqibni chetlab o'tish; to'pni bosh tomondan ikki qo'llab uloqtirish; oldinga intilib chiqish; to'pni ilib olish; yerga urib, sakrab halqaga tashlash (to'p tushgunga qadar harakatda bo'lish).

Basketbol o'yini qoidasiga asosan ikki tomonlama o'yin.

### **29-32-mavzu: Voleybol. (4 soat)**

Ikki qo'l qoidasiga rioya qilgan holda to'pni to'r orqali qarama-qarshi turgan jamoaga uzatishni o'rgatish; to'r ustida sakrab yon tomondan orqa bilan uzatishlarni o'rgatish; hujum zarbalariga to'siq qo'yish; to'rga tegib qaytgan to'pni qabul qilish va qaytarish; to'pni pastdan qabul qilish va belgilangan nuqtaga uzatish; ikki guruh o'rtasida o'ynash taktikasini o'rganish; o'rganilgan mashqlarni o'yin vaqtida qo'llay bilish; o'yinga mustaqil tayyorgarlik ko'rish; o'yinga hakamlik qilishni bilish; to'pni yuqoridan, pastdan o'yinga kiritish.

### **33-36-mavzu: Gandbol. (4 soat)**

O'yinda hakamlik qilish; o'rganilgan elementlardan ikkala tomonlama o'yinda foydalanish; maydon bo'ylab himoya; aralash himoya va asta-sekin hujum qilish taktikalarini o'rgatish.

*Nazorat ishi. (2 soat)*

*(25-36-mavzular asosida)*

### **O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** sport o'yinlari insonning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati, o'yinlar jarayonida ta'lim-tarbiya, axloq-odob, do'stlarga qanday munosabatda bo'lish, harakat paytida o'zining qobiliyatini o'zi aniqlay bilish, uzoq-yaqinni, tevarak-atrofdan qilinayotgan harakatlarni ko'ra biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** sport o'yinlarini bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni ketma-ketlikda bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** sport o'yinlarning tavsifiga xos bo'lgan harakat belgilari – sakrash, uloqtirish, tortilish, yugurish me'yorlarini bajarish, qomat buzilishi va shikastlanishining oldini olish choralari biladi va ularga amal qiladi.

## **FUTBOL (12 soat)**

### **37-47-mavzu: Futbol texnika va taktikasi. (11 soat)**

Uchib kelayotgan to'plarni oyoq panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan to'xtatish, to'pni harakat yo'nalishini o'zgartirib olib yurish, chalg'itish harakatlarini qo'llay olish. To'pni raqibdan tortib olish, to'pni darvozaga bosh bilan aniq yo'naltirish ko'nikma va malakalarini hosil qilish.

Uchib kelayotgan to'pni sakrab bosh bilan urib qaytarishni bajarish; o'quvchilarni raqibdan to'pni olib qo'yish texnikasi; tik turgan holatda to'pni tovon bilan to'xtatish; "Sakkiz" shaklida to'pni olib yurish; texnika va taktika usullari; futbol qoidasiga ko'ra ikki tomonlama o'yin.

*Nazorat ishi. (1 soat)*



*(37-47-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** futbolning mamlakatdagi rivoji hamda o'zbek futbolining Jahonda erishgan yaxshi natijalari haqida biladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** to'pni olib qo'yish texnikasi mustaqil bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** futbol o'yinining tavsifiga xos bo'lgan uloqtirish, tortilish, yugurish me'yorlarini bajaradi.

**KURASH (12 soat)**

**48-58-mavzu: Kurash texnikasi. (11 soat)**

Musobaqalarda hakamlik qilish; musobaqa o'tkazish tartiblari; kurash usullari: "ko'krakdan tashlash", "yenglardan ushlab yelkadan hamda yon tomonalardan tashlash".

**Nazorat ishi. (1 soat)**

*(48-58-mavzular asosida)*

**O'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalar:**

**Sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarishni tushunish va qo'llay olish kompetensiyasi:** mamlakatimiz hamda jahonda kurash turining rivoji, xalqaro turnirlarda yuqori natijalarga erishgan o'zbek sportchilari haqida bilib oladi.

**Jismoniy mashqlar majmuasini ketma-ketlikda to'g'ri bajarish orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish kompetensiyasi:** bajarilayotgan kurash usulini qo'llashdan avval umumiy rivojlanish mashqlari orqali tana a'zolarini tayyorlab olish mashqlarini ketma-ketlikda bajaradi.

**Sport asbob-anjomlaridan xavfsiz usullarda foydalanish kompetensiyasi:** musobaqa o'tkazish tartiblarini bilish orqali mustaqil ravishda hakamlik qiladi.

**SHAXMAT (2 soat)**

**59-60-mavzu: Shaxmat o'yini. (2 soat)**

Endshpil. Endshpilda o'ynash tartibi.

**SUZISH**

Masofa qismlarini har xil tezlikda suzib o'tish (200 m ga); suvda cho'kayotgan kishini olib chiqish usullari; suvda cho'kayotgan kishiga shifokor kelguniga qadar birinchi yordam ko'rsatish; 1 m balandlikdan suvga sakrash; musobaqalarda qatnashish.

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

Egallangan bilimlar asosida mustaqil fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish va guruhlarda ishlay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid adabiyotlardan foydalana olish, ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiyaga oid bo‘lgan ma’lumotlarni kuzatib, tushuna olish va jismoniy tarbiya va sportga oid internet tarmoqlaridan foydalana olish;

darslik va boshqa manbalardan foydalana olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

muntazam ravishda o‘zi ustida ishlash, jismoniy sifatlarni bilish, har bir sport turidan uning texnikasi va taktikasini erkin amalda qo‘llay olish, kun tartibi hamda gigienik qoidalarga amal qila olish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

atrofida bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarini tushunish va his etish, muomala madaniyatiga ega bo‘lish, fanga oid qonun va qarorlarning mohiyatini tushunish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan milliy urf-odatlarni bilish, tengdoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘la olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

jismoniy tarbiya faniga oid sanoq sonlarining mohiyatini anglash, vaqt me‘yorlarini va maydon o‘lchamlarini bilish va amalda qo‘llay olish.

**Mavzularni o‘rganish uchun - 60 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Jami - 68 soat**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi ”Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 390-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi “2004-2009 yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi PF-3431.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirli va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari hamda oliy ta’limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi 6/2/4/1-sonli qo‘shma hay’at majlisi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli qarori.
10. N.Soatov, F.Nadjimov “Maktabda jismoniy tarbiya” 2016 yi .

**Umumiy o'rta ta'limning jismoniy tarbiya fanidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy guruhi**

<b>T/r</b>	<b>Ismi va familiyasi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1	Xo'jaev Faxriddin Xadjaevich	O'zDJTI huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning maklakasini oshirish instituti o'qituvchisi, p.f.n., professor
2	Raximqulov Karimjon Datkaevich	O'zDJTI, p.f.d., professor
3	Nadjimov Furqat Farxodovich	O'zbekiston "Yoshlik" JTSJ, Markaziy kengash rais o'rinbosari
4	Movlyanov Qahramon Amirqulovich	Respublika ta'lim markazi bosh metodisti
5	Abdullaev Abduqayum Abduxalilovich	Toshkent viloyati XTXQTMOI, Amaliy fanlar kafedrasida dotsenti
<b>EKSPERT GURUHI</b>		
1	Abdiev Abdulla	O'zDJTI o'qituvchisi, p.f.n., professor
2	Maxmudov Bahrom Abdusalomovich	Nizomiy nomidagi TDPU dotsent v.b.
3	Vladislav Vladimir Xryushov	Toshkent viloyati Chirchiq shahar 10-sonli umumta'lim maktabi jismoniy tarbiya o'qituvchisi

**16-§. Tasviriy san'at fani**  
**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanini o'rganish**  
**bosqichlari**

<b>Ta'lim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Standart darajasi</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy o'rta ta'lim</b>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari	<b>A1</b>	Tasviriy san'at o'quv fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari	<b>A1+</b>	Tasviriy san'at o'quv fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf bitiruvchilari	<b>A2</b>	Tasviriy san'at o'quv fanini o'rganishning tayanch darajasi
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at fanini chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 7-sinf bitiruvchilari	<b>A2 +</b>	Tasviriy san'at o'quv fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning maqsad va vazifalari**

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning maqsadi:**

o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirish, badiiy tafakkurni yuksaltirish, estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallash, ulardan kundalik hayotida foydalanishga o'rgatishdan iborat.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:**

tasviriy va amaliy san'at asarlarini, badiiy hunarmandchilikni, me'morchilik va dizayn san'atiga oid tarixiy namunalar hamda zamonaviy san'at asarlarini tahlil qilishga va amaliy faoliyatida qo'llashga o'rgatish;

naturaning xarakterli jihatlarini ko'ra olishga, tahlil qilishga va tasvir yoki haykalni ishlash bosqichlarini ketma-ketlikda to'g'ri bajara olishga o'rgatish;

texnika va texnologiyalarning takomillashib borishi asosida fanlar integratsiyasini hisobga olgan holda to'g'ri va ongli kasb tanlashga yo'naltirish;

tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

## **Tasviriy san'at o'quv fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari**

### **1. Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi**

#### **A1**

naturaning shakli, hajmi, tuzilishini kuzata oladi;  
sodda tasvir va haykallarni naturaning xarakterli jihatlarini asosida ishlay oladi;  
naturaning xarakterli jihatlarini kuzata oladi, amaliy ishda tasvirlay oladi;  
tasviriy san'atning tur va janrlarini biladi hamda farqlay oladi;  
perspektiva qoidalarini amaliy ishda qo'llay oladi.

#### **A1+**

naturaning shakli, hajmi, tuzilishini tahlil qila oladi;  
tasvir va haykallarni naturaning xarakterli jihatlarini asosida ishlay oladi;  
naturaning xarakterli jihatlarini kuzata oladi, tahlil qila oladi; amaliy ishda tasvirlay oladi.

#### **A2**

naturaning xarakterli jihatlarini badiiy idrok etadi va ifodalay oladi;  
tasvirlashda perspektivaning asosiy qonuniyatlarini qo'llay oladi;  
naturani tasvirlashda kompozitsiya qoidalariga amal qilgan holda tasvir ishlay oladi;  
amaliy va tasviriy san'at turlarini farqlaydi, tahlil qila oladi va eskizini ishlay oladi;

O'zbekiston hamda jahon tasviriy san'at asarlarini tahlil qila oladi;  
naturani tasvirlash va ishlashga ijodiy yondasha oladi.

#### **A2+**

naturaning xarakterli jihatlarini badiiy idrok etadi va ifodalay oladi;  
tasvirlashda perspektivaning qonuniyatlaridan foydalana oladi;  
naturani tasvirlashda kompozitsiya qonun va qoidalaridan foydalana oladi;  
O'zbekiston va jahon tasviriy san'at asarlarini farqlaydi, idrok etadi va tahlil qila oladi;  
tasviriy san'atning tur va janrlari asosida amaliy ish bajara oladi.

### **2. Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to'g'ri bajarish kompetensiyasi**

#### **A1**

ish joyini to'g'ri tashkil eta oladi;  
tasvirni qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtira oladi;  
tasvirni ishlashda asosiy va hosila ranglarni to'g'ri qo'llay oladi;  
sodda naturalarning shakl tuzilishi, rangi, o'lcham nisbatlari, fazoviy holatini kuzatadi, tahlil qiladi, amaliy ishda tasvirlay oladi.

#### **A1+**

qog'oz, qalam va bo'yoqlarning bir-biriga mosligini to'g'ri tanlay oladi;  
turli ko'rinishlar va holatlardagi chiziqni (shtrixni) chiza oladi;

sodda naturaning shakli, hajmi, tuzilishi, ishlashning o'ziga xos muhim tomonlarini ko'ra oladi va tasvirlash layoqatiga egallay oladi.

## **A2**

O'zbekiston hamda jahon tasviriy san'at asarlarini biladi, tahlil qila oladi va undan ta'sirlana oladi;

tasviriy san'atning janrlari, oqim va yo'nalishlarini farqlay oladi;

tasvir ishlash bosqichlariga amal qila oladi;

naturaning asosiy qismi va mayda bo'laklarining o'zaro mutanosibligini farqlay oladi;

tasvirlashda ishlatiladigan yordamchi chiziqlarni to'g'ri qo'llay oladi;

tasvir ishlashda soya-yorug' qismlarini ajratadi, ish jarayonida qo'llay oladi;

tasvir ishlash jarayonida asosiy va hosila ranglarni to'g'ri qo'llay oladi;

plastilin yoki loy bilan ishlash bosqichlarini bajara oladi.

## **A2+**

O'zbekiston hamda jahon tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qiladi va asar xususiyatini mazmunan ifodalay oladi;

tasviriy san'at asarlarining ifodalilik vositalarini biladi va ularni amalda qo'llay oladi;

amaliy san'atda rangshunoslik qoidalariga amal qila oladi;

maxsus material va ish qurollaridan foydalana oladi.

# TASVIRIY SAN'AT FANI O'QUV DASTURI

## (1–7-sinf)

### UQTIRISH XATI

Ushbu o'quv dastur umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitishning Davlat ta'lim standarti asosida o'qitishning mazmun-mohiyatini, maqsad va vazifalarini yoritib beradi.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi:**

o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirish, badiiy tafakkurni yuksaltirish, estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallash, ulardan kundalik hayotida foydalanishga o'rgatishdan iborat.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:**

tasviriy va amaliy san'at asarlarini, badiiy hunarmandchilikni, me'morchilik va dizayn san'atiga oid tarixiy namunalar hamda zamonaviy san'at asarlarini tahlil qilishga va amaliy faoliyatida qo'llashga o'rgatish;

naturaning xarakterli jihatlarini ko'ra olishga, tahlil qilishga va tasvir yoki haykalni ishlash bosqichlarini ketma-ketlikda to'g'ri bajara olishga o'rgatish;

texnika va texnologiyalarning takomillashib borishi asosida fanlar integratsiyasini hisobga olgan holda to'g'ri va ongli kasb tanlashga yo'naltirish;

tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

**Tasviriy san'at fani boshlang'ich ta'lim yo'nalishida umumlashgan holda, quyidagi tartibda o'qitiladi:**

#### **1–4-sinf**

- tasvir ishlashga ijodiy yondashish;
- asosiy ranglar (qizil, sariq, ko'k)ni bilish;
- asosiy ranglardan hosila ranglarni hosil qilish;
- qalam, qog'oz, bo'yoq, mo'yqalam va loy, plastilin, stek (xaykaltaroshlik pichoqchasi)dan to'g'ri foydalanish usullarini bilish;
- tasvir mazmuniga ko'ra qog'oz holatini mos (tik yoki yotiq) tarzda tanlay olish.

#### **5–7-sinf**

- tasviriy san'at asarlarini tahlil qila olish;
- tasviriy san'atning tur va janrlarini farqlay olish;
- asosiy va hosila (zarg'aldoq, binafsha va yashil) ranglarni, shuningdek, ranglarni hosil qilishni bilish;
- O'zbekiston va jahon tasviriy san'at asarlarini bir-biridan farqlash;
- naturaning xarakterli jihatlari (shakli, rangi, o'lchami, nisbatlari, fazoviy holati)ni kuzata olish va amalda qo'llay olish;
- miniatyura san'ati, sharq miniatyura maktablari namoyondalarini, syujetli kompozitsiya haqida bilish;



- amaliy bezak san'atida ramziy belgilar, dizayn san'ati, me'morlik, kitobat san'atini o'rganish.

Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalarning elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

##### **A1**

tasviriy san'at faniga oid atamalarni muloqot jarayonida qo'llay olish;  
mavzu bo'yicha savollar berish hamda savollarga javob berish;  
muloqotda muomala odo biga rioya qilish, suhbatdoshining fikrini tinglay olish, o'z fikrini tushuntira bilish;  
maktabda, ko'chada, uydagi turli vaziyatlarda o'zini tuta olish;  
muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga rioya qilish.

##### **A1+**

tasvirlanadigan natura ko'rinishini sodda bayon qilish;  
olgan bilimlari asosida mustaqil fikr yuritish;  
yasalgan buyumlarga mustaqil ravishda munosabat bildirish;  
mavzudan kelib chiqib savollarni to'g'ri qo'ya olish va javob berish.

##### **A2**

mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;  
o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish;  
jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;  
suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qilish va unga ishontirish;  
turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklarga odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildirish.

##### **A2+**

tasviriy san'at faniga oid atamalarni xorijiy tillarda ifodalay olish;  
o'z do'stlari bilan san'atshunoslik tilida mantiqiy jihatdan to'g'ri muloqotga kirisha olish;  
zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish.

#### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

##### **A1**

tasviriy san'at faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko'rish, o'rganilgan ish usullarini bajarish;  
jurnal va gazetalarda berilgan ma'lumotlarni o'rganib borish;  
media vositalardan, axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish.

### **A1+**

media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish;  
axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish;

fayllarni ochishda media madaniyatga rioya qilish.

### **A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo'natish) foydalana olish;

media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlashda xavfsizlikni ta'minlash va foydalanishda media madaniyatga rioya qilish.

### **A2+**

EXCELda ma'lumotlar bazasini yaratish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish;

tavsifnoma yozish, ariza, shaxsiy ma'lumotnoma yarata olish.

### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A1**

tasviriy san'at fanini o'rganish;

amaliy ishni bajarishda tozalikka rioya qilish;

kattalarni gapiga quloq tutish;

to'garaklarda fanlarni o'qib-o'rganish;

mehnatsevarlik, to'g'rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo'lish;

to'g'riso'z bo'lish, o'rtoqlarining xatosini tushuntirish;

kattalarga, kichiklarga, o'rtoqlariga yordam berish;

o'zining xato va kamchiligini to'g'ri tushunish, xatolarini tuzatishga harakat qilish;

o'zini nazorat qilish;

halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlash, yaxshi fazilatlarga rioya qilish.

#### **A1+**

o'qib-o'rganish orqali bilimini oshirib borish;

turli yo'nalishdagi kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish.

#### **A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'zini o'zi rivojlantirish;

guruhlarda ishlashda mas'uliyatni o'ziga olish, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish;

jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'zining qiziqishlariga qarab qobiliyatlarini namoyon qila olish;

ongli kasb tanlash, halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish.

#### **A2+**

Liderlikka intilish\$

konstitutsion huquq va burchlaridan to'g'ri foydalana olish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

## **A1**

o'zining o'quvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish, sinfda va oilada o'z o'rniga ega bo'lish;

o'zidan kattalarga, o'rtoqlari va o'zidan kichiklarga yordam berish, muomala madaniyatga amal qilish;

kattaga hurmat, kichikka izzatda bo'lish kabi sifatlarga ega bo'lish,

oiladagi o'z o'rnini hamda vazifalarini anglay olish;

maktab binosi, sinfdagi jihozlar, mebellarni asrab-avaylash;

farzandlik va o'quvchilik burchini bilish, unga amal qilish;

sinfidagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash.

## **A1+**

maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish;

o'zining yoshiga nisbatan qanday huquqlari borligini bilish;

maktabda, oilada, turar joyida bo'layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h.k.) ishtirok etish.

## **A2**

sog'lom e'tiqod va dunyoqarash tushunchalarini bilish;

jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik, Vatan oldidagi mas'uliyatni his qilish;

kasblarning mohiyatini tushunish va ongli ravishda tanlash, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, ekologik, huquqiy madaniyatga rioya qilish.

## **A2+**

jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik, o'z munosabatini bildirish;

inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini bilish va unga amal qilish.

## **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

### **A1**

orasta kiyinish va doimo shunga amal qilish;

do'stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo'lish, yurish-turishda kattalardan o'rnak olish, o'z uyi, maktabi, mahallasini qadrlash;

ozodalikka rioya qilish, o'quvchining odob-axloq qoidalari tushunchasiga ega bo'lish;

san'at asarlarini tahlil qilish;

maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish, milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy an'analar, bayramlar, sayillar) bilish.

### **A1+**

milliy bayramlarni bilish;

o'zi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarni bilish;

san'at turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlay olish, san'at asarlarini tahlil qilish;

ziyosat qilish odobiga amal qilish.

## A2

xalq hunarmandchiligi yoʻnalishlarida ularning tarixiy, maʼnaviy va madaniy merosini oʻrganish, avaylab-asrash, anʼana va marosimlarini hurmat qilish;

umumbashariy ahamiyatga ega boʻlgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy anʼanalar) bilish va unga hurmat bilan munosabatda boʻlish.

## A2+

milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini bilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

## A1

oilasida nechta odam borligi, kim katta, kim kichikligini bilish;

maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish;

mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish;

isrof va tejamkorlikning maʼnosini tushunish;

ehtiyoji uchun kerak boʻlgan narsalardan (oʻquv qurollari, kiyim-kechak) tejab foydalanish, bir kunlik xarajatlarini hisoblashni bilish;

texnika turlari va ularni qachon paydo boʻlganligini bilish.

## A1+

kundalik rejalarini tuza olish;

kundalik faoliyatda turli chizmalarni chiza olish;

isrof va tejamkorlikning maʼnosini tushunish va kundalik hayotda unga amal qilish.

## A2

mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida tutgan oʻrni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera olish;

mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda amalgam oshirilgan oʻsish surʼatlarini bilish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni oʻqiy olish va foydalana olish.

## A2+

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va sanʼat yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalana olish;

taraqqiyotni isloh qilishning besh tamoyili va yetti ustuvor yoʻnalishini sharhlay olish.

Shuningdek, meʼyoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

### I. TK-tayanch kompetensiya

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-oʻzini-oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umuminsoniy kompetensiya

6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

## II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1-Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi.

2. FK2- Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to'g'ri bajarish kompetensiyasi.

### 1-SINF

33 soat, haftasiga 1 soat

## O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

### Kommunikativ kompetensiya:

– tasviriy san'at faniga oid atamalarni to'g'ri talaffuz qila olish.

### Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– turli manbalardan axborotlarni eshitish, ko'rish va tushunish.

### O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

– tasviriy san'at faniga oid bilimlarini boyitish, tirishqoqlikni, qo'l harakat motorikasini rivojlantirish.

### Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– o'zining o'quvchilik burchini bilish, jamoada ishlay olish.

### Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– tasviriy san'at turlariga oid ma'lumotlar haqida tushunchaga ega bo'lish.

## Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

– oilasida nechta odam borligi, kim katta, kim kichikligini bilish.

### 1-mavzu: Tasviriy san'at turlari. (1 soat)

Tasviriy san'atning asosiy turlari: rang tasvir, grafika va haykaltaroshlik haqida ma'lumot berish.

### 2-mavzu: Rassomning ish qurollari haqida tushuncha. (1 soat)

Dars jarayonida foydalaniladigan ish qurollari haqida ma'lumot berish.

### 3-mavzu: Chiziqlar va shakllar. (1 soat)

Tasviriy san'at fanida foydalaniladigan yordamchi chiziqlar haqida ma'lumot berish.

### 4-mavzu: Bo'yoqlar va ranglar haqida asosiy tushuncha. (1 soat)

Asosiy va hosila ranglar haqida tushuncha berish hamda ish jarayonida qo'llashni o'rganish.

### 5-mavzu: Tasviriy san'atda bayroqcha rasmini tasvirlash. (1 soat)

Naturaga qarab rasmini qog'ozga to'g'ri joylashtirish va ranglardan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish.

### 6-mavzu: O'quvchilar bilan birgalikda soat rasmini tasvirlash. (1 soat)

Naturaga qarab rasmni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va ranglardan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish.

**7-mavzu:** Kuz faslini idrok etish. (1 soat)

Tabiatning turli fasllardagi o'ziga xos go'zalligini ko'ra bilish, tabiat go'zalligini idrok etishda asosiy tasavvurlar va fantaziyani qo'llash.

**8-mavzu:** "Kuz" mavzusida rasm chizish. (1 soat)

Manzarani tasvirlash jarayonida tasvirni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va perspektiva qoidalari haqida tushuncha berish.

**9-mavzu:** Barglar rasmini tasvirlash. (1 soat)

Turli shakldagi barglar rasmini chizish.

**10-mavzu:** Barglardan tasvir va shakllar hosil qilish. (1 soat)

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish.

**11-mavzu:** Tasviriy san'atda haykal ishlash sirlari. (1 soat)

O'quvchilarda qo'llarning mayda matorikalarini rivojlantirish orqali ularda haykal ishlash malakalarini tarkib toptirish.

**12-mavzu:** Akvariumdagi baliqlar rasmini tasvirlash. (1 soat)

Naturaga qarab rasmni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va ranglardan to'g'ri foydalana olish hamda sovuq ranglar bilan ishlashni o'rgatish.

**13-14 mavzu:** "Ikki echki" ertagi asosida haykal ishlash. (2 soat).

Ertaklar asosida illustrasiya ishlash.

**Nazorat ishi:** (1 soat)

**15-mavzu:** Avtomashina rasmini chizish. (1 soat)

O'zbek avtomashinalari rasmini chizish orqali milliylik ruhini uyg'otish va naturaga qarab rasmni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va ranglardan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish.

**16-mavzu:** Qish faslini idrok etish. (1 soat)

Tabiatning turli fasllardagi o'ziga xos go'zalligini ko'ra bilish, tabiat go'zalligini idrok etishda asosiy tasavvurlar va fantaziyani qo'llash.

**17-mavzu:** "Qish" mavzusida rasm chizish. (1 soat)

Manzarani tasvirlash jarayonida tasvirni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va perspektiva qoidalari haqida tushuncha berish.

**18-mavzu:** Ho'tik haykalchasini ishlash. (1 soat)

O'quvchilarda qo'llarning mayda matorikalarini rivojlantirish orqali ularda haykal ishlash malakalarini tarkib toptirish.

**19-mavzu:** Yelkanli qayiqcha rasmini tasvirlash. (1 soat)

Naturaga qarab rasmni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va ranglardan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish.

**20-mavzu:** "Uch tulki" ertagi asosida rasm chizish va uning haykalchalarini yasash. (1 soat)

Ertaklar asosida bosqichma-bosqich illustrasiya ishlash.

**21-mavzu:** Fil haykalchasini ishlash. (1 soat)

Fil haykalchasini yasash orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

**22-23-mavzu:** Samolyot rasmini ishlash. (2 soat)

Naturaga qarab rasmni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va ranglardan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish.

**24-mavzu:** Havo shari rasmini chizish. (1 soat)

Naturaga qarab rasmni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va ranglardan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish.

**Nazorat ishi:** (1 soat)

**25-mavzu:** Bahor faslini idrok etish. (1 soat)

Tabiatning turli fasllardagi o'ziga xos go'zalligini ko'ra bilish, tabiat go'zalligini idrok etishda asosiy tasavvurlar va fantaziyani qo'llash.

**26-mavzu:** "O'lkamizda bahor" mavzusida rasm chizish. (1 soat)

Manzarani tasvirlash jarayonida tasvirni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va perspektiva qoidalari haqida tushuncha berish.

**27-mavzu:** Gullar rasmini chizish. (1 soat)

Tabiatning go'zalliklarini ranglar uyg'unligi orqali ko'rsatib berish.

**28-mavzu:** Kapalak rasmini chizish. (1 soat)

Tabiatning go'zalliklarini ranglar uyg'unligi orqali ko'rsatib berish.

**29-30-mavzu:** To'tiqush rasmini chizish. (1 soat)

Naturaga qarab rasmni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va ranglardan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish.

**Nazorat ishi:** (1 soat)

### **O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi:**

naturaning shakli, hajmi, tuzilishini kuzata oladi;

tasviriy san'atning tur va janrlarini biladi hamda farqlay oladi;

sodda tasvir va haykallarni naturaning xarakterli jihatlarini asosida ishlay oladi;

naturaning xarakterli jihatlarini kuzata oladi, amaliy ishda tasvirlay oladi.

**Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to'g'ri bajarish kompetensiyasi:**

ish joyini to'g'ri tashkil eta oladi, tasvirni qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtira oladi, qog'oz, qalam va bo'yoqlarning bir-biriga mosligini to'g'ri tanlay oladi.

**Mavzularni o'rganish uchun – 30 soat**

**Nazorat ishlari uchun – 3 soat**

**Jami – 33 soat**

### **2-SINF**

**34 soat (A1+ 68 soat), haftasiga 1 soat; (A1+; 2 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

darsga oid ko‘rsatmalar va o‘qituvchi nutqini tushunish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

televizordan to‘g‘ri foydalanish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo‘lish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o‘zining o‘quvchilik burchi va vazifalarini bilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

orasta kiyinish, yurish-turishda kattalardan o‘rnak olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish.

**1-mavzu:** Tasviriy san’atda “Rang va tuslar”. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tasviriy san’atda asosiy va hosila ranglar bilan ishlash.

**2-mavzu:** Mevalar va milliy idishlardan tashkil topgan natyurmort rasmini chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bosqichma-bosqich natyurmort tasvirlash usullari.

**3-mavzu:** “Manzara” janrida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tasviriy san’atda manzara janrini tasvirlash bosqichlari.

**4-mavzu:** Ustozlar bayramiga tabriknoma eskizini yasash. (1 soat).

O‘quvchilarni kompozitsion faoliyatini rivojlantirish.

**6-mavzu:** “Bo‘g‘irsoq” ertagi asosida haykal yasash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Illustrasiya tasvirlash bosqichlari.

**7-mavzu:** “O‘zbek xalq amaliy san’ati” haqida tushuncha. (1 soat).

Amaliy san’at turlari haqida ma’lumot berish.

**8-mavzu:** “Oltin kuz” manzarasi rasmini chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Borliqni badiiy idrok etish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**9-mavzu:** “Baliq” haykalchasini yasash. (1 soat).

O‘quvchilarning kompozitsion faoliyatini rivojlantirish.

**10-mavzu:** “Kuzgi ishlar” mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kuz faslida bajariladigan ishlarni tasvirlash, o‘quvchilarning kompozitsion faoliyatini rivojlantirish.

**11-mavzu:** Yo‘lsimon naqsh chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Naqsh namunalaridan nusxa ko‘chirish.

**12-mavzu:** Avtomashinalar rasmini chizish. (1 soat).

Naturaga qarab tasvirlash.

**13-mavzu:** “Bo‘ri bilan tulki” ertagi asosida haykal yasash. (1 soat).

Ertak asosida kompozitsiya bajarish.

**14-mavzu:** “Qish manzarasi” mavzusi asosida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat) Borliqni idrok etish, qish faslini tasvirlash.

**15-mavzu:** “Qanotli do‘stlar” qushlar rasmini chizish. (1 soat).



Qish faslida istiqomat qiladigan qushlar rasmiga qarab tasvirlash.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**16-mavzu:** “Yangi yil” manzarasi rasmini tasvirlash. (1 soat).

Qish manzarasini, bayramga tayyorgarlikni tasvirlash.

**17-mavzu:** “Men sevgan hayvon” mavzusida haykal yasash. (1 soat).

O‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan hayvonlar rasmini chizish.

**18-mavzu:** Naqsh namunalaridan nusxa ko‘chirish (1 soat, A1+: 2 soat)

Kompozitsion qobiliyatni rivojlantirish.

**19-mavzu:** Aylana naqsh kompozitsiyasini chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Naqsh namunalaridan nusxa ko‘chirish.

**20-mavzu:** 8-mart bayramiga tabriknoma yasash. (1 soat)

O‘quvchilarning kompozitsion qobiliyatini rivojlantirish.

**21-mavzu:** “Navro‘z – bahor bayrami” mavzusida jamoa tarzida devoriy gazeta ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Navro‘z bayrami, bahor fasli go‘zalliklarini tasvirlash.

**22-mavzu:** “Mening maktabim” mavzusida rasm chizish. (1 soat)  
O‘quvchilarning kompozitsion qobiliyatini rivojlantirish.

**23-mavzu:** Archa, terak va turli xil daraxt rasmlarini chizish hamda ularga ta’rif berish. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarning kompozitsion qobiliyatini rivojlantirish.

**24-mavzu:** Ixtiyoriy ertak qahramoni haykalchalarini ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)  
O‘quvchilarning kompozitsion qobiliyatini rivojlantirish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**25-mavzu:** Tuyaning rasmini chizish. (1 soat)

Yordamchi chiziqlar asosida tuya rasmini chizish.

**26-mavzu:** Dekorativ haykalchalar. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarni kompozitsion qobiliyatini rivojlantirish.

**27-28-mavzu:** “Bobomning bog‘i” mavzusi asosida manzara kompozitsiyasini yaratish (2 soat, A1+: 4 soat)

O‘quvchilarning kompozitsion qobiliyatini rivojlantirish.

**29-30-mavzu:** “Uch jo‘ja va o‘rdakcha” ertagi asosida ularning haykalchalarini ishlash. (2 soat, A1+: 4 soat)

Illustراسiya tasvirlab, tasvir asosida haykal ishlash.

**Nazorat ishi:** (1 soat)

### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi:**

**A1**

naturaning shakli, hajmi, tuzilishini kuzata oladi;

tasviriy san‘atning tur va janrlarini biladi hamda farqlay oladi;

naturaning xarakterli jihatlarini kuzata oladi; amaliy ishda tasvirlay oladi.

**A1+**

naturaning shakli, hajmi, tuzilishini tahlil qila oladi;  
tasvir va haykallarni naturaning xarakterli jihatlari asosida ishlay oladi;  
naturaning xarakterli jihatlari kuzata oladi, tahlil qila oladi, amaliy ishda tasvirlay oladi.

**Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi:**

**A1**

ish joyini to‘g‘ri tashkil eta oladi; tasvirni qog‘oz yuzasiga to‘g‘ri joylashtira oladi;

qog‘oz, qalam va bo‘yoqlarning bir-biriga mosligini to‘g‘ri tanlay oladi;  
tasvirni ishlashda asosiy va hosila ranglarni to‘g‘ri qo‘llay oladi.

**A1+**

qog‘oz, qalam va bo‘yoqlarning bir-biriga mosligini to‘g‘ri tanlay oladi;  
turli ko‘rinishlar va holatlardagi chiziqni (shtrixni) chiza oladi;  
sodda naturaning shakli, hajmi, tuzilishi, ishlashning o‘ziga xos muhim tomonlarini ko‘ra oladi va tasvirlash layoqatini egallay oladi.

**Mavzularni o‘rganish uchun – 30 soat (A1+:60 soat)**

**Nazorat ishlari uchun – 4 soat (A1+:8 soat)**

**Jami – 34 soat (A1+:68 soat)**

### **3-SINF**

**34 soat (A1+ 68 soat), haftasiga 1 soat; (A1+; 2 soat)**

**O‘quvchilarda shakillantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

ona tili va birorta xorijiy tilni o‘zlashtirish, muloqotda qo‘llay olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

televizor orqali berilgan xabarlarni tushunish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

maktabda, to‘garakda fanlarni o‘qib-o‘rganish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

farzandlik va o‘quvchilik burchini bilish, unga amal qilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

o‘zi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarni bilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish.

**1-mavzu:** “Mustaqil ona Vatan” mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bayramona kayfiyatni davom ettirgan holda kompozitsiya bajarish.

**2-mavzu:** “Kuzgi hosil” mavzusida rasm chizish (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, kompozitsiya bajarish.

**3-mavzu:** “Kuz” mavzusida rasm chizish (1 soat, A1+: 2 soat)

Kuz faslini badiiy idrok etish.

**4-mavzu:** Natyurmort (milliy idishlar) asosida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bosqichma-bosqich natyurmort chizish qoidalari.

**5-6-mavzu:** Tabriknoma eskizini chizish va yasash. (2 soat)

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, kompozitsiya bajarish.

**7-mavzu:** “Sijjakda kuz” G`. Abduraxmonov asari asosida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kuz faslini badiiy idrok qilish.

**8-mavzu:** Barglar yordamida tasvir yaratish. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, kompozitsiya bajarish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**9-mavzu:** Momaqaymoq, binafsha, lolaqizg‘aldoq kabi gullarning rasmini chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, kompozitsiya bajarish.

**10-mavzu:** 2-3 dona mevalardan tashkil topgan natyurmort rasmini tasvirlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bosqichma-bosqich natyurmort chizish qoidalariga amal qilish.

**11-mavzu:** Gullar ishtirokida to‘rtburchak shaklda naqsh namunalaridan birini ko‘chirish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bosqichma-bosqich naqsh chizish qoidalariga amal qilish.

**12-mavzu:** Baliq relefli haykalini ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Bosqichma-bosqich haykal yasash qoidalariga amal qilish.

**13-mavzu:** “Tulki va turna” ertagi qahramonlari asosida ilustratsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Ertak asosida bosqichma-bosqich ilustratsiya ishlash qoidalariga amal qilish.

**14-mavzu:** Harakatdagi odam haykalini yasash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Harakatdagi sportchi, raqqosalarni tasvirini yasash.

**15-mavzu:** “Qorli uycha” mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Qish manzarasini badiiy idrok etish, qish faslida uy ko‘rinishini perspektiva qoidalariga amal qilib tasvirlash.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**16-mavzu:** “Yangi yil” mavzusida devoriy gazeta chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Jamoaviy tarzda yangi yil tabrigini bajarish.

**17-mavzu:** “Fantastik daraxt” mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kompozitsion qobiliyatni rivojlantirish.

**18-mavzu:** “Tog‘larning bahorgi ko‘rinishi” manzara rasmni chizish (1 soat, A1+: 2 soat)

Bahor kelganida tog‘lar, bog‘larning ko‘rinishini tasvirlash.

**19-mavzu:** 8-mart bayramiga tabriknoma yasash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Jamoaviy tarzda onajonlar bayramiga tabriknoma tayyorlash.

**20-mavzu:** “Men sevgan hayvon” mavzusida haykal yasash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kompozitsion qobiliyatni rivojlantirish.

**21-mavzu:** “Navro‘zi olam” mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Sumalak sayli, bayram kayfiyatini tasvirlash.

**22-mavzu:** Geometrik shakllar yordamida naqsh kompozitsiyasini chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Girix chizish qoidalari haqida ma‘lumot berish, bosqichma-bosqich chizish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**23-24-mavzu:** O‘zbek xalq amaliy bezak san‘atini badiiy idrok etish (2 soat, A1+: 4 soat)

Amaliy san‘at turlari haqida tushuncha berish.

**25-mavzu:** Gullar asosida naqsh chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarda kompozitsion qobiliyatni rivojlantirish.

**26-mavzu:** “Ho‘tik yetaklagan bola” mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Naturaga qarab tasvirlash.

**27-mavzu:** “Echki va uning bolalari” ertagi qahramonlaridan birini tanlab rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarda kompozitsion qobiliyatni rivojlantirish.

**28-mavzu:** Natyurmort asosida haykal ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarda kompozitsion qobiliyatni rivojlantirish.

**29-mavzu:** “Hayvonot bog‘ida” mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Naturaga qarab tasvirlash.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**30-mavzu:** Harakatdagi odam obrazini ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

O‘quvchilarda kompozitsion qobiliyatni rivojlantirish, bosqichma-bosqich tasvirlash qoidalariga amal qilish.

### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi;**

**A1**

naturaning shakli, hajmi, tuzilishini kuzata oladi;

naturaning xarakterli jihatlarini kuzata oladi, amaliy ishda tasvirlay oladi;

tasviriy san‘atning tur va janrlarini biladi hamda farqlay oladi.

### **A1+**

tasvir va haykallarni naturaning xarakterli jihatlari asosida ishlay oladi; tasviriy, amaliy san`atning tur va janrlarini biladi hamda farqlay oladi; naturaning xarakterli jihatlarni kuzata oladi, tahlil qila oladi, amaliy ishda tasvirlay oladi.

**Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to`g`ri bajarish kompetensiyasi:**

### **A1**

ish joyini to`g`ri tashkil eta oladi;  
tasvirni qog`oz yuzasiga to`g`ri joylashtira oladi;  
tasvirni ishlashda asosiy va hosila ranglarni to`g`ri qo`llay oladi;  
sodda naturalarning shakl tuzilishi, rangi, o`lcham nisbatlari, fazoviy holatini kuzatadi, tahlil qiladi, amaliy ishda tasvirlay oladi.

### **A1+**

qog`oz, qalam va bo`yoqlarning bir-biriga mosligini to`g`ri tanlay oladi;  
turli ko`rinishlar va holatlardagi chiziqni (shtrixni) chiza oladi;  
fazoviy holatini va perespektivani tahlil qila oladi, tasvirlay oladi;  
sodda naturaning shakli, hajmi, tuzilishi, ishlashning o`ziga xos muhim tomonlarini ko`ra oladi va tasvirlash layoqatini egallay oladi.

**Mavzularni o`rganish uchun – 30 soat (A1+:60 soat)**

**Nazorat ishlari uchun – 4 soat (A1+:8 soat)**

**Jami – 34 soat (A1+:68 soat)**

## **4-SINF**

**34 soat (A1+68 soat), haftasiga 1 soat; (A1+; 2 soat)**

**O`quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga rioya qilish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish.

**O`zini o`zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

o`qib-o`rganish orqali bilimini oshirib borish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o`quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini bilish va ularga rioya qilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

san`at asarlarini tahlil qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

texnikaning paydo bo`lishi haqidagi ma`lumotlarni bilish.

- 1-mavzu:** Tasviriy san'atning tur va janrlari. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 2-mavzu:** Mevalar asosida natyurmort chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 3-mavzu:** "Qovun saylida" mavzusida kompozitsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 4-mavzu:** "Raqqosa" haykalini ishlash. (1 soat)
- 5-mavzu:** Kuzgi gullar mavzusida rasm ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 6-mavzu:** "Qushlar" mavzusida rasm chizish. (1 soat)
- 7-8-mavzu:** To'rtburchak shaklida naqsh chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)
- Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)
- 9-mavzu:** O'zbekiston me'moriy yodgorliklari mavzusida suhbat. (1 soat)
- 10-mavzu:** "Mehmonlar me'moriy yodgorliklar oldida" mavzusida kompozitsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 11-mavzu:** "Chopon bola" mavzusida haykal ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 12-13-mavzu:** Kvadrat shaklida naqsh chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 14-mavzu:** "Sport o'yinlari" mavzusida kompozitsiya ishlash. (1 soat).
- 15-mavzu:** "Qish keldi" mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)
- Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)
- 16-mavzu:** Doira shaklida naqsh chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 17-mavzu:** "Savat ko'targan qiz" mavzusida kompozitsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 18-mavzu:** "Tuya bilan bo'taloq" mavzusida haykal ishlash. (1 soat)
- 19-mavzu:** "Ur to'qmoq" ertagiga ilustratsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 20-mavzu:** "Futbolchi" mavzusida haykal ishlash. (1 soat)
- 21-22 mavzu:** "Navro'z" bayrami mavzusiga kompozitsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 23-mavzu:** "Tog'da bahor" mavzusiga kompozitsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 24-mavzu:** "Bahor gullari" mavzusiga kompozitsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)
- 25-mavzu:** Sopol lagan uchun naqsh ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 26-mavzu:** "Bokschi" mavzusida haykal ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 27-28-mavzu:** "Poyga" mavzusiga rasm ishlash. (2 soat).
- 29-mavzu:** "Bo'ri bilan turna" masaliga ilustratsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)
- 30-mavzu:** Yil davomida o'tilgan mavzularni takrorlab, chizilgan na'munalarda ko'rgazma o'tkazish. (1 soat)
- Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

## **O'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalarning elementlari:**

### **Kommunikativ kompetensiya:**

#### **A1**

tasviriy san'at faniga oid atamalarni muloqot jarayonida qo'llay oladi;

mavzu bo'yicha savollar beradi hamda savollarga javob bera oladi;  
muloqotda muomala odo biga rioya qila oladi, suhbatdoshining fikrini tinglay oladi, o'z fikrini tushuntira oladi;

maktabda, ko'chada, uydagi turli vaziyatlarda o'zini tuta olish muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga rioya qila oladi.

**A1+**

tasvirlanadigan natura ko'rinishini sodda bayon qila oladi;  
olgan bilimlari asosida mustaqil fikr yurita oladi;  
yasalgan buyumlarga mustaqil ravishda munosabat bildira oladi;  
mavzudan kelib chiqib savollarni to'g'ri qo'yadi va javob bera oladi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A1**

tasviriy san'at faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko'radi;  
o'rganilgan ish usullarini bajaradi;  
jurnal va gazetalarda berilgan ma'lumotlarni o'rganib bora oladi;  
media vositalardan va axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana oladi.

**A1+**

media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajaradi;  
axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana oladi;

fayllarni ochishda media madaniyatga rioya qila oladi.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A1**

tasviriy san'at fanini o'rganish, amaliy ishni bajarishda tozalikka rioya qila oladi;

kattalarning gapiga quloq tuta oladi;

to'garaklarda fanlarni o'qib-o'rgana oladi;

mehnatsevarlik, to'g'rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo'la oladi;

to'g'riso'z bo'la oladi, o'rtoqlarining xatosini tushuntira oladi, kattalarga, kichiklarga, o'rtoqlariga yordam bera oladi;

o'zining xato va kamchiligini to'g'ri tushuna oladi, xatolarini tuzatishga harakat qila oladi, o'zini nazorat qila oladi, halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay oladi, yaxshi fazilatlarga rioya qila oladi.

**A1+**

o'qib-o'rganish orqali bilimini oshirib boradi;

turli yo'nalishdagi kitoblarni muntazam o'qib, organa oladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A1**

o'zining o'quvchilik burchi va vazifalarini biladi, unga rioya qiladi, sinfda va oilada o'z o'rniga ega bo'la oladi;

o'zidan kattalarga, o'rtoqlari va o'zidan kichiklarga yordam bera oladi;

muomala madaniyatiga amal qila oladi;

kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish kabi sifatlarga ega bo‘la oladi;  
oiladagi o‘z o‘rnini hamda vazifalarini anglay oladi;  
maktab binosi, sinfdagi jihozlar, mebellarni asrab-avaylash, farzandlik va  
o‘quvchilik burchini biladi, unga amal qila oladi;  
suv, elektr manbalarini tejashda faol ishtirok eta oladi;  
sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylay oladi.

**A1+**

maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok eta oladi;  
o‘zining yoshiga nisbatan qanday huquqlari borligini biladi;  
maktabda, oilada, turar joyida bo‘layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar,  
shanbalik va h.k.) ishtirok eta oladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A1**

orasta kiyinadi va doimo shunga amal qiladi;  
do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘la oladi;  
yurish-turishda kattalarga o‘rnak bo‘la oladi;  
o‘z uyi, maktabi, mahallasini qadrlay oladi;  
ozodalikka rioya qila oladi;  
o‘quvchining odob-axloq qoidalari tushunchasiga ega bo‘la oladi;  
san’at asarlarini tahlil qila oladi;  
maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qila oladi;  
yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay oladi;  
milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy an’analar, bayramlar, sayllar) biladi.

**A1+**

milliy bayramlarni biladi;  
o‘zi yashab turgan hududdagi tarixiy obidalarni biladi;  
san’at turlarini biladi va ularni bir-biridan farqlay oladi, san’at asarlarini tahlil  
qila oladi;  
ziyosat qilish odobiga amal qiladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish  
hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A1**

oilasida nechta odam borligi, kim katta, kim kichikligini biladi;  
maktabga kelib ketadigan vaqtni biladi;  
mamlakatimizdagi bayram kunlarini biladi;  
isrof va tejamkorlikning ma’nosini tushunadi, ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan  
narsalardan (o‘quv qurollari, kiyim-kechak) tejab foydalana oladi, bir kunlik  
xarajatlarini hisoblashni biladi;  
texnika turlari va ularni qachon paydo bo‘lganligini biladi.

**A1+**

kundalik rejalarini tuza oladi;  
kundalik faoliyatda turli chizmalarni chiza oladi;  
isrof va tejamkorlikning ma’nosini tushunadi va kundalik hayotda unga amal  
qila oladi.



## **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

### **Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi:**

#### **A1**

naturaning shakli, hajmi, tuzilishini kuzata oladi;  
naturaning xarakterli jihatlarini kuzata oladi, amaliy ishda tasvirlay oladi;  
tasviriy san’atning tur va janrlarini biladi hamda farqlay oladi;  
perspektiva qoidalarini amaliy ishda qo‘llay oladi.

#### **A1+**

naturaning shakli, hajmi, tuzilishini tahlil qila oladi;  
tasvir va haykallarni naturaning xarakterli jihatlarini asosida ishlay oladi;  
naturaning xarakterli jihatlarini kuzata oladi, tahlil qila oladi, amaliy ishda tasvirlay oladi.

### **Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi;**

#### **A1**

ish joyini to‘g‘ri tashkil eta oladi;  
tasvirni qog‘oz yuzasiga to‘g‘ri joylashtira oladi;  
tasvirni ishlashda asosiy va hosila ranglarni to‘g‘ri qo‘llay oladi;  
sodda naturalarning shakl tuzilishi, rangi, o‘lcham nisbatlari, fazoviy holatini kuzatadi, tahlil qiladi, amaliy ishda tasvirlay oladi.

#### **A1+**

qog‘oz, qalam va bo‘yoqlarning bir-biriga mosligini to‘g‘ri tanlay oladi;  
turli ko‘rinishlar va holatlardagi chiziqni (shtrixni) chiza oladi;  
naturaning fazoviy holatini, perspektivasini tahlil qila oladi va amalda qo‘llay oladi;  
sodda naturaning shakli, hajmi, tuzilishi, ishlashning o‘ziga xos muhim tomonlarini ko‘ra oladi va tasvirlash layoqatini egallay oladi.

**Mavzularni o‘rganish uchun – 30 soat (A1+: 90 soat)**

**Nazorat ishlari uchun – 4 soat (A1+: 12 soat)**

**Jami – 34 soat (A1+: 102 soat)**

## **5-SINF**

**34 soat (A1+68 soat) haftasiga 1 soat; (A1+; 2 soat)**

## **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

### **Kommunikativ kompetensiya:**

jamoa bilan ishlashda uning fikrini qo‘llab-quvvatlash.

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalaridan (audio-video yozuv, kompyuter) foydalanish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

o'qib-o'rganish uchun fan to'garaklariga qatnashish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

mahallada tashkil etilgan hasharlarda, shanbaliklarda faol ishtirok etish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

yurish-turishda milliy va madaniy me'yorlarga amal qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

shaxsiy, iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritishni bilish.

**1-mavzu:** Tasviriy san'atning ifodaviy vositalari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Chiziq, dog', rang, shakl, fazo, faktura haqida tushuncha.

**2-3-mavzu:** Qalamtasvirda geometrik jismlar chizish. (2 soat, A1+: 4 soat)

Nuqta, chizikli tasvir, chizikli tasvirlash, tusli tasvirlash, shtrixlar haqida ma'lumot berish.

**4-mavzu:** Oq va qora rangda manzara rasmini ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Narsalarning och-to'qlik darajalarini farqlash.

**5-mavzu:** Xotirjam, o'ychan holatlarni ifodalovchi manzara rasmini chizish.

(1 soat, A1+: 2 soat)

Tasviriy san'atda tabiat ko'rinishini ifodalash.

**6-mavzu:** Odam haykalining turli vaziyatdagi holatini yasash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Harakatdagi odam kompozitsion haykalini ishlash.

**7-mavzu:** Oydin tundagi yoki quyoshning botish chog'idagi daraxtni tasvirlash (1 soat, A1+: 3 soat)

Guash yoki akvarel bo'yoqlari bilan ishlash.

**Nazorat ishi:** (1 soat)

**8-9-mavzu:** Rangtasvir xususiyatlari. (2 soat, A1+: 4 soat)

Spektr ranglar haqida tushuncha.

**10-mavzu:** Rangtasvir va grafikada manzara. (1 soat, A1+: 2 soat)

Manzara janridagi asarlarni tahlil qilish va ijodiy ish bajarish.

**11-mavzu:** Tabiatning obrazli manzarasini tasvirlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yil fasllarining obrazli talqinini ishlash.

**12-mavzu:** Sharqona shahar tasvirining eskizini chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Sharq tarixiy minoralarini o'rganish, tasvirini chizish.

**13-mavzu:** "Tasviriy san'atda animalistik janr". (1 soat, A1+: 2 soat)

Animalistik janr haqida ma'lumot berish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 3 soat)

**14-mavzu:** "Men sevgan hayvon" mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

O'quvchilar yoqtirgan hayvonlar rasmini chizish.

**15-mavzu:** "Qish manzarasi" mavzusida rasm chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Qish faslini idrok etish.

**16-mavzu:** “Yangi yil” mavzusida devoriy gazeta ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Jamoaviy tarzda yangi yil tabrigini tasvirlash.

**17-mavzu:** Rangtasvirda natyurmort chizish bosqichlari. (1 soat, A1+: 2 soat)  
Natyurmort chizish bosqichlari, perspektiva qoidalar haqida ma’lumot.

**18-19-mavzu:** Milliy idishlardan natyurmort chizish. (2 soat, A1+: 4 soat)  
Bosqichma-boqich natyurmort chizish.

**20-mavzu:** Rang-tus jihatidan qarama-qarshi (kontrast) buyumlardan tashkil topgan natyurmortni grafik usulda ishlash. (1 soat)

**21-mavzu:** Men sevgan hayvon haykalchasini yasash. (1 soat)  
O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

**22-23-mavzu:** Naqsh na’munalaridan kompozitsiya bajarish. (2 soat, A1+: 4 soat)

Kompozitsiya bajarish.

**24-mavzu:** Badiiy bezak grafikasi. (1 soat, A1+: 2 soat)  
Kompozitsiya bajarish.

**25-mavzu:** 8-mart bayramiga devoriy gazeta ishlash. (1 soat).  
Jamoaviy tarzda tabriknoma eskizini bajarish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 3 soat)

**26-mavzu:** Tasviriy san’atda portret janri. (1 soat, A1+: 2 soat)

**27-mavzu:** “Avtoportret”. (1 soat, A1+: 2 soat)

**28-29-mavzu:** “Men sevgan qahramon” mavzusida portret ishlash. (2 soat, A1+: 4 soat)

**30-mavzu:** “Harakatdagi odam” haykalini yaratish. (1 soat, A1+: 2 soat)  
Kompozitsiya bajarish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 3 soat)

### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi;**

**A1**

naturaning xarakterli jihatlarini badiiy idrok etadi va ifodalay oladi;  
tasvirlashda perspektivaning asosiy qonuniyatlarini qo‘llay oladi;  
naturani tasvirlashda kompozitsiya qoidalariga amal qilgan holda tasvir ishlay oladi:

naturani tasvirlash va ishlashga ijodiy yondasha oladi.

**A1+**

naturaning xarakterli jihatlarini badiiy idrok etadi va ifodalay oladi;  
tasvirlashda perspektivaning asosiy qonuniyatlarini qo‘llay oladi;  
naturani tasvirlashda kompozitsiya qoidalariga amal qilgan holda tasvir ishlay oladi;

amaliy va tasviriy san’at turlarini farqlaydi, tahlil qila oladi va eskizini ishlay oladi;

O‘zbekiston hamda jahon tasviriy san’at asarlarini tahlil qila oladi;  
naturani tasvirlash va ishlashga ijodiy yondasha oladi.

**Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi:**

**A1**

ish joyini to‘g‘ri tashkil eta oladi;

tasvirni qog‘oz yuzasiga to‘g‘ri joylashtira oladi;

tasvirni ishlashda asosiy va hosila ranglarni to‘g‘ri qo‘llay oladi;

sodda naturalarning shakl tuzilishi, rangi, o‘lcham nisbatlari, fazoviy holatini kuzatadi, tahlil qiladi, amaliy ishda tasvirlay oladi.

**A1+**

O‘zbekiston hamda jahon tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qiladi va asar xususiyatini mazmunan ifodalay oladi;

tasviriy san’at asarlarining ifodalilik vositalarini biladi va ularni amalda qo‘llay oladi;

amaliy san’atda rangshunoslik qoidalariga amal qila oladi;

maxsus material va ish qurollaridan foydalana oladi.

**Mavzularni o‘rganish uchun – 30 soat (A1+: 60 soat)**

**Nazorat ishlari uchun – 4 soat (A1+: 8 soat)**

**Jami – 34 soat (A1+: 68 soat)**

**6-SINF**

**34 soat (A1+68 soat), haftasiga 1 soat; (A1+; 2 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a’zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to‘g‘ri qabul qilish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

duradgorlikda ishlatiladigan yelimlar va bo‘yoqlarni ishlatilish sohalarini axborot manbalaridan qidirib topish va ulardan foydalana olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

bilimni mustaqil ravishda oshirib borish;

o‘zining qiziqishlariga ko‘ra qobiliyatlarini namoyon qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o‘zining fuqarolik burchi va huquqlarini bilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

Vatan, oila, mahallasining tarixini bilish va bugungi kun bilan taqqoslay olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

turli materiallarga ishlov berishda moslamalarda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda ishlash.

**1-mavzu:** Oʻrta asrlar tasviriy sanʼati usul va yoʻnalishlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oʻrta asrlarda tasviriy sanʼat yoʻnalishlarining rivojlanishi haqida maʼlumot berish.

**2-mavzu:** Xitoy va Yaponiya tasvirlash sanʼati usuli. (1 soat, A1+: 2 soat)

Nam qogʻozga daraxt, togʻ, gul obrazini tasvirlash.

**3-4-mavzu:** Harakatdagi odam, sportchi obrazini tasvirlash. (2 soat, A1+: 4 soat)

Harakatlanayotgan obraz (figura)ni tasvirlash.

**5-mavzu:** Tabriknoma eskizini yasash. (1soat)

Ustozlar bayramiga tabriknoma eskizini yaratish.

**6-mavzu:** Rangtasvir yoki grafika usulida kompozitsiya yaratish. (1 soat, A1+: 4 soat)

Tasviriy sanʼat turlaridan birini tanlab, kompozitsiya yaratish.

**7-8-mavzu:** Haykaltaroshlikda lirika va drammatizm. (2 soat, A1+: 4 soat)

Haykaltaroshlik turlarini badiiy idrok etish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 3 soat)

**9-mavzu:** Mayda plastika haykaltaroshligi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Haykaltaroshlikda mayda plastika yoʻnalishining oʻrni.

**10-mavzu:** Sharq miniatyura sanʼati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Miniatyura sanʼati tarixi haqida maʼlumot berish.

**11-12-mavzu:** Sharq miniatyura sanʼati asarlaridan namuna koʻchirish. (2 soat, A1+: 4 soat)

Sharq miniatyura sanʼati asarlaridan nusxa koʻchirish.

**13-mavzu:** Oʻzbek xalq ertaklariga ilustratsiya bajarish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oʻzbek halq ertaklari syujetlari asosida miniatyura usulida ilustratsiya ishlash.

**14-mavzu:** Sharq mumtoz adabiyoti syujetlari asosida miniatyura usulida mustaqil kompozitsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Sharq mumtoz adabiyoti syujetlari asosida miniatyura usulida mustaqil kompozitsiya ishlash.

**15-16-mavzu:** Miniatyura ishlash uchun qutilar tayyorlash va kompozitsiya ishlash. (2 soat, A1+: 4 soat)

Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida miniatyura ishlash uchun quticha yasash.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**17-mavzu:** Tasviriy sanʼatda dastgoh rangtasviri. (1 soat, A1+: 2 soat)

Mahobatli rangtasvir usuli haqida maʼlumot berish.

**18-mavzu:** Dastgohli rangtasvir sohasida ijod qilgan buyuk namoyondalar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Mahobatli rangtasvir janrida ijod qilgan rassomlar haqida maʼlumot berish.

**19-mavzu:** Natyurmort kompozitsiyasi. (1 soat, A1+: 2 soat)

Oshxona anjomlaridan tashkil topgan buyumlarni chizish.

**20-mavzu:** Xotirada mazuiy natyurmort ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kompozitsiya bajarish.

**21-22-mavzu:** Rangtasvirda syujetli kartina chizish. (2 soat, A1+: 4 soat)

Ertak, multfilm qahramonlari ishtirokida rasm chizish.

**23-mavzu:** Adabiy asar syujeti asosida mustaqil kompozitsiya ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kompozitsiya yaratish.

**24-25-mavzu:** Tasviriy san'atda manzara janri. (1 soat, A1+: 2 soat)

Maktab yoki uy hovlisini tasvirlash.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**26-mavzu:** Maktab, sinf emblemasini yasash. (1 soat)

Kompozitsiya yaratish.

**27-mavzu:** Tasviriy san'atda tarixiy yoki mifologik janr. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tarixiy asarlarni badiiy idrok qilish.

**28-mavzu:** Tarixiy va mifologik mavzusida portret chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Mavzudan kelib chiqib kompozitsiya yaratish.

**29-mavzu:** Syujetli kartina eskizini chizish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Yordamchi chiziqlardan foydalanib syujetli kartina chizish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**30-mavzu:** Mening san'atim tengdoshlarim nigohida. (1 soat)

Yil davomida tasvirlangan rasmlar ko'rgazmasini o'tkazish.

### **O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi:**

**A2**

naturaning xarakterli jihatlarini badiiy idrok etadi va ifodalay oladi;

tasvirlashda perspektivaning asosiy qonuniyatlarini qo'llay oladi;

naturani tasvirlashda kompozitsiya qoidalariga amal qilgan holda tasvir ishlay oladi;

amaliy va tasviriy san'at turlarini farqlaydi, tahlil qila oladi va eskizini ishlay oladi;

O'zbekiston hamda jahon tasviriy san'at asarlarini tahlil qila oladi;

naturani tasvirlash va ishlashga ijodiy yondasha oladi.

**A2+**

tasviriy san'atning tur va janrlari asosida amaliy ish bajara oladi.

**Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to'g'ri bajarish kompetensiyasi:**

**A2**

O'zbekiston hamda jahon tasviriy san'at asarlarini biladi, tahlil qila oladi va undan ta'sirlana oladi;

tasviriy san'atning janrlari, oqim va yo'nalishlarini farqlay oladi;  
tasvir ishlash bosqichlariga amal qila oladi;  
naturaning asosiy qismi va mayda bo'laklarining o'zaro mutanosibligini farqlay oladi;

tasvirlashda ishlatiladigan yordamchi chiziqlarni to'g'ri qo'llay oladi;  
tasvir ishlashda soya-yorug' qismlarini ajratadi, ish jarayonida qo'llay oladi;  
tasvir ishlash jarayonida asosiy va hosila ranglarni to'g'ri qo'llay oladi;  
plastilin yoki loy bilan ishlash bosqichlarini bajara oladi.

#### **A2+**

O'zbekiston hamda jahon tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qiladi va asar xususiyatini mazmunan ifodalay oladi;

tasviriy san'at asarlarining ifodalilik vositalarini biladi va ularni amalda qo'llay oladi;

amaliy san'atda rangshunoslik qoidalariga amal qila oladi;  
maxsus material va ish qurollaridan foydalana oladi.

**Mavzularni o'rganish uchun – 30 soat (A1+: 60 soat)**

**Nazorat ishlari uchun – 4 soat (A1+: 8 soat)**

**Jami – 34 soat (A1+: 68 soat)**

### **7-SINF**

**34 soat (A1+68 soat), haftasiga 1 soat; (A1+; 2 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a'zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to'g'ri qabul qilish;

muloqotda o'zidan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsata olish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish;

media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish;

topshiriqlarni bajarishda media madaniyatga rioya qilish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

o'zining qiziqishlariga ko'ra qobiliyatlarini namoyon qila olish;

shaxsiy gigiyena va texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

san'at asarlarini tushuna olish va undan zavqlanish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

inson mehnatini yengillashtiradigan, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

**1-2-3-mavzular:** Tasviriy san'atdagi oqim va yo'nalishlarda tur va janrlar. (3 soat, A1+: 6 soat)

Tasviriy san'at janrlari haqida umumiy ma'lumot berish hamda asarlarni badiiy idrok qilish.

**4-mavzu:** Impressionistik rangtasvir. (1 soat, A1+: 2 soat)

Impressionistik rangtasvir asarlarni badiiy idrok etish.

**5-mavzu:** Kubizm uslubida natyurmort ishlash. (1 soat, A1+: 2 soat)

Kubizm usulidagi asarlarni badiiy idrok etish.

**6-7-mavzular:** Tasviriy san'atda ramziy belgi va giraldika. (2 soat, A1+: 4 soat)

Maktab, sinf, mahalla emblemasi namunasida kompozitsiya qilish.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**8-9-mavzu:** "O'zbekistonning amaliy bezak san'atida ramziy shakllar" (2 soat, A1+: 4 soat)

Naqsh chizish bosqichlarida ishtirok etadigan shakllarni chizish.

**10-11-mavzu:** O'zbekiston naqsh ramzlari. (1 soat, A1+: 4 soat)

O'zbekiston amaliy bezak san'ati haqida ma'lumot.

**12-13-mavzu:** Amaliy bezak san'atining obrazli tizimi. (2 soat, A1+: 4 soat)

Amaliy san'at turlari haqida ma'lumot berish.

**14-15-mavzu:** Amaliy bezak san'atida shakl va mazmun. (2 soat, A1+: 4 soat)

Amaliy bezak san'atida shakl va mazmun, dizayn san'ati haqida tushuncha berish, kompozitsiya tasvirlash.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**16-mavzu:** Dizayn san'ati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Dizayn san'ati turlari haqida ma'lumot berish.

**17-18-mavzular:** O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari. (2 soat, A1+: 4 soat)

O'zbekiston amaliy bezak haqida suhbat, hamda mavzu asosida amaliy ish bajarish.

**19-20-21-mavzular:** "Sharq me'morchiligi" mavzusida rasm chizish. (3 soat, A1+: 6 soat)

Me'moriy obidalar, ularning asrlar davomida saqlanib qolganliklari haqida ma'lumot berish.

**22-mavzu:** Men istagan shahar. (1 soat, A1+: 2 soat)

Innovatsion, takomillashgan kelajakdagi shahar mavzusiga kompozitsiya ishlash.

**Nazorat ishi:** (1 soat, A1+: 2 soat)

**23-mavzu:** Me'moriy manzara. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tarixiy me'moriy obidalar ishtirokida kompozitsiya ishlash.

**24-mavzu:** Amaliy bezak namunalarini badiiy idrok etish. (1 soat, A1+: 2 soat)

Miniatyura janri asarlarini tahlil qilish.



**25-mavzu:** Kitobat san'ati. (1 soat)

Tarixiy kitoblarning ("Avesto") kelib chiqishi haqida ma'lumot berish.

**26-27-mavzu:** O'zbekiston kitob grafikasi san'ati. (1 soat, A1+: 2 soat)

Rassom-yozuvchi-noshir, badiiy harf, ilustrasiya ishlash.

**28-mavzu:** Kitobat san'atining badiiy grafik elementlari. (1 soat, A1+: 2 soat)

Tanish bo'lgan syujetli abadiy asar ilustrasiyasini ishlash.

**29-mavzu:** "Kitob ilustrasiyasi". (1 soat, A1+: 2 soat)

Badiiy asarlarga ilustrasiya ishlash.

**30-mavzu:** Kitob maketini yasash. (1 soat)

Ilustrasiya va boshqa badiiy grafik elementlaridan kitob maketini yasash.

## **O'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

### **Kommunikativ kompetensiya:**

#### **A2**

mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya oladi va javob bera oladi;

o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qila oladi,

jamoaviy hamkorlikda ishlay oladi, suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qiladi va unga ishontira oladi;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqara oladi, kelishmovchiliklarga odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildira oladi.

#### **A2+**

tasviriy san'at faniga oid atamalarni xorijiy tillarda ifodalay oladi;

o'z do'stlari bilan san'atga oid atamalar asosida muloqotga kirisha oladi.

zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila oladi.

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo'natish) foydalana oladi;

media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa oladi, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlashda xavfsizlikni ta'minlash va foydalanishda media madaniyatga rioya qila oladi.

#### **A2+**

EXCELda ma'lumotlar bazasini yarata oladi, asosiylarini tanlay oladi va ularni tahlil qila oladi;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay oladi (tavsifnoma, ariza, shaxsiy ma'lumotnoma yozish).

### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'zini-o'zi rivojlantira oladi;

guruhlarda ishlashda mas'uliyatni o'ziga oladi, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladi;

jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intila oladi;  
o'zining qiziqishlariga qarab qobiliyatlarini namoyon qila oladi:  
ongli kasb tanlash, halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlariga ega bo'ladi.

**A2+**

Liderlikka intila oladi, konstitutsion huquq va burchlaridan to'g'ri foydalana oladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

sog'lom e'tiqod va dunyoqarash tushunchalarini biladi;  
jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaydi, Vatan oldidagi mas'uliyatini his qila oladi;

kasblarning mohiyatini tushunib va ongli ravishda tanlay oladi;  
mehnat hamda fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, ekologik, huquqiy madaniyatga rioya qila oladi.

**A2+**

jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaydi, o'z munosabatini bildira oladi;

inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini biladi va unga amal qila oladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2**

xalq hunarmandchiligi yo'nalishlarida ularning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini o'rganadi, avaylab asraydi, an'ana va marosimlarini hurmat qila oladi;  
umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar) biladi va unga hurmat bilan munosabatda bo'la oladi.

**A2+**

milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini biladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2**

mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera oladi;

mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o'sish sur'atlarini bila oladi;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni o'qib foydalana oladi.

**A2+**

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan, san'at va texnika yangiliklaridan xabardor bo'ladi hamda foydalana oladi,

taraqqiyotni isloh qilishning besh tamoyili va yetti ustuvor yo'nalishini sharhlay oladi.

## **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

### **Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi:**

#### **A2**

naturaning xarakterli jihatlarini badiiy idrok etadi va ifodalay oladi;  
tasvirlashda perspektivaning asosiy qonuniyatlarini qo‘llay oladi;  
naturani tasvirlashda kompozitsiya qoidalariga amal qilgan holda tasvir ishlay oladi;

amaliy va tasviriy san‘at turlarini farqlaydi, tahlil qila oladi va eskizini ishlay oladi;

O‘zbekiston hamda jahon tasviriy san‘at asarlarini tahlil qila oladi;  
naturani tasvirlash va ishlashga ijodiy yondasha oladi.

#### **A2+**

naturaning xarakterli jihatlarini badiiy idrok etadi va ifodalay oladi;  
tasvirlashda perspektivaning qonuniyatlaridan foydalana oladi;  
naturani tasvirlashda kompozitsiya qonun va qoidalaridan foydalana oladi;  
O‘zbekiston va jahon tasviriy san‘at asarlarini farqlaydi, idrok etadi va tahlil qila oladi;  
tasviriy san‘atning tur va janrlari asosida amaliy ish bajara oladi.

### **Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi;**

#### **A2**

O‘zbekiston hamda jahon tasviriy san‘at asarlarini biladi, tahlil qila oladi va undan ta’sirlana oladi;

tasviriy san‘atning janrlari, oqim va yo‘nalishlarini farqlay oladi;  
tasvir ishlash bosqichlariga amal qila oladi;  
naturaning asosiy qismi va mayda bo‘laklarining o‘zaro mutanosibligini farqlay oladi;

tasvirlashda ishlatiladigan yordamchi chiziqlarni to‘g‘ri qo‘llay oladi;  
tasvir ishlashda soya-yorug‘ qismlarini ajratadi, ish jarayonida qo‘llay oladi;  
tasvir ishlash jarayonida asosiy va hosila ranglarni to‘g‘ri qo‘llay oladi;  
plastilin yoki loy bilan ishlash bosqichlarini bajara oladi.

#### **A2+**

O‘zbekiston hamda jahon tasviriy san‘at asarlarini badiiy tahlil qiladi va asar xususiyatini mazmunan ifodalay oladi;

tasviriy san‘at asarlarining ifodalilik vositalarini biladi va ularni amalda qo‘llay oladi;

amaliy san‘atda rangshunoslik qoidalariga amal qila oladi;  
maxsus material va ish qurollaridan foydalana oladi.

**Mavzularni o‘rganish uchun – 30 soat (A1+: 60 soat)**

**Nazorat ishlari uchun – 4 soat (A1+: 8 soat)**

**Jami – 34 soat (A1+: 68 soat)**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi PF-3431.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirli va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 140-sonli qarori.

**Umumiy o‘rta ta’limning Tasviriy san’at fanidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy guruhi**

<b>T/r</b>	<b>Ismi va familiyasi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1	A. Sulaymonov	Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI laboratoriya mudiri.
2	S. Bulatov	Nizomiy nomidagi TDPU Kasb ta’limi metodikasi kafedrasida professori, guruh rahbari.
3	R. Xudoyberganov	O‘zbekiston xalq rassomi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn instituti professori.
4	Q. Miraxmedov	Toshkent shahar XTXQTMOI “Tabiiy fanlar” kafedrasining tasviriy san’at va amaliy san’at fani katta o‘qituvchisi

**EKSPERT GURUHI**

1	M. Tolipova	Respublika ta’lim markazi “Musiqqa, san’at, texnologiya, jismoniy komolot va salomatlik” bo‘limi bosh metodisti
2	N. Xaytamova	Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani 187-umumiy o‘rta ta’lim maktabi tasviriy san’at o‘qituvchisi.
3	A. Vapaev	Toshkent viloyati Qibray tumani 14-sonli umumta’lim maktabi tasviriy san’at fani o‘qituvchisi.

**15-§. Musiqa madaniyati fani**  
**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida musiqa madaniyati fanini oʻrganish bosqichlari**

<b>Taʼlim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Standarti darajasi</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy oʻrta taʼlim</b>	Umumtaʼlim maktablarining boshlangʻich 4-sinf bitiruvchilari	<b>A1</b>	Musiqa madaniyati fanini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
	Umumtaʼlim maktablarining 7-sinf bitiruvchilari	<b>A2</b>	Musiqa madaniyati fanini oʻrganishning tayanch darajasi

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida musiqa madaniyati fanini oʻqitishning maqsad va vazifalari**

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida musiqa madaniyati fanini oʻqitishning maqsadi:**

oʻquvchilarning maʼnaviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy gʻurur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini oʻstirish, oʻzbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga oʻrgatishdan iborat.

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida musiqa madaniyati fanini oʻqitishning vazifasi:**

musiqa madaniyati oʻquv fani boʻyicha egallagan bilim, koʻnikma va malakalarni amaliyotda qoʻllash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish va fikr doirasini kengaytirish;

oʻzbek va jahon kompozitorlari asarlarini va turli musiqiy janrlarni bir-biridan farqlay olish, tayanch va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

**Musiqa madaniyati fani boʻyicha umumiy oʻrta taʼlim muassasalari bitiruvchilariga qoʻyiladigan malaka talablari**

**1. Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi**

**A1**

musiqa sanʼat turlaridan biri ekanligini ajrata oladi;  
 milliy musiqa merosi haqida tushunchaga ega boʻladi;  
 oddiy musiqaga oid atamalarni bir-biridan ajrata oladi;  
 musiqaning ifoda vositalaridan (oʻlchov-usullar, dinamik belgilar, repriza va boshqalardan) foydalana oladi.

musiqaning badiiy tavsifini (quvnoq, shoʻx, gʻamgin va boshqalarni) bila oladi.

**A2**

musiqa san'atning qadimiy turi ekanligi, o'zbek xalq musiqasi asrlar davomida sayqal topib, rivojlanganligi, u xalqimizning boy madaniyati, milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirishi va umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagi ekanligini tasavvur qila oladi;

O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va o'ziga xosligini farqlay oladi;

har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblari farqlay oladi;

Farg'ona — Toshkent, Samarqand — Buxoro, Surxondaryo — Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlarini (maqom, doston, katta ashula, folklor musiqasini) va ularning mashhur ijrochilarini bila oladi;

o'zbek musiqasida sahnaviy musiqa asarlari, estrada janri, kino musiqasi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay oladi;

jahon va sharq xalqlari mumtoz musiqa namunalarini bir-biridan farqlay oladi;

orkestr, ansambl va xorga oid oddiy atamalarni farqlay oladi.

## **2. Jamoa bo'lib kuylash kompetensiyasi**

### **A1**

o'rganilgan qo'shiqlarni birgalikda kuylay oladi;

jamoaviy o'rganilgan qo'shiqlarni yakka holda kuylay oladi.

dinamik belgilarga qarab ovozni to'g'ri yo'naltira oladi.

### **A2**

kuylashda dinamik belgilarga amal qiladi, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay oladi;

o'rganilgan qo'shiqlarni sof ohangda kuylay oladi;

kuylash madaniyatiga va mahoratiga ega bo'la oladi;

xorda kuylay oladi.

## **3. Musiqa tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi**

### **A1**

kuyini tinglaydi va unga tavsif bera oladi;

musiqaning tovush tembridan qaysi cholg'uda (zarbli, chertma, damlida) ijro etilganligini topa oladi.

### **A2**

musiqa janrlarining nomlarini ayta oladi va ijro uslubidan ularni farqlay oladi;

o'zbek xalq ommaviy va kasbiy musiqa janrlarining mahalliy uslubdagi sodda variantlarini tinglab ajrata oladi.



**MUSIQA MADANIYATI FANI**  
**O‘QUV DASTURI**  
**(1-7-SINF)**

**UQTIRISH XATI**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishning maqsadi** - o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o‘stirish, o‘zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o‘rgatishdan iborat.

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishning vazifasi** - musiqa madaniyati o‘quv fani bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish va fikr doirasini kengaytirish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablari musiqa madaniyati ta’limida o‘rganiladigan eng oddiy musiqiy tushunchalar, atamalar hamda kompozitorlar, to‘rt asosiy musiqiy uslub haqidagi ma’lumotlarni oddiydan murakkabga qarab o‘rganish;

insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi va kundalik hayotda tutgan o‘rni muhim ahamiyatga ega bo‘lib, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘lashga olib keladigan musiqa sohasidagi tadqiqot yutuqlarini ko‘rsatish;

o‘zbek va jahon kompozitorlari asarlarini va turli musiqiy janrlarni bir-biridan farqlay olish, tayanch va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

O‘quvchilar tasavvurini shakllantirish, mustaqil ishlashga o‘rgatishda musiqa madaniyati ta’limi muhim omil hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining musiqa madaniyati fanida berilgan qo‘shiqlar nota materiallari o‘quvchilarning imkoniyati, ovoz diapazonlari aniq va mukammal rivojlanishini hisobga olgan holda mantiqiy ketma-ketlikda berilgan. Musiqa tinglash, jamoa bo‘lib kuylash, musiqa savodi faoliyat turlarini amalga oshirish bilan birga milliy cholg‘u asboblari, xalq kuyi namunalarini bir-biridan farqlashni o‘rganadilar. Bunda o‘quvchilarda fanga oid umumiy va tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Musiqa tinglash ta’lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash tinglash faoliyatlari vositasi bilan bir qatorda cholg‘uchilik, musiqali harakatlar har tomonlama o‘rganish va o‘zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O‘zbek xalq musiqasi, o‘zbek bastakorlari va kompozitorlarining musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo‘lib kuylash faoliyati o‘quvchilarning musiqa – o‘quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfdan jamoa bo‘lib kuylash jarayonida o‘quvchi o‘z ovoz-ijrosini boshqaradi, o‘rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo‘r bo‘lib kuylashga intiladi.

Musiqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashgʻuloti (tinglash, kuylash, raqs va h.k.) qoʻllanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar oʻrganiladi va uning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochiligi va h.k.) haqida yangi tushunchalar hosil boʻladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat boʻlib qolmay, balki oʻquvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim-tushunchalar majmuasini (musiqa shakllari, janrlari, cholgʻuchilar ijrochiligi, xalq, bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqa, nota savodi va boshq.) singdirib borishdan iborat.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, anʼanalar, templar (surʼat), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minorlari haqida tushuncha beradi.

Ayni bir paytda oʻquvchi dasturiga kiritilmagan, ammo badiiy yuksak, tarbiyaviy jihatdan muhim va oʻquvchilar idrok-amaliyotiga mos boʻlgan yangi asarlardan keng foydalanish huquqiga egadir.

Taʼlim qardosh (qoraqalpoq, qozoq, qirgʻiz, tojik, qirgʻiz, turkman va rus) tillarda olib boriladigan maktablar uchun oʻquv dasturiga oʻzining milliy qadriyatlaridan, madaniy merosidan kelib chiqib, bastakor, kompozitor, milliy cholgʻulari, kuy va qoʻshiqlaridan 30% gacha oʻzgartirish tavsiya etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimning uzluksizligi, uzviyligi, oʻquvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

### **Kommunikativ kompetensiya:**

#### **A1**

musiqa madaniyati faniga oid atamalarni muloqot jarayonida qoʻllay olish;  
tayyorlanadigan buyum koʻrinishini sodda bayon qilish;  
mavzu boʻyicha savollar berish hamda savollarga javob berish;  
muloqotda muomala odobiga rioya qilish, suhbatdoshining fikrini tinglay olish, oʻz fikrini tushuntira bilish, maktabda, koʻchada, uydagi turli vaziyatlarda oʻzini tuta olish muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga rioya qilish;  
olgan bilimlari asosida mustaqil fikr yuritish;  
yasalgan buyumlarga mustaqil ravishda munosabat bildirish mavzudan kelib chiqib savollarni toʻgʻri qoʻya olish va javob berish.

#### **A2**

mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan toʻgʻri qoʻya olish va javob berish;  
oʻzaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda oʻz pozitsiyasini himoya qilish va unga ishonirish;  
turli ziddiyatli vaziyatlarda oʻz ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildirish.

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A1**

musiqa madaniyati faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko‘rish, o‘rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma’lumotlarni o‘rganib borish, media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish, axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish;

fayllarni ochishda media madaniyatga rioya qilish.

## **A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo‘natish) foydalana olish;

media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlashda xavfsizligini ta‘minlash va foydalanishda media madaniyatga rioya qilish.

## **O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

### **A1**

musiqa madaniyati fanini o‘rganish;

amaliy ishni bajarishda tozalikka rioya qilish, kattalarni gapiga quloq tutish, to‘garaklarda fanlarni o‘qib-o‘rganish, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo‘lish;

to‘g‘ri so‘z bo‘lish, o‘rtoqlarining xatosini tushuntirish, kattalarga, kichiklarga, o‘rtoqlariga yordam berish, o‘qib-o‘rganish orqali bilimni oshirib borish;

turli yo‘nalishdagi kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish;

o‘zini xato va kamchiligini to‘g‘ri tushunish, xatolarini tuzatishga harakat qilish, o‘zini nazorat qilish, halollik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlash, yaxshi fazilatlarga rioya qilish.

### **A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘zini-o‘zi rivojlantirish;

guruhlarda ishlashda ma’suliyatni o‘ziga olish, turli muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish.

## **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

### **A1**

o‘zining o‘quvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish, sinfda va oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lish;

o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlari va o‘zidan kichiklarga yordam berish, maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish va muomala madaniyatga amal qilish;

kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish kabi sifatlarga ega bo‘lish, oiladagi o‘z o‘rnini hamda vazifalarini anglay olish;

maktab binosi, sinfdagi jihozlar, mebellarni asrab-avaylash farzandlik va o‘quvchilik burchini bilish, unga amal qilish;

o‘zining yoshiga nisbatan qanday huquqlari borligini bilish, sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash;

maktabda, oilada, turar joyida bo‘layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h.k.) ishtirok etish.

## A2

sogʻlom eʻtiqod va dunyoqarash tushunchalarini bilish;

jamiyatda boʻlayotgan voqea-hodisalarga befarq boʻlmaslik, Vatan oldidagi masʻuliyatni his qilish, kasblarning mohiyatini tushunish va ongli ravishda tanlash, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, ekologik, huquqiy madaniyatiga rioya qilish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### A1

orasta kiyinish va doimo shunga amal qilish, doʻstlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon boʻlish, orasta kiyinish, yurish-turishda kattalardan oʻrnak olish, oʻz uyi, maktabi, turar mahallasini qadrlash;

ozodalikka rioya qilish, milliy bayramlarini bilish, oʻquvchining odob-axloq qoidalari tushunchaga ega boʻlish, oʻzi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarni bilish, sanʻat turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlay olish, sanʻat asarlarini tahlil qilish, maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish, ziyorat qilish odobiga amal qilish, milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy anʻanalar, bayramlar, sayillar) bilish.

#### A2

xalq hunarmandchiligi yoʻnalishlarida ularning tarixiy, maʼnaviy va madaniy merosini oʻrganish, avaylab asrash, anʻana va marosimlarini hurmat qilish;

umumbashariy ahamiyatga ega boʻlgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy anʻanalar) bilish va unga hurmat bilan munosabatda boʻlish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

oilasida nechta odam borligi, kim katta-kim kichikligini bilish, maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish;

kundalik rejalarini tuza olish;

kundalik faoliyatda turli chizmalarni chiza olish, mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish;

isrof va tejankorlikning maʼnosini tushunish va kundalik hayotda unga amal qilish, ehtiyoji uchun kerak boʻlgan narsalardan (oʻquv qurollari, kiyim-kechagi) tejab foydalanish, bir kunlik xarajatlarini hisoblashni bilish;

texnika turlari va ularni qachon paydo boʻlganligini bilish.

#### A2

mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga tutgan oʻrni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera olish, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda oʻsish surʻatlarini bilish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni oʻqiy olish va foydalana olish.

Shuningdek, meʼyoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

## **I. TK-tayanch kompetensiya**

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umuminsoniy kompetensiya
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi

## **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1- Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi.
2. FK2- Jamoa bo‘lib kuylash kompetensiyasi.
3. FK2- Musiqa tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi.

### **1-SINF**

**(haftasiga 1 soatdan, 33 soat (A1))**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish.

#### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalari haqida tushunchaga ega bo‘lish.

#### **O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

musiqa madaniyati fanini o‘rganish, zarbli milliy cholg‘ularimiz haqida tushunchaga ega bo‘lish.

#### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o‘zining o‘quvchilik burchi va vazifalarini bilish.

#### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

orasta kiyinish va doimo shunga amal qilish, do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘lish .

#### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

oilasida nechta odam borligi, nota yo‘lining soni hamda musiqiy tovushlar sonini bilish.

### **MAVZU: BIZ YOQTIRGAN KUY VA QO‘SHIQLAR**

**(9 soat)**

#### **1-2-mavzu: Biz yoqtirgan kuylar. (2 soat)**

**Musiqa tinglash:** “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi”. A.Oripov she’ri, M.Burhonov musiqasi. “Do‘loncha” o‘zbek xalq kuyi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Aziz bo‘ston - O‘zbekiston” P.Mo‘min she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiq savodi:** Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish.

**3-4-mavzu: Milliy cholg‘ular bilan tanishamiz. (2 soat)**

**Musiq tinglash:** “Raqs” o‘zbek xalq kuyni tinglab, kuyga mos qo‘l harakatlarini bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Olma” P.Mo‘min she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiq savodi:** Milliy cholg‘ular – doira va nog‘ora bilan tanishish.

**5-6-mavzu: Tinglaymiz, o‘rganamiz. (2 soat)**

**Musiq tinglash:** “Yurish marshi” F.Nazarov musiqasi. “Marsh” D.Omonullayeva musiqasini tinglab, marsh musiq sadosi ostida harakatlar bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “O‘qishni bilib olsang”, M.Yunusov she‘ri, M.Dadaboyev musiqasi.

**Musiq savodi:** Qanday tovushlarni bilasiz? Shovqinli va musiqiy tovushlar.

**7-8-mavzu: Biz yoqtirgan qo‘shiqlar. (2 soat)**

**Musiq tinglash:** “Andijon polkasi” o‘zbek xalq kuyini tinglab, milliy raqs harakatlarini bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Salom bergan bolalar”, P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiq savodi:** Musiqiy tovushlarni past-balandligini ajratish.

**9-mavzu: Musiqali o‘yinlar (1 soat)**

**Musiq tinglash:** “Oq terakmi, ko‘k terak” X.Qayumov she‘ri, A.Mansurov musiqasini tinglab, bolalar xalq o‘yiniga mos ritmik harakatlarni bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Ayiqqolvonlar bog‘chasi”, H.Muhammad she‘ri, T.Toshmatov musiqasi.

**Musiq savodi:** Nota yo‘li.

## **MAVZU: MUSIQALI RITMIK O‘YINLAR**

**(7 soat)**

**10-11-mavzu: Tinglaymiz, raqsga tushamiz. (2 soat)**

**Musiq tinglash:** “Qari navo” o‘zbek xalq kuyi. “Ufor” o‘zbek xalq kuylarini tinglab, chapak yoki shiqildoq chalib, o‘qituvchi ijrosiga ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Alifbo bayrami”, P.Mo‘min she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiq savodi:** Skripka (sol) kaliti, uning yozilishi, skripka kalitining nota yo‘lidagi joylashuvi.

**12-13-mavzu: Musiqaning sehrli olami. (2 soat)**

**Musiq tinglash:** “Sarbozcha” o‘zbek xalq kuyi. “Polka” X.Izamov musiqasini tinglab, kuyga ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Alifbo bayrami”, P.Mo‘min she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiq savodi:** Shoir, kompozitor, xonanda va sozandalarni farqini bilish.

**14-15-mavzu: Musiqali o‘yinlar va raqslar. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Asp bo‘laman” o‘zbek xalq kuyini tinglab, chapak yordamida raqs harakatlarini bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Birinchii qor” R.Tolib she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Tovushlarning bir-biridan farqini bilish.

**16-mavzu: Dars-konsert.**

## **MAVZU: “MUSIQA OLAMIGA SAYOHAT”**

**(9 soat)**

**17-18-mavzu: Qo‘shiqqlar olamiga sayohat. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Pianino” M.Zaynutdinova she‘ri, J.Najmiddinov musiqasini tinglash, chapak chalib, ritmik jo‘r bo‘lish

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Nevaralar qo‘shig‘i”, S.Barnoyev she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Yetti tovush nomi, ularning ketma-ketligda yuqori va pastga borishi.

**19-20-mavzu: Raqs olamiga sayohat. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Chertmak” xalq kuyini tinglab, shiqildoq chalib, kuyga ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Childirma”, P.Mo‘min she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** tovushlar baland-pastligini zinachalar ifodasida tasvirlash.

**21-22-mavzu: Musiqqa bizning hayotimizda. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Chamanda gul” o‘zbek xalq qo‘shig‘ini tinglash hamda doirachalarda kuyga ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Gullola” M.Odilova she‘ri, I.Akbarov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Do-major tovush qatorida kuylash. Tovushlarning ritmik bo‘linishi va ularning nota vositasida belgilanish.

**23-24-mavzu: Biz sevgan cholg‘ular. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Kapalak”, Z.Diyor she‘ri, S.Boboyev musiqasini tinglash hamda doirachada ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Diloromning qo‘shig‘i”, I.Donish she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Butun nota shakli.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

## **MAVZU: XUSHNAVO MILLIY CHOLG‘ULARIMIZ**

**(8 soat)**

**25-26-mavzu: Musiqqa tovushlari. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Quyoning” o‘zbek xalq o‘yinini tinglash hamda chapak chalib kuyga ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sehrlii dunyo”, X.Axmedova she‘ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Yarim nota.

**27-28-mavzu: Musiqaning sehrli olami. (2 soat)**

**Musiqaning tinglash:** “Boboq xo‘roz”, P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasiga chapak va cholg‘ularda ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Shudring”, Q.Ota she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Chorak notaning yozilishi.

**29-30-mavzu: “Kompozitorlar-bolalarga”. (2 soat)**

**Musiqaning tinglash:** “Lavlagi”, P.Mo‘min she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Bug‘doy”, R.Tolib she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Nimchorak notaning yozilishi. Shoir va kompozitorlar yaratgan kuy-qo‘shiqlar.

**31-mavzu: Dars-konsert.**

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi:**

tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila oladi, doira va nog‘ora milliy cholg‘ularini bir-biridan farqlay oladi, tovushlarni baland-pastligini bir-biridan farqlay oladi, tovushlarning bo‘linishini (butun nota, yarim nota, chorak nota va nimchorak nota) shakli va cho‘zimini biladi. Skripka (sol) kaliti, uning yozilishi va nota yo‘lidagi joylashuvini biladi. Musiqiy asar yaratilishida shoir, kompozitor, xonanda va sozanda kasbiy faoliyatlari haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Notalarning yozilishini bir-biridan ajrata oladi. Yetti tovush nomi, ularning ketma-ketligida kuylay oladi.

**Jamoa bo‘lib kuylash kompetensiyasi:**

turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni sof ohangda kuylay oladi.

**Musiqaning tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi:**

musiqani diqqat bilan tinglay oladi. Musiqaning (zarbli cholg‘ular misolida) tovush tembridan qaysi cholg‘uda ijro etilganini topa oladi. Musiqani diqqat bilan tinglash, dastlabki idrok etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**Mavzularni o‘rganish uchun - 31 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 2 soat**

**Jami - 33 soat**

**2-SINF**

**(haftasiga 1 soatdan, 34 soat (A1))**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

o‘z fikrini og‘zaki bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarga to‘g‘ri javob berish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (audio-video yozuvlarga jo‘r bo‘lib kuylay olish) tinglash faoliyatida foydalana olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**



kuy va uning ifodalari haqida tushunchaga ega bo'lish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

mavsumiy bayram tadbirlarida faol ishtirok etish. O'z oilasi, mahallasi oldidagi burchini bilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

orasta kiyinish, do'stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo'lish, san'at asarlarini tushunish, insonlarga mehr-oqibatli bo'lish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

kim katta, kim kichikligini bilish, turli mashqlar orqali nota yozuviga oid sanoqlarni bilish va amalda qo'llay olish.

## MAVZU: YAKKANAVOZLIK VA JO'RNAVOZLIK

(9 soat)

**1-mavzu: Vatanimizni madh etamiz. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi", A.Oripov she'ri, M.Burhonov musiqasi. Musiqaning jo'rligida cholg'u ijrochiligi imitatsiyasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Vatanjonim-vatanim", P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Qo'shiq aytish qoidalari. Notalarning yozilishi va nomlanishi.

**2-3-mavzu: Musiqaning bizning hayotimizda. (2 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** "Usmoniya" o'zbek xalq kuyini tinglab. Musiqaning jo'rligida cholg'u ijrochiligi imitatsiyasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Vatanjonim-vatanim", P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Shovqinli va musiqiy tovushlar.

**4-5-mavzu: Yakkanavozlik. (2 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** "Qashqarcha" o'zbek xalq kuyiga mos chapakda ritmik jo'r bo'lish.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Maktabim", I.Muslimov she'ri, F.Nazarov musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Yakkanavozlik. Notalarning bo'linishi.

**6-mavzu: Jo'rnavozlik. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** "Sanam uforisi" o'zbek xalq kuyiga mos cholg'ular yoki chapakda ritmik jo'r bo'lish.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Qizaloq", T.Nazarov she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Jo'rnavozlik. Nota yo'lida joylashgan notalar.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**7-8-mavzu: Biz musiqani sevamiz. (2 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** "Ota-onalarga", E.Rahimov she'ri, G'.Qodirov musiqasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Bolalar va g'ozlar", M.Qo'ldoshev she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Shoir, kompozitor, xonanda, sozanda kasblarini bir-biri bilan hamkorlikdagi ishlari haqida ma'lumot.

## **MAVZU: XONANDALAR VA CHOLG'UCHILAR ANSAMBLI** (7 soat)

### **9-10-mavzu: Xonandalar ansambli. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** "Farg'onacha" o'zbek xalq kuyi, "Ufori ganji qorabog'" Xorazm xalq kuyi. Doirachalarda kuyga mos ritmik jo'r bo'lish.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Kitobim qo'limda", P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Notalar cho'ziminig yozilish shakllari va sanog'ini o'rganish.

### **11-12-mavzu: Musiqqa cholg'ulari. "Cholg'uchilar ansambli". (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** "Norim-norim" xalq kuyi. "Xorazm lazgisi" kuyiga mos raqs harakatlarini bajarish.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Yurtim chiroyli", P.Tolib she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** O'zbek xalq cholg'ularini bir-biridan farqlash. Ansambli haqida ma'lumot.

### **Nazorat ishi. (1soat)**

### **13-14-mavzu: Bolalar ansambli. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Bolalar ijrosidagi qish fasli qo'shiqlaridan tinglash hamda kuy-qo'shiqlarga mos raqs harakatlarini bajarish.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Archa bayrami", A.Raxmat she'ri, I.Akbarov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Notali mashqlar kuylash.

## **MAVZU: KUY NIMA? KUYDA NIMALAR IFODALANADI?** (10 soat)

### **15-16-mavzu: "Kuy" haqida tushuncha. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** "Mahallada duv-duv gap" kinofilmidan kuy parchasini tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "O'ynadik, hech to'ymadik", P. Mo'min she'ri, Sh.Yormatov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Takt chizig'i haqida ma'lumot.

### **17-18-mavzu: Kuyda nimalar ifodalanadi? (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** "Shohi so'zana", A. Muhamedov musiqasi. Cholg'u immitatsion ijrosida dinamik vositalarni his qila olish.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "O'ynaylik", A.Raxmat she'ri, I.Akbarov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Usul berib notalarni sanashni o'rganish.

### **19-20-mavzu: Kompozitor Shermet Yormatov ijodi. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Sh.Yormatovning bolalar uchun yozilgan CD yoki DVDDan foydalangan holda qo‘shiqqlarini tinglash. “G‘ildiragim”, T.Bahromov she‘ri, Sh.Yormatov musiqasi. Cholg‘u imitatsion ijro vositasida ritmik hissalarini his qila olish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sog‘lom avlod” qo‘shigi”, T.Bahromov she‘ri, Sh.Yormatov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Shermet Yormatov hayoti va ijodi haqida ma‘lumot.

**21-22-mavzu: Qaytariq belgisi haqida tushuncha. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Gulbahor” o‘zbek xalq kuyi, “Bahor qo‘shig‘i” kuyi I.Akbarov musiqasi. Kuyga mos cholg‘u asboblari (doiracha) jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Buvijonim”, Yu.Suyunov she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “Repriza” qaytarish belgisi haqida ma‘lumot.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**23-mavzu: Tonika haqida tushuncha. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Bog‘larga bahor keldi” (o‘zbek xalq kuyi), “Olmacha anor” o‘zbek xalq kuyi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Navro‘zim-sho‘x sozim” H.Rahmat she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Tonika haqida tushuncha.

## **MAVZU: MUSIQANING IFODA VOSITALARI**

**(8 soat)**

**23-24-mavzu: Musiqaning ifoda vositalari. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Laylak keldi” o‘zbek xalq qo‘shig‘i. Bolalar cholg‘ularida kuyga jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Zag‘izg‘on”, P.Mo‘min she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Tinglangan asarda qo‘llanilgan musiqaning ifoda vositalarini aniqlash.

**25-26-mavzu: Kompozitor Nadim Norxo‘jayev ijodi. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Kompozitorning fortepiano uchun yozgan asarlaridan tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Hakkalar”, N.Orifjonov she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Major va minor tushunchasi.

**27-28-mavzu: Kompozitor Dilorom Omonullayeva ijodi. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** D.Omonullayevaning bolalar uchun yozilgan qo‘shiqqlarni CD yoki DVD vositalari orqali tinglash. Tinglangan qo‘shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Handalak”, P.Mo‘min she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Cholgʻu (gʻijjak, tanbur, afgʻon rubobi) sozlari bilan tanishish.

**29-30-mavzu: Kompozitor Avaz Mansurov ijodi. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Dakan xoʻroz”, P.Moʻmin sheʻri, A.Mansurov musiqasi. Qoʻshiqqa chapakda ritmik joʻr boʻlish.

**Jamoa boʻlib kuylash:** “Muzqaymoq”, H.Qayumov sheʻri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Dirijorlik 2/4 ga. Notaga qarab kuylash.

**Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi:**

yakkanavozlik va joʻrnavozlik ijro turini bilishi, shoir, kompozitor, xonanda, sozandalarning kasbiy faoliyati haqida tushunchalarga ega boʻladi. Takt chizigʻining nota yoʻlida ifodalanish qoidalarini biladi. Tonika, takt chizigʻi, reprizani farqlay oladi. Major va minor tovush qatori haqidagi tushunchalarga ega boʻladi.

**Jamoa boʻlib kuylash kompetensiyasi:**

oʻrganilgan qoʻshiqlarni ohangiga mos, jamoaviy ijroda kuylay oladi. Kuylash jarayonida vatanparvarlikni aks ettiruvchi ifoda vositalarini qoʻllay oladi. Bolalar qoʻshiqlarini sof ohangda kuylay oladi.

**Musiqqa tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi:**

musiqani diqqat bilan tinglab, dastlabki idrok etish koʻnikmalariga ega boʻladi, musiqani qaysi cholgʻuda ijro etilganini topa bilish va ularga ritmik joʻr boʻladi. Tinglagan qoʻshiq va kuyni ohangidan bilib oladi, ularning nomlarini aytib beradi.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**Mavzularni oʻrganish uchun - 30 soat**

**Nazorat ishi uchun - 4 soat**

**Jami - 34 soat**

### 3-SINF

( haftasiga 1 soat, jami 34 soat (A1))

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

oʻz fikrini ogʻzaki bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarga toʻgʻri javob berish, muloqotda muomala odobiga rioya qilish

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (audio-video yozuvlarga joʻr boʻlib kuylay olish) tinglash faoliyatida foydalana olish.

**Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**

kattalarni gapiga quloq tutish, musiqqa ifoda vositalarini tushunish va amalda koʻrsata olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o‘z oilasi, mahallasi oldidagi burchini bilish, o‘rtoqlari va o‘zidan kichiklarga yordam berish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

badiiy va san‘at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish, Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo‘lish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish, nota yozuviga oid sanoqlarni bilish va amalda qo‘llay olish.

## MAVZU: MUSIQANING TUZILISHI

(9 soat)

**1-mavzu: Vatanimizni madh etamiz. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi, A.Oripov she’ri, M. Burhonov musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi, A.Oripov she’ri, M. Burhonov musiqasi.

**Musiqaning savodxonlik:** Aytim mashqlar va qo‘shiqlarni o‘qituvchi ovozigacha ergashib kuylash, Do-major va Iya-minor tovush qatorlarini 2/4 o‘lchovida dirijorlik qilib kuylash.

**2-mavzu: Bastakor Rustam Abdullayev ijodi. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** R.Abdullayev bolalar uchun yozilgan CD yoki DVD qo‘shiqlardan tinglash. “Ko‘ylagim”, P. Mo‘min she’ri, D. Zokirov musiqasiga ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Qo‘zichog‘im”, I.Sulaymon she’ri, R.Abdullayev musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Dirijorlik harakatlari 2/4 o‘lchovida mashq bajarish.

**3-4 mavzu: Raqs haqida. (2 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** “Dilxiroj” o‘zbek xalq kuyi. “Dilxiroj” kuyiga mos raqs elementlarini bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Salom maktab”, E. Rahimov she’ri, J. Najmiddinov musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Dirijorlik harakatlari 3/4 o‘lchovida mashq bajarish.

**5-6 mavzu: “Pauza” haqida. (2 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** “Bolalar uchun vals”, Uchqun she’ri, D. Zokirov musiqasi. Vals kuyiga mos harakatlarni o‘rganish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Diyor madhi”, H. Rahmat she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Butun va yarimtalik pauzalar.

**7-mavzu: Musiqaning ifoda vositalari. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** “Ufor III” o‘zbek xalq kuyi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Kakku”, To‘lqin she’ri, I. Hamroyev musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Chorak va nimchorak pauzalar.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

### **8-mavzu: Kompozitor Farxod Alimov. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Farhod Alimov bolalar uchun yozilgan CD yoki DVD qo‘shiqlardan tinglash. Tinglangan qo‘shiqqa mos ritmik harakat bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Oppoq qandim”, P.Mo‘min she‘ri. F.Alimov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** 6/8 o‘lchovida berilgan mashqni kuylash. F. Alimov hayoti haqida tushunchaga ega bo‘lish.

## **MAVZU: ANSAMBL VA UNING TURLARI. XOR VA ORKESTR (7 soat)**

### **9-10-mavzu: Cholg‘uchilar ansambli. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** CD yoki DVD yordamida cholg‘uchilar ansambli ijrosida kuylardan tinglash. Cholg‘uchilar ansambli ijrosidagi kuyga mos ritmik harakatlar bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Soat qo‘shig‘i”, R. Tolib she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Notalarning o‘lchovini topish.

### **11-mavzu: Xor. A kapella. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “O‘zbekiston kemasi”, Yong‘in Mirzo she‘ri, I. Hamroyev musiqasi. Qo‘shiqqa mos ritmik harakatlar bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Laylak” (A kapella), Uyg‘un she‘ri, G‘ Qodirov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “Tinglang va toping” kuy parchalarini nota nomi bilan kuylash.

### **12-mavzu: Orkestr. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Shodiyona”, G‘. Qo‘chqorov musiqasi. Tinglangan musiqaga chapak chalib jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Archa bayrami”, P. Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Tinglangan musiqani qanday cholg‘ularda chalinganligini aniqlash.

### **Nazorat ishi. (1 soat)**

### **13-14-mavzu: Major va minor. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Zafar”, O‘zbek xalq kuyi. Kuyiga mos ritmik harakatlar bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Quvnoq bolalar qo‘shig‘i”, Xurshid Qayumov she‘ri, G‘afur Qodirov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Major va minor tuzilmasida notali mashq kuylash.

## **MAVZU: MUSIQANING IFODA VOSITALARI (10 soat)**

**15-16-mavzu: Notalarning joylanishi. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Qor”, Zulfiya she’ri, Sh. Yormatov musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Yosh askarlar qo‘shig‘i”, S. Barnoyev she’ri, Sh. Yormatov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Uchtovushlik haqida tushuncha.

**17-mavzu: Ton va yarim ton. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Samoii dugoh” o‘zbek xalq kuyi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Boychechagim omonlik”, Qambar Ota she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Ton va yarim ton haqida tushunchaga ega bo‘lish.

**18-mavzu: Kompozitor Habibullo Rahimov haqida. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Tom boshida qizg‘aldoq”, N. Narzullayev she’ri, H. Rahimov musiqasi. Qo‘shiqqa mos raqs harakatlarni bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Boychechagim omonlik”, Qambar Ota she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Notalardan ton va yarim tonlik tuzish.

**19-20-mavzu: Alteratsiya belgilari tushunchasi. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Lolacha” o‘zbek xalq kuyi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Shirin-shirin”, I.Jiyanov she’ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Alteratsiya belgilari haqida tushuncha.

**21-22-mavzu: Dinamik belgilar. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Bahor valsii”, M. Mirzayev musiqasi. Vals harakatlarini bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Navro‘zim” Sh. Qurbon she’ri, D. Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Dinamik belgilar haqida tushuncha.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**23-mavzu: Takrorlash. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Turkman eshvoyii” o‘zbek xalq kuyi. “Raqs” o‘zbek xalq kuyiga mos raqs harakatlarini bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sumalak – eng kerak”, P.Mo‘min she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Yarim nota cho‘zimidagi kichik mashqlar kuylash.

**MAVZU: ODDIY MUSIQA SHAKLLARI. BAND VA NAQAROT  
(8 soat)**

**24-25-mavzu: Band va naqarot. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Hoy, lola” o‘zbek xalq kuyi, E.Shukrullayev qayta ishlagan. Kuyga mos raqs harakatlarni bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Lola”, I.Muslim she’ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Band va naqarot haqida tushuncha.

**26-mavzu: Minor uchtovushligi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Humo qushim”, B.Umidjonov musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Svetofor”, Safo Ochil she‘ri. S.Nurmetov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Minor uchtovushligini tuzish.

**27-mavzu: Repriza musiqqa asarining o‘zgarma qaytarilishi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Polka”, M.Glinka musiqasi. Kuyiga mos raqs xarakatlarini bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sho‘x qizaloq”,, P.Mo‘min she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Berilgan kuyda reprizani aniqlash.

**28-29-mavzu: Rus kompozitori P.I.Chaykovskiy. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Yog‘och askarchalar marshi”, P.Chaykovskiy musiqasi. Kuyga chapak chalib ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Bobom ulug‘ yoshida”, E.Rahimov she‘ri, G‘.Qodirov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Oddiy musiqqa shakllarini bir-biridan farqlash.

**30-mavzu: Dars-konsert.**

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi:**

ikki chorakli o‘lchov va uch chorakli o‘lchov dirijorlik harakatlarini bajara oladi va farqlay oladi. Pauzlar haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi va ularni bir-biridan farqlay oladi. Ton va yarim ton tushunchasiga ega bo‘ladi. Dinamik belgilarni biladi, Major va minor uchtovushligi va tovush qatorini nota yozuviga qarab kuylay oladi va ularni lad ohangiga qarab ajrata oladi. Kuylanadigan qo‘shiqlarning ohangiga qarab ladini aniqlay oladi. Alteratsiya belgilarini (diez, bemol, bekar) biladi.

**Jamoa bo‘lib kuylash kompetensiyasi:**

turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni sof ohangda kuylash, turli dinamik belgilarida artikulyatsiya apparatini faol va to‘g‘ri ishlatish, qo‘shiqlar so‘z ma‘nolarini tushunib, ifodali kuylay olish layoqatiga ega bo‘lish.

**Musiqqa tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi:**

musiqani diqqat bilan tinglab, idrok etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi, tovush tembridan cholg‘ularni ajrata oladi.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**Mavzularni o‘rganish uchun - 30 soat**

**Nazorat ishi uchun - 4 soat**

**Jami - 34 soat**

**4-SINF**

**(haftasiga 1 soat, jami 34 soat (A1))**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**



o‘z fikrini og‘zaki va yozma bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarga to‘g‘ri javob beradi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (audio-video yozuvlarga jo‘r bo‘lib kuylay olish) tinglash faoliyatida foydalana olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

o‘qib-o‘rganish orqali bilimni oshirib borish, mustaqil ravishda xalq aytimlarini ijro eta olish va cholg‘ularni farqlay olish. Bayram va marosim qo‘shiqlari xususida tushunchalarga ega bo‘lish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o‘z oilasi, mahallasi, Vatan oldidagi burchini bilish, sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash; maktabda, oilada, turar joyida bo‘layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h.k.) ishtirok etish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

milliy bayramlarini bilish, o‘quvchining odob-axloq qoidalari tushunchaga ega bo‘lish, badiiy va san‘at asarlarini tushunish, ta‘sirlana olish, Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo‘lish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

kundalik rejalarini tuza olish, 4/4 o‘lchoviga dirijorlik harakatini bajarish sanoqlarni bilish va amalda qo‘llay olish.

## MAVZU: XALQ AYTIMLARI VA CHOLG‘ULARI

(9 soat)

**1-2-mavzu: Xalq qo‘shiqlari. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Tomdan tarasha tushdi” qo‘shig‘i. “Oh, layli” o‘zbek xalq qo‘shig‘iga mos ritmik harakatlarni bajarish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Shaftoliga savolim”, P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Qo‘shiq nima? Oddiy musiqqa shakllarini eslash. Band shakli.

**3-mavzu: Mehnat qo‘shiqlari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Xo‘p hayda”, “Urchuq” kuylari. “Jiyda”, P.Po‘latov she‘ri, X.Po‘latov musiqasiga mos chapak chalib, ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Bolalik”, Dilnur she‘ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Do-major tonalligi haqida tushuncha.

**4-mavzu: Lapar. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Bolalar uchun yozilgan “Lapar” qo‘shiqlardan SD yoki DVD disklarda tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Bizdan sizga kim kerak?”, Ya. Qurbonov she‘ri, M.Nasimov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** 3/8 o‘lchovi haqida tushuncha.

**5-mavzu: Yalla. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Yallama yorim” o‘zbek xalq yallasini tinglab, chapak chalib ritmik jo‘r bo‘lish.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Bizdan sizga kim kerak?”, Ya. Qurbonov she‘ri, M.Nasimov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Nuqtali nota haqida tushuncha.

**6-7-mavzu: O‘zbek xalq cholg‘ulari. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Ajam II” (taronasi) an‘anaviy cholg‘u kuylari yozilgan SD yoki DVD diskalaridan foydalanib, kuylar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Maktab”, K.Turdieva she‘ri, J.Abdurahmonov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Torli o‘zbek xalq cholg‘ulari haqida tushunchaga ega bo‘lish.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**8-mavzu: Damli va zarbli cholg‘ular. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Damli va zarbli cholg‘ular ijrosida kuylar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Maktab”, K.Turdiyeva she‘ri, J.Abduraxmonov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Minor tovush qatori.

## **MAVZU: BAYRAM VA MAROSIM QO‘SHIQLARI**

**(7 soat)**

**9-mavzu: Bayram va marosim qo‘shiqlari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Charx-II” o‘zbek xalq kuyi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Yaxshi bola”, P. Mo‘min she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi. Ovoz sozlash mashqlarini bajarish.

**Musiqqa savodi:** “Charx” nomli kuyni tinglash va uni tavsiflashga o‘rganish.

**10-11-mavzu: To‘y marosim qo‘shiqlari. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Surnay navosi”, “Yor-yor”lardan namunalar.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Yaxshi bola”, P. Mo‘min she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Imomjon Ikromovning “Vatan mehri” qo‘shig‘iga 4/4 o‘lchoviga dirijorlik harakatini bajarish, sol major va mi minor.

**12-mavzu: Xalq raqslari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Turli millat kuylaridan namunalar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Kulcha non”, P. Mo‘min she‘ri, I.Hamroyev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Xalq raqslari haqida tushuncha. Berilgan kuy parchalarida notalarni nomlarini o‘qish.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**13-14-mavzu: “Alla aytimlari”. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Alla” o‘zbek xalq ijodi, “Alla” V. Motsart musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Oyijonim allasi”, T.Mahmudov she‘ri, F.Alimov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Sol major tonalligi.

## **MAVZU: MAVSUM VA MAROSIM QO'SHIQLARI** **(10 soat)**

**15-mavzu: Mavsum va marosim qo'shiqlari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** "Qorbo'ron", A.Mansurov musiqasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Biz askarmiz", I.Rahmon she'ri. N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** "Biz askarmiz" qo'shig'ini 4/4 o'lchoviga dirijorlik qilib mashq kuylash.

**16-17-mavzu: Qish fasli qo'shiqlari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** "Sovuq kimni izlaydi", P.Mo'min she'ri. N.Norxo'jayev musiqasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Biz askarmiz", I.Rahmon she'ri. N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** "Qari navo" kuyini 2/4 o'lchoviga dirijorlik qilib, notalar asosida kuylash.

**18-19-mavzu: To'xtasin Jalilov hayoti va ijodi (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** T.Jalilov asarlaridan "Signal" kuyi SD yoki DVD disklarda parcha tinglash. "Mirzadavlat" an'anaviy cholg'u kuyi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Navbahor", N.Narzullayev she'ri, G.Qo'chqorova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** To'xtasin Jalilov hayoti va ijodi bilan tanishish.

**20-21-mavzu: Ramazon marosimi ayimlari. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** "Ramazon" ayimlaridan namunalar tinglash. "Nisholda" qo'shig'i R. Tolipov she'ri, D. Omonullayeva musiqasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Onajonim sog' bo'ling", M. Dadaboev she'ri va musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Berilgan nota yo'lga takt o'lchoviga mos nota tayoqchalarini (shtil) qo'yish mashqi.

**Nazorat ishi, (1 soat)**

**22-23-mavzu: "Navro'z" bayrami qo'shiqlari. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** "Navro'zi ajam" o'zbek xalq kuyi. "Boychechak" o'zbek xalq qo'shig'i (turli namunalarini tinglash).

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Navro'z" qo'shig'i, N.Narzullayev she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Fa-major tonalligi.

## **MAVZU: BAHOR FASLIGA OID QO'SHIQLAR** **(8 soat)**

**24-mavzu: Bahor fasli qo'shiqlari. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** “Bahor keldi” va “Lola” o‘zbek xalq qo‘shig‘i.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Boychechagim omonlik”, Qambar Ota she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Re-major tonalligi.

**25-26-mavzu: Bolalar xalq qo‘shiqlari (2soat)**

**Musiqaning tinglashi:** “Yomg‘ir yog‘aloq” o‘zbek xalq qo‘shig‘i.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Vatan”, X.Rahmat she‘ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Re-major tonalligida notali mashq kuylash.

**27-mavzu: Bastakor Komiljon Jabborov haqida. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** “Diyorimsan”, Habibiy so‘zi, K.Jabborov musiqasi, bolalar uchun yozilgan SD yoki DVD qo‘shiqlardan tinglash

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Ko‘klam keladi”, P.Mo‘min she‘ri, Sh.Yormatov musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Kichik notali mashqlarni dirijorlik qilib kuylash.

**28-mavzu: Bahor elchilari va tabiat. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** “Arg‘amchi” o‘zbek xalq qo‘shig‘i, “Qichqir xo‘rozim” xalq qo‘shig‘i.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Ko‘klam keladi”, P.Mo‘min she‘ri, Sh.Yormatov musiqasi. “Bulbulcha”, M.Qo‘chqorov she‘ri, M. Nasimov musiqasi

**Musiqaning savodi:** “Bulbulcha” qo‘shig‘ini notalar bilan kuylash.

**29-mavzu: Bastakor Faxriddin Sodiqov haqida. (2 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** “Qorabayir”, A.Po‘lat she‘ri, F.Sodiqov musiqasi Bastakorning bolalar uchun yozilgan D yoki DVD qo‘shiqlardan tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Yoz yaxshi”, P.Mo‘min she‘ri, D.Zokirov musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Nota bilan kuylash.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi:**

qo‘shiq haqida tushunchaga ega bo‘ladi, oddiy musiqaning shakllarni biladi, band shaklini farqlay oladi, o‘zbek xalq cholg‘ularidan torli, damli va zarbli cholg‘ularni bir-biridan farqlay oladi, xalq raqslarini bir-biridan farqlay oladi, berilgan kuy parchalarida notalarni nomlarini o‘qiy oladi, sol major tonalligi haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Berilgan nota yo‘liga takt o‘lchoviga mos nota tayoqchalarini (shtil) qo‘ya oladi.

**Jamoa bo‘lib kuylash kompetensiyasi:**

turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni sof ohangda kuylaydi, ramazon marosim aytimlari, navro‘z bayram qo‘shiqlarini sof ohangda kuylay oladi, turli dinamik belgilarida artikulyatsiya apparatini faol va to‘g‘ri ishlatadi; qo‘shiqlar so‘z ma’nolarini tushunib, ifodali kuylash layoqatiga ega bo‘ladi.

**Musiqaning tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi:**

musiqani diqqat-e’tibor bilan tinglab, o‘zbek xalq torli cholg‘ulari damli va zarbli cholg‘u kuylarini bir-biridan farqlay oladi. Mavsumiy, marosim qo‘shiqlari, alla aytimlari, marsh qo‘shiqlarini xalq raqslari uchun ijro etiladigan kuylarni bir-biridan ajarata oladi, bir-biridan farqini biladi.

## **O'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

### **A1**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

o'z fikrini og'zaki va yozma bayon qila oladi, mavzudan kelib chiqib savollarga to'g'ri javob beradi, muloqotda muomala odobiga rioya qiladi.

#### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalari haqida tushunchaga ega bo'ladi, mavjud axborot manbalaridan (audio-video yozuvlarga jo'r bo'lib kuylay oladi) tinglash faoliyatida foydalana oladi.

#### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

musiqa madaniyati fanini o'rganadi, zarbli milliy cholg'ularimiz haqida tushunchaga ega bo'ladi, kuy va uning ifodalari haqida tushunchaga ega bo'ladi, kattalarni gapiga quloq tutadi, musiqa ifoda vositalarini tushunadi va amalda ko'rsata oladi, o'qib-o'rganish orqali bilimini oshirib boradi, mustaqil ravishda xalq aytimlarini ijro eta oladi va cholg'ularni farqlay oladi. Bayram va marosim qo'shiqlari xususida tushunchalarga ega bo'ladi.

#### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o'zining o'quvchilik burchi va vazifalarini biladi, mavsumiy bayram tadbirlarida faol ishtirok etadi. O'z oilasi, mahallasi, Vatan oldidagi burchini biladi, o'rtoqlari va o'zidan kichiklarga yordam beradi, sinfdagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash; maktabda, oilada, turar joyida bo'layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h.k.) ishtirok etadi.

#### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

orasta kiyinish, do'stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo'ladi, badiiy va san'at asarlarini tushunadi, ta'sirlana oladi, Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli bo'ladi.

#### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

oilasida nechta odam borligi, nota yo'lining soni hamda musiqiy tovushlar sonini biladi, kim katta, kim kichikligini biladi, turli mashqlar orqali nota yozuviga oid sanoqlarni biladi va amalda qo'llay oladi, maktabga kelib ketadigan vaqtni biladi, nota yozuviga oid sanoqlarni bilish va amalda qo'llay oladi, kundalik rejalarini tuza oladi, 4/4 o'lchoviga dirijorlik harakatini bajarish sanoqlarini biladi va amalda qo'llay oladi.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**Mavzularni o'rganish uchun - 30 soat**

**Nazorat ishi uchun - 4 soat**

**Jami - 34 soat**

### **5-SINF**

**(haftasiga 1 soat, jami 34 soat( A2))**

## **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

jamo'a bilan munosabatlarda jamoa fikrini qo'llab-quvvatlash, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo'natish) foydalana olish;

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

o'qib-o'rganish uchun fan to'garigiga qatnashish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o'z oilasi, mahallasi, Vatan oldidagi burchini bilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

madaniy-axloqiy me'yorlarga amal qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

musiqaga oid ijtimoiy munosabatlarda o'zlashtirgan bilimlarini (ritm, metr, o'lchov, tovushlar oralig'i va balandligi) qo'llagan holda fikr bildirish, turli chizmalardan foydalanish.

**MAVZU: O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRI. XOR  
SAN'ATI  
(9 soat)**

**1-mavzu: Orkestr. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va uning damli cholg'ular guruhi. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi", A.Oripov she'ri, M. Burhonov musiqasi.

**Jamoaga bo'lib kuylash:** "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi", A.Oripov she'ri, M. Burhonov musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Musiqiy (shovqinli va musiqiy) tovushlar haqida, tovushlarning nota chizig'i va cholg'u asboblari klaviaturalarida joylashuvi.

**2-mavzu: O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining torli-urma va mizrobli cholg'ular guruhi. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** Mizrobli cholg'ular ijrosidagi kuy namunalaridan tinglash. "Poema", M. Bafoev musiqasi.

**Jamoaga bo'lib kuylash:** "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi", A. Oripov she'ri, M. Burhonov musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Musiqada kalitlar (sol va fa kalitlari).

**3-mavzu: O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining zarbli cholg'ular guruhi. (1 soat)**

**Musiqaning tinglashi:** "Sevinch", T. Qurbonov musiqasi.

**Jamoaga bo'lib kuylash:** "Aziz ustozlar", To'lqin she'ri, S. Boboyev musiqasi.

**Musiqaning savodi:** Nota cho'zimlari va ularning yozilishi.

**4-mavzu: O‘zbek xalq cholg‘ulari. Orkestrining torli-kamonli cholg‘uchilar guruhi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Shodiyona”, F. Alimov musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Aziz ustozlar”, To‘lqin she‘ri, S.Boboyev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Tovushqator va oktavalalar.

**5-mavzu: Xor san‘ati. Xor ijrosi uchun xalq qo‘shiqclarini moslashtirish. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “O‘zganча”, B. Umidjonov musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Boychechak” o‘zbek xalq qo‘shig‘i, Sh. Yormatov bolalar xori uchun qayta ishlagan.

**Musiqqa savodi:** Ton va yarim tonliklar.

**6-mavzu: Xor uchun professional janrda ijod qilish. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Childirma chalay”, G‘.Komilov she‘ri, D.Omonullaev musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Boychechak” o‘zbek xalq qo‘shig‘i, Sh.Yormatov bolalar xori uchun qayta ishlagan.

**Musiqqa savodi:** Musiqada lad va tonallik haqida tushunchalar.

**7-mavzu: Xor jamoalarining tuzilishi va turlari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Alla” xotin-qizlar xori uchun, “Oq kaptar” bolalar xori uchun B.Umidjonov musiqalari.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Dovyuraklar kerak”, P.Mo‘min she‘ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Musiqada alteratsiya belgilari.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**8-mavzu: Xalq cholg‘ulari. Orkestri va xor uchun O‘zbekiston kompozitorlar ijodining ahamiyati. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Naqshlar” M. Bafoyev musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Dovyuraklar kerak”, P.Mo‘min she‘ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Partitura va klavirlar.

## **MAVZU: SIMFONIK ORKESTR. MUSIQADA VOKAL – SIMFONIK JANRLARI**

**(7 soat)**

**9-mavzu: Simfonik orkestr va uning torli–kamonli cholg‘ular guruhi (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Simfonik orkestr ijrosidagi asarlardan tinglash. “To‘yona”, To‘lqin Qurbonov, “Muxammas va ufor”, M.Mahmudov musiqalari.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Oltin kuz qo‘shig‘i”, N.Narzullayev she‘ri. A.Mansurov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Musiqada dinamik belgilar. (krischendo va diminuendo).

**10-mavzu: Simfonik orkestrning yog‘och va mis damli cholg‘ular guruhi. (1 soat)**

**Musiq a tinglash:** M.Tojiyevning 3-simfoniyasidan parchalar tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Oltin kuz", N.Narzullayev she'ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiq a savodi:** Nota cho'zimlarini uzaytiruvchi belgilari.

**11-mavzu: Simfonik orkestrning zarbli cholg'ular guruhi. (1 soat)**

**Musiq a tinglash:** "Navro'z bayramiga", A.Mansurov musiqasi (uvertyura).

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Chumoli", R.Is'hoqov she'ri, A.Rasulov musiqasi.

**Musiq a savodi:** Musiqada pauzalar.

**12-mavzu: Musiqada vokal – simfonik janrlar. (1 soat)**

**Musiq a tinglash:** "Maktabjonim – oftobjon", G'. Qodirovning vokal-simfonik kanatasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "O'zbekistonim", F.Shoismoil she'ri, Sh.Ramazonov musiqasi.

**Musiq a savodi:** Intervallar haqida tushuncha. Sof, katta va kichik intervallar.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**13-14-mavzu: Qasida janri, Kanata va oratoriyalar. (2 soat)**

**Musiq a tinglash:** M.Burhonov A. Oripov she'riy librettosiga yozgan "A.Navoiyga qasida" asaridan parcha tinglash. M. Boboyevning "Buxoro haqida" oratoriyasidan parchalar.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Oppoq qish – ey, oppoq qish", P.Mo'min she'ri, A. Varelas musiqasi.

**Musiq a savodi:** Musiqada qaytarish va tinish belgilari. Fermata va volta belgisi.

**MAVZU: SAHNAVIY MUSIQA ASARLARI – BALET VA RAQS  
SAN'ATI, MUSIQALI DRAMA VA KOMEDIYA, BOLALAR UCHUN  
MUSIQALI ERTAK – TOMOSHALAR  
(10 soat)**

**15-mavzu: Sahnaviy musiq a asarlari. (1 soat)**

**Musiq a tinglash:** J.Verdi "Otello" operasidan parchalar, P.Chaykovskiyning "Oqqush ko'li" baletidan parchalar.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Chegarachilar qo'shig'i", Q.Ota she'ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiq a savodi:** Ritm (usul).

**16-mavzu: Balet san'ati .O'zbek baletlari. (1 soat)**

**Musiq a tinglash:** U.Musayevning "To'maris", A.Mansurovning "Sharq afsonasi" baletidan parchalar.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Chegarachi qo'shig'i", Q. Ota she'ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiq a savodi:** Takt va takt chizig'i.

**17-mavzu: O'zbek raqs san'ati. (1 soat)**

**Musiq a tinglash:** M.Mirzayevning "Bahor vals" asarini va boshqa raqs kuylari.



**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sumalak”, T. Bahromov she‘ri, Sh. Yormatov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Musiqada o‘lchovlar.

**18-mavzu: Musiqali drama. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** musiqali dramalardan namuna tinglash. (Tohir va Zuhra)

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sumalak”, T. Bahromov she‘ri, Sh. Yormatov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Nota cho‘zimlarini taktlarga bo‘lish.

**19-mavzu: To‘xtasin Jalilovning asarlari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Tohir va Zuhra” musiqali drama, “To‘ylar muborak” va “Otmagay tong” qo‘shiqlari.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Varrak”, U. Abduazimova she‘ri, I. Yo‘ldosheva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Dirijorlik san‘ati.

**20-mavzu: Musiqali komediya. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Toshbolta oshiq” musiqali komediyasidan parchalar.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Navro‘z”, K. Turdieva she‘ri, N. Qurbonova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** 2/4 o‘lchovida dirijorlik.

**21-mavzu: U. Hojibekovning “Arshin mol – olon” musiqali komediyasi dunyo xalqlari san‘atida tutgan o‘rni va ahamiyati. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** U. Hojibekovning “Arshin mol–olon” musiqali komediyasidan parchalar.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sumalak” A. Obidjon she‘ri, X. Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** 3/4 o‘lchovida dirijorlik.

**22-mavzu: O‘zbek kompozitorlari va ularning ijodi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Fotima va Zuhra”, F. Alimov musiqasi va boshqa dramasidan parchalar.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sumalak”, A. Obidjon she‘ri, X. Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** 4/4 o‘lchovida dirijorlik.

**Musiqqa savodi:** Dirijorlik mashqlarini bajarish.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**23-mavzu: Respublika teatrlarida bolalar uchun yaratilgan asarlar haqida. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** A. Nabiyevning “Fotimaning sarguzashtlari” musiqali asar kuy-qo‘shiqlaridan namunalar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Barkamol avlod”, I. Mirzo she‘ri, I. Yo‘ldosheva musiqasi

**Musiqqa savodi:** Dirijorlik mashqlarini bajarish.

## **MAVZU: OPERA SAN‘ATI. O‘ZBEK MUSIQASIDA OPERA JANRI” (8 soat)**

**24-mavzu: Opera san‘ati. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** M.Glinkaning “Ruslan va Lyudmila” operasidan uvertyura va parchalar.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Gullar”, Fotima va Zuxra Ziyomuxamedovalar she‘ri va musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “Ruslan va Lyudmila” operasidan kuy parchasidan dirijorlik qilish.

**25-mavzu: Jahon opera san‘atida J.Verdi ijodining o‘rni va ahamiyati. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** J.Verding “Aida” va “Rigoletto” operalaridan parchalar.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Gullar”, Fotima va Zuxra Ziyomuxamedova she‘ri va musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Re minor tonalligida ovoz sozlash.

**26-mavzu: V. Mosart, J. Bize, P. Chaykovskiy, N. Rimskiy-Korsakov kabi dunyo tan olgan kompozitorlarning operalari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Sehrlil nay”, “Karmen” operalari

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Oymomajon rom bo‘ldi”, Q.Muhammadiy she‘ri, Sh.Yormatov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “Hayvonlar sultoni” operasida “Bo‘ri xirgoyisi”ni 4/4 o‘lchovida dirijorlik qilib, notalarini kuylang.

**27-mavzu: O‘zbek musiqasida opera janri. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Dilorom” operasidan, ariya va duetlar.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Oymomajon rom bo‘ldi”, Q.Muhammadiy she‘ri, Sh.Yormatov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Hayvonlar sultoni operasida “Tulki xirgoyisi”ni 4/4 o‘lchovida dirijorlik qilib, notalarini kuylang.

**28-mavzu: Kompozitorlar M.Ashrafiy va S. Yudakov ijodi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** M. Ashrafiyning “Dilorom”, S.Yudakovning “Maysaraning ishi” operalaridan parchalar.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Quyosh bilan suhbat”, H.Qayumov she‘ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Major va minor ladlarini kuylarda aniqlash.

**29-30-mavzu: Bolalar uchun operalar. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Hayvonlar sultoni” operasi. A.Mansurov musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Quyosh bilan suhbat”, H.Qayumov she‘ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “Zavqing soch, qaldirg‘och” qo‘shig‘iga dirijorlik qilib, 4/4 o‘lchovida kuylash.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi:**

tovushlar baland-pastligi, harakatlanishining nota yozuvda ifodalanishini biladi, nota cho‘zimlari va ularning yozilishini biladi, oktavalarnomlanishi va ko‘rinishini biladi. Ton va yarim tonliklarni bir-biridan farqlay oladi, musiqada lad va tonallik haqida tushunchalarga ega bo‘ladi, alteratsiya belgilari vazifalarini

biladi, partitura va klavirlarni farqlay oladi. Simfonik orkestr tarkibi haqida tushunchaga ega bo‘ladi, musiqada dinamik belgilar (krischendo va diminuendo), pauzalar va uzaytiruvchi belgilar haqida ma’lumotlarni biladi hamda musiqiy faoliyatda qo‘llay oladi, intervallar haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Tovushlar baland-pastligi, harakatlanishining nota yozuvida ifodalanishini biladi, ritm (usul), takt va takt chizig‘i, o‘lchovlarni biladi hamda dirijorlik san’ati haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. 2/4, 3/4 hamda 4/4 o‘lchovlarida dirijorlik harakatlarini bajarish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladi.

**Jamoa bo‘lib kuylash kompetensiyasi:**

turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni sof ohangda kuylaydi, turli dinamik belgilarida artikulyatsiya apparatini faol va to‘g‘ri ishlatadi; qo‘shiqlar so‘z ma’nolarini tushunib, ifodali kuylay olish layoqatiga ega bo‘ladi.

**Musiqqa tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi:**

musiqani diqqat bilan tinglab, idrok etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi, tovush tembridan cholg‘ularni ajrata oladi, o‘zbek musiqqa madaniyati namunalari vositasida vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tushunchalariga ega bo‘ladi, o‘zlashtirilgan bilimlarga asoslangan xulosalar chiqara oladi, o‘quv yili davomida o‘tilgan musiqqa asarlarini ohangidan farqlab, ularning nomi va mualliflarini aytib beradi, turli xarakter va janrdagi musiqiy asarlarni tinglash bilan birga, unda qo‘llanilgan turli cholg‘ularning ifoda vositasida aks etgan badiiy obrazlarni tasavvur qiladi.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**Mavzularni o‘rganish uchun - 30 soat**

**Nazorat ishi uchun - 4 soat**

**Jami - 34 soat**

**6-SINF**

**(haftasiga 1 soat, jami 34 soat (A2))**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a’zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to‘g‘ri qabul qilish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;**

axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish. Internet-saytlardan musiqaga oid ma’lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila bilish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

bilimini mustaqil ravishda oshirib borish; o‘zining qiziqishlariga ko‘ra qobiliyatlarini namoyon qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini, Vatan, oila, mahallasining tarixini bilish va bugungi kun bilan taqqoslay olish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

sogʻlom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega boʻlgan urf-odatlar, marosimlarni bilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda oʻsish surʼatlarini bilish,  $2/4$ ,  $3/4$ ,  $4/4$  oʻlchovlarida kuylashda takt sanoqlarini hisoblash.

**MAVZU: MUMTOZ MUSIQA HAQIDA TUSHUNCHA****(9 soat)****1-mavzu: Mumtoz musiqa. (1 soat)****Musiqa tinglash:** Mumtoz musiqa asarlaridan namunalar tinglash.**Jamoa boʻlib kuylash:** “Oʻzbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi”. A. Oripov sheʼri, M. Burhonov musiqasi.**Musiqa savodi:** Solfedjio kuylash mashqlari.  $2/4$  oʻlchovida kuylash.**2-mavzu: Mumtoz kuylar. (1 soat)****Musiqa tinglash:** “Choʻli iroq”, “Qoʻshtor”, “Rohat”, “Janon” kuylarini tinglash.**Jamoa boʻlib kuylash:** “Bolalar”, J.Jabborov sheʼri, H.Rahimov musiqasi.**Musiqa savodi:** Do-majorni tonalligida berilgan kuyni notaga qarab kuylash.**3-mavzu: Mumtoz ashula. (1 soat)****Musiqa tinglash:** “Ushshoq”, “Soqiynomai Savti Kalon” va “Guluzorim” ashulalarini tinglash.**Jamoa boʻlib kuylash:** “Bolalar”, J.Jabborov sheʼri, H.Rahimov musiqasi.**Musiqa savodi:** Berilgan kuyni dirijorlik qilib, notalarini aniq, ravon va sof tovushda kuylash.**4-mavzu: Shashmaqom mumtoz musiqamiz asosi. (1 soat)****Musiqa tinglash:** Shashmaqom tarkibidagi asarlardan tinglash (“Tasnifi Buzruk”).**Jamoa boʻlib kuylash:** “Toshkent”, I.Jiyanov sheʼri, X.Hasanova musiqasi.**Musiqa savodi:** Berilgan kuyni turli ritmik shakllardan foydalangan holda kuylang.**5-mavzu: Katta ashula. Fargʻona - Toshkent mumtoz musiqasi. (1 soat)****Musiqa tinglash:** Katta ashulalardan namunalar tinglash. (“Dugoh Xusayniy taronasi” xalq musiqasi). “Bayot I”, “Mushkiloti Dugoh”, “Nasrulloi I” va katta ashulalardan namuna tinglash.**Jamoa boʻlib kuylash:** “Toshkent”, I.Jiyanov sheʼri, X.Hasanova musiqasi.**Musiqa savodi:** Berilgan kuyning nomini aniqlab, notaga qarab kuylang va davom ettiring.**6-mavzu: Xorazm vohasining mumtoz musiqasi. (1 soat)****Musiqa tinglash:** “Aliqambar” xalq musiqasini, “Suvora”, “Feruz I” ashulalarini tinglash.**Jamoa boʻlib kuylash:** “Aliqambar” kuyini notaga qarab kuylash.

**Musiqqa savodi:** Xorazm dostonchilik san'ati ijrochilik yo'llari haqida.

**7-mavzu: Surxondaryo - Qashqadaryo mumtoz musiqasi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** "Oshiq g'arib va Shohsanam" ("Tamoshosini" nomasi) va "Alpomish" dostonlaridan parchalar tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Munajjim bobom", P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Surxondaryo-Qashqadaryo doston ijrochilik uslubi haqida.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**8-mavzu: Mumtoz musiqqa. Klassik musiqqa madaniyati o'rni. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Xalq dostonlaridan namunalar tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Munajjim bobom", P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Kichik kuyga dirijorlik qilib, notaga qarab, sof ohangda kuylash.

## **MAVZU: ZAMONAVIY MUSIQA VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI**

**(7 soat)**

**9-mavzu: O'zbek zamonaviy musiqasi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** A.Mansurovning "Moziydan sado" poema-fantaziyasini tinglab, musiqiy filmini tomosha qilish.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "O'zbekimdan aylanay", D.A'zamova she'ri, G.Qo'chqorova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Kichik hajmdagi kuyni  $\frac{3}{4}$  o'lchovida dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovushda kuylang.

**10-mavzu: Zamonaviy musiqqa turlari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** R.Abdullayev musiqqa va N.Narzullayev she'ri, "Mustaqillik lolalarimiz" qo'shig'ini tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "O'zbekimdan aylanay", D.A'zamova she'ri, G.Qo'chqorova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Intervallarga misollar tuzish va kuylash.

**11-12-mavzu: Folklor musiqasi va dostonchilik san'ati. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Folklor ansambli ijrosida kuylar tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "O'zbekiston jannat", D.Rajab she'ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Folklor musiqasi.

**13-mavzu: Estrada musiqqa. B. Zokirov "Yalla" guruhi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** I. Akbarov musiqasi, S. Akbariy she'ri. "Ra'no" qo'shig'ini B. Zokirov ijrosida tinglash.

“Arab tangosi” va “Ra’no” S. Akbariy she’ri, I. Akbarov musiqasi (B. Zokirov ijrosida), “Yalla” vokal-cholg‘ul ansambli qo‘shiqlari – “Shahrisabz”, “Toshkentim”, “Choyxona” .

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “O‘zbekiston – abadiy bahorim”, Rauf Tolib she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiq savodi:** Estrada janrlari.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**14-mavzu: Musiq san’ati ko‘rik-tanlovlari va festevallari. (1 soat)**

**Musiq tinglash:** festival va ko‘rik-tanlov dasturlaridan tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “O‘zbekiston – abadiy bahorim”, Rauf Tolib she’ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiq savodi:** Festival va ko‘rik-tanlovlar haqida.

### **MAVZU: SHARQ XALQLARI MUMTOZ MUSIQASI (10 soat)**

**15-mavzu: Sharq xalqlari mumtoz musiqasi. Sharq taronalari. (1 soat)**

**Musiq tinglash:** “Sharq taronasi” festivali madhiyasi. U.Azim she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sharq taronasi” festivali madhiyasi. U. Azim she’ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiq savodi:** Berilgan kuyiga dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovushda kuylang.

**16-mavzu: Turk va Ozarbayjon mumtoz musiqasi. (1 soat)**

**Musiq tinglash:** Turk va Ozarbayjon xalq kuylaridan tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** D.Omonullayeva musiqasi, U.Azim she’ri, “Sharq taronasi” festivali madhiyasi.

**Musiq savodi:** Turk ozarbayjon xalq kuyiga dirijyolik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovushda kuylang.

**17-mavzu: Turkman xalqlarining mumtoz musiqasi. (1 soat)**

**Musiq tinglash:** “Zohre jan” turkman xalq kuyini tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Gushlar” turkman xalq qo‘shig‘i.

**Musiq savodi:** “Zohre jan” turkman xalq kuyiga dirijorlik qilib, notalarni, aniq ravon va sof tovushda kuylang.

**18-mavzu: Eron va Arab xalq mumtoz musiqasi. (1 soat)**

**Musiq tinglash:** Bolalar uchun yozilgan eron va arab kuy-qo‘shiqlaridan SD asarlardan namunalar yoki DVD disklarda foydalanib, parcha tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Gushlar” turkman xalq qo‘shig‘i.

**Musiq savodi:** “Dig‘ajon” xalq kuyiga dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovushda kuylang.

**19-mavzu: Xitoy va Uyg‘ur mumtoz musiqasi. (1 soat)**

**Musiq tinglash:** Xitoy va uyg‘ur xalq musiqasi namunalari. Bolalar uchun yozilgan musiqasini SD yoki DVD disklarda foydalanib tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Sport”, K.Turdieva she’ri, X.Xasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Berilgan kuyiga dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovushda kuylang.

**20-mavzu: Yapon va Hind mumtoz musiqasi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Yapon va Hind qo'shiqlaridan tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Dadil bo'lib – ahil bo'lib", P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Kichik kuyga dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovushda kuylang.

**21-mavzu: Qozoq va qirg'iz xalq mumtoz musiqasi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** bolalar uchun yozilgan qozoq va qirg'iz xalqlari musiqasidan namunalarni SD yoki DVD disklarda foydalanib tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Dadil bo'lib-ahil bo'lib" P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Kuy parchasini aniq va ravon sof tovushda kuylang.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**22-23-mavzu: Sharq xalqlarining kasbiy musiqasining o'xshashligi. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** O'zbek xalq musiqasidan namuna tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Do'stlar kuylaydi" I.Jiyanov she'ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Berilgan kuyini aniq va ravon sof tovushda kuylang.

## **MAVZU: YEVROPA MUMTOZ MUSIQASI BILAN TANISHUV (8 soat)**

**24-mavzu: Yevropa mumtoz musiqasi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** L. V. Betxoven asarlaridan yoki o'qituvchi ijrosida "Elizaga" asarini tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Kim epchilu kim chaqqon", A.Obidjon she'ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Kanatata, oratoriya va balet janrlarini farqi.

**25-mavzu: V.A.Mosart haqida. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** V.A.Mosartning asarlaridan yoki o'qituvchi ijrosida "Bahor sog' inchi" asarini tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Kim epchilu kim chaqqon", A.Obidjon she'ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Sonata janri.

**26-mavzu: Simfoniya haqida tushuncha. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** V.A.Mosartning asarlaridan namunalar tinglang. (40-simfoniyasi)

**Jamoa bo'lib kuylash:** "Laylaklar", A.Obidjon she'ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Simfoniyaning tarkibiy qismlari.

**27-mavzu: Kompozitor Lyudvig Van Betxoven. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** L.V.Betxovenning “Qahramonlik” 3-simfoniyasidan parcha tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Laylaklar”, A.Obidjon she‘ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Klassitsizm haqida.

**28-mavzu: Kompozitor Friderik Shopen. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** F. Shopen asarlaridan tinglash. F. Shopenning “Mazurka” asarini tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Diyorim”, R.Xo‘jayev she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Notali mashq kuylash.

**29-30-mavzu: Mixail Ivanovich Glinka haqida. Yevropa musiqasini jahon xalqlari orasida ommalashishi. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** M. I. Glinka asarlaridan tanlab, namuna tinglash (“Kamarinskaya” simfonik fantaziya). Yevropa mumtoz musiqalaridan namunalar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Diyorim”, R. Xo‘jayev she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “To‘rg‘ay” kuyini notaga qarab kuylash.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi:**

ohang harakatlanishining nota yozuvida ifodalanishini biladi hamda kuylay oladi, berilgan kuyini dirijorlik qilib, notalarini aniq, ravon va sof tovushda kuylay oladi.

Xorazm, Surxondaryo-Qashqadaryo doston ijrochilik uslubi haqidagi tushunchaga ega bo‘ladi.

Kichik hajmdagi kuyini  $\frac{3}{4}$  o‘lchovida dirijorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovushda kuylay oladi, intervallarga misollar tuzadi va kuylay oladi, Estrada janri, musiqqa festivallari va ko‘rik-tanlovlar haqidagi ma‘lumotlarni biladi, qardosh xalq kuylarini dirijorlik qilib, notaga qarab kuylay oladi. Sharq xalqlari musiqasi haqidagi ma‘lumotlarni biladi. Sonata janri, simfoniyaning tarkibiy qismlari va klassitsizm haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

**Jamoa bo‘lib kuylash kompetensiyasi:**

turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni sof ohangda kuylash, texnik hamda ifodaviy bezaklarini to‘g‘ri qo‘llash, qo‘shiqlar so‘z ma‘nolarini tushunib, ifodali kuylay olish layoqatiga ega bo‘ladi, o‘rganilgan qo‘shiqlarni so‘z va ohang mutanosibligida ifodali ijro eta oladi, kuylashda ansambl hosil qilish layoqatlariga ega bo‘ladi. Folklor janrlaridagi asar namunalarini kuylay oladi.

**Musiqqa tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi:**

tinglovchilik madaniyatiga ega bo‘ladi, o‘zbek musiqqa madaniyati namunalari vositasida vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tushunchalariga ega bo‘ladi, turli sharq xalqlari musiqasini tovush tembridan cholg‘ularni ajrata oladi, musiqani diqqat-e‘tibor bilan tinglab, idrok etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi, turli sharq xalqlari musiqasinitovush tembridan cholg‘ularni ajrata oladi, F.Shopen, M.Glinka



va Yevropa musiqasini jahon xalqlari orasida ommalashuvi haqida tushunchalariga ega bo‘ladi, jahon musiqasining turli xarakter va janrdagi musiqiy asarlarni tinglash bilan birga, ulardagi badiiy obrazlarni tasavvur qila oladi, maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodi, xalq sozanda va xonandalari ijodidan namunalar tinglaganda idrok etib, fikr bildira oladi.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**Mavzularni o‘rganish uchun - 30 soat**

**Nazorat ishi uchun - 4 soat**

**Jami - 34 soat**

## 7-SINF

**(haftasiga 1 soat, jami 34 soat (A2))**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a‘zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to‘g‘ri qabul qilish, turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildirish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish. Internet-saytlardan musiqaga oid ma‘lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila bilish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

bilimini mustaqil ravishda oshirib borish; o‘zining qiziqishlariga ko‘ra qobiliyatlarini namoyon qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

Vatan, oila, mahallasining tarixini, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

sog‘lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan urf-odatlar, marosimlarni bilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o‘shish sur‘atlarini bilish, Shashmaqom tarkibidagi maqomlar sonini bilish.

## MAVZU: XALQ MUSIQASINING MAHALLIY USLUBLARI

**(9 soat)**

**1-mavzu: Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi haqida tushuncha. Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik ana‘analari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Surxondaryo-Qashqadaryo musiqqa yo‘nalishidagi kuy, qo‘shiqlardan tinglash. “Go‘ro‘g‘li” yoki “Alpomish” dostonidan parcha tinglash. “Qay dostonidin aytayin” baxshi termasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “O‘zbekiston – onajon”, Qambar Ota she‘ri, M.Otajonov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik an‘analari.

**2-mavzu: Buxoro-Samarqand musiqqa uslubi haqida tushuncha. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Buxoro-Samarqand musiqqa yo‘nalishidagi kuy, qo‘shiqlardan tinglash. “Baljuvon” xalq kuyi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Tinchlik bo‘lsin”, H.Ahmedova she‘ri, X. Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Buxoro-Samarqand musiqqa uslubi.

**3-mavzu: Sozanda san‘ati. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Bo‘yi–bo‘yi” xalq qo‘shig‘i.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Ey, nozanin”, Muqimiy g‘azali, xalq kuyi.

**Musiqqa savodi:** Nota misolida interval turlarini aniqlash.

**4-mavzu: Farg‘ona-Toshkent musiqqa uslubi haqida tushuncha. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Xalq ashulalaridan parchalar tinglash, “Tanavor I” xalq ashulasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Toshkent shahrim”, P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Farg‘ona-Toshkent musiqqa ijro uslubini farqlash.

**5-mavzu: Katta ashula va yallachilik san‘ati. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Katta ashula va yallachilik qo‘shiqalaridan namuna tinglash, “Yallama - yorim” o‘zbek xalq yallasi.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Toshkent shahrim”, P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Patnisaki ashulalari haqidagi tassurotlarni boyitish.

**6-mavzu: Xorazm musiqqa uslubi haqida tushuncha. Xorazm dostonchilik an‘analari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Xorazm lazgisi” xalq kuyi, “Ovozing seni”.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Shodiyona”, R.Isroilova she‘ri, X.Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Farg‘ona-Toshkent musiqqa uslubidan Xorazm musiqqa ijro uslubini farqlash.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**7-mavzu: Xorazm ashulachilik san‘ati. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Savti suvora I”, Xorazm ashulalaridan namunalar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Ona tilim-o‘zbek tilim” P.Mo‘min she‘ri, Farhod Alimov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “Qalabandi” o‘zbek xalq kuyi.

**MAVZU: MAQOMLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA**  
**(7 soat)**

**8-mavzu: Maqom haqida tushuncha. Shashmaqom. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Samoi dugoh”, “Dugoh” maqomidan.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Savti kalon soqiynomasi” ashulasi, “Rost” maqomidan, Bobur g‘azali.

**Musiqqa savodi:** VI maqom haqida.

**9-10-mavzu: Shashmaqom cholg‘u (mushkilot) va ashula (nasr) bo‘limi. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Tasnifi buzruk”, “Nasrulloiy” “Buzruk” maqomidan, Navoiy g‘azali.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Savti kalon soqiynomasi” ashulasi, “Rost” maqomidan, Bobur g‘azali.

**Musiqqa savodi:** Ufar usuli haqida. Ota Jalol Nosir haqida.

**11-mavzu: Xorazm maqomlari. Xorazm chertim yo‘li. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Xorazm maqomlaridan namuna tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “O‘zbekiston”, M.Omon she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Ufar usuli haqida. Ota Jalol Nosir haqida.

**12-mavzu: Xorazm maqom – aytim yo‘llari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Xorazm maqom – aytim yo‘llarida kuy tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “O‘zbekiston”. M.Omon she‘ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Komiljon Otaniyozov haqida.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**13-mavzu: Farg‘ona – Toshkent cholg‘u kuylari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** “Nasrullo I”, “Dugoh–Husayn I” Navoiy g‘azali, Farg‘ona –Toshkent maqom yo‘li kuylaridan namunalar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Mehr qo‘shig‘i”, N. Isroilov she‘ri, X. Hasanova musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Mulla To‘ychi Toshmuhammedov haqida.

## **MAVZU: O‘ZBEK MUSIQASINING JAHON MUSIQA SAN‘ATIDA TUTGAN O‘RNI (10 soat)**

**14-mavzu: Jahon musiqqa madaniyati haqida. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** I.S. Bax asarlaridan namunalar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Keng Turkiston”, P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Polifoniya haqida tushuncha.

**15-mavzu: Sharq allomalari musiqqa haqida. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** O‘zbek mumtoz asarlaridan namuna tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Keng Turkiston”, P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Abu Nasr Farobiy musiqqa haqida.

**16-mavzu: Jahon musiqasi rivojining asosiy bosqichlari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Antonio Vivaldining “Yil fasillari” turkumidan namunalar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Yurtga sadoqat”, S.Barnoyev she‘ri, X.Raximov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Tinglangan kuyni tahlil qilish.

**17-mavzu: Vena klassik maktabi namoyondalari. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** I.Gaydn, V.Mosart, L.Betxoven asarlaridan namunalar tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Bahor chorlovi” Betxoven musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Mosart va Betxoven ijodi haqida.

**18-mavzu: XIX-XX asr musiqqa madaniyati. Musiqada impressionizm. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** F.Shubertning “Serenada”sini tinglang.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Yoshlik qo‘shig‘i” (Savti Munojot kuyi), Muxtor Ashrafiy qayta ishlagan.

**Musiqqa savodi:** F.Shubertning “Serenada”sini tahlil qilish.

**19-20-mavzu: XX asr O‘zbekiston musiqqa madaniyati. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Xoji Abdulaziz Rasulov ijrosida “Shashmaqom” asaridan namunalar tinglash. “Tohir va Zuhra” musiqali dramasidan Tohir va Zuhra duetini tinglang

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Zaynab va Omon” operasidan Ergash qo‘shig‘i .

**Musiqqa savodi:** Yunus Rajabiy hayoti va ijod yo‘li.

**21-mavzu: O‘zbek musiqasida kompozitorlik ijodiyoti. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** O‘zbek kompozitorlari ijodidagi asarlardan parcha tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Yakkadir Toshkent”, Usmon Qo‘chqor she‘ri, Dilolrom Omonullayeva musiqasi.

**Musiqqa savodi:** V.A.Uspenskiy haqida.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**22-mavzu: Mirsodiq Tojiyev ijodida o‘zbek simfoniyasining yuksalishi. Matniyoz Yusupov ijodi. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Matniyoz Yusupovning asarlaridan CD yoki DVD disklarda foydalanib tinglash.

**Jamoa bo‘lib kuylash:** “Navro‘z qo‘shig‘i”, Nazarmat she‘ri, R.Abdullayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Mirsodiq Tojiyev va Matniyoz Yusupov ijodi haqida.

## **MAVZU: O‘ZBEKISTONNING MUSIQA MADANIYATI (8 soat)**

**23-mavzu: O‘zbek zamonaviy musiqqa madaniyati haqida. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash::** O‘zbek simfonik musiqalardan parcha tinglash.

**Jamoa bo'lib kuylash:** “Navro‘z qo‘shig‘i”, Nazarmat she‘ri, R.Abdullayev musiqasi.

**Musiqqa savodi:** Qashqarcha usuli.

**24-25-mavzu: Atoqli o‘zbek san’atkorlari va musiqiy jamoalari. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** O‘zbek kompozitorlari ijodidan namunalar tinglash. “Ey, o‘g‘il”, Salohiy she‘ri, O. Hotamov musiqasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** “Ustozlarim”, S.O‘rinova she‘ri, N.Rahimov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “Dutorchi qizlar” ansambli haqida.

**26-mavzu: Teatr san’ati va konsert ijrochilik faoliyati. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Yangi yaratilgan spektakllardan namunalar tinglash. “Mavlon ota qo‘shig‘i”, N.Narzullayev she‘ri, F.Alimov musiqasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** “Ustozlarim”, S.O‘rinova she‘ri, N.Rahimov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “Boysun” folklor ansambli haqida.

**27-28-mavzu: Televidenie va kino musiqasi haqida. (2 soat)**

**Musiqqa tinglash:** Kino musiqalaridan namunalar tinglash. “Tangalik bolalar” filmidan “Tulpor” qo‘shig‘ini tinglang.

**Jamoa bo'lib kuylash:** “Vatanginam”, P.Mo‘min she‘ri, A.Mansurov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** “Tangalik bolalar” filmidan parcha ko‘rish va tinglash.

**29-mavzu: “O‘zbek musiqqa san’atining jahon sahnasiga chiqishi”. (1 soat)**

**Musiqqa tinglash:** O‘zbek kompozitorlarining asarlaridan namunalar tinglash. “Hunarmand yoshlar madhiyasi”, Q. Mamirov she‘ri va musiqasi.

**Jamoa bo'lib kuylash:** “Samarqand”, S. Barnoyev she‘ri, H. Rahimov musiqasi.

**Musiqqa savodi:** So‘g‘diyona kamer orkestri.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Musiqiy savodxonlik kompetensiyasi:**

Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik ana’analarini biladi. Buxoro-Samarqand musiqqa uslubini haqida biladi. Farg‘ona-Toshkent musiqqa uslubidan Xorazm musiqqa ijro uslubini farqlay oladi. Notalar misolida interval turlarini ajratadi. Patnisaki ashulalari haqidagi tassurotlarni boyitadi. VI maqom haqida hamda ufar usulini biladi. “Boysun” folklor ansambli va “So‘g‘diyona” kamer orkestri haqida biladi.

**Jamoa bo'lib kuylash kompetensiyasi:**

turli tuzilishdagi qo‘shiqlarni sof ohangda kuylab, turli dinamik belgilarida artikulyatsiya apparatini faol va to‘g‘ri ishlatib, qo‘shiqlar so‘z ma’nolarini tushunib, ifodali kuylay olish layoqatiga ega bo‘ladi, o‘rganilgan qo‘shiqlarni so‘z ma’nolarini anglagan holda ifodali ijro eta olish, ayrim qo‘shiqlarni cholg‘u asbobi jo‘rligida kuylay olish, kuylashda ansambl hosil qilish layoqatlariga ega bo‘ladi.

**Musiqqa tinglash va tahlil qilish kompetensiyasi:**

musiqani diqqat bilan tinglab, idrok etish ko'nikmalariga ega bo'lib, tovush tembridan cholg'ularni ajrata olish, tinglovchi madaniyatiga ega bo'lish, o'zbek musiqa madaniyati namunalari vositasida vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tushunchalariga ega bo'ladi, turli xarakter va janrdagi musiqiy asarlarni tinglash bilan birga, unda qo'llanilgan turli cholg'ularning ifoda vositasida aks etgan badiiy obrazlarni tasavvur qila oladi, maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodi, xalq sozanda va xonandalari ijodi, kino musiqa namunalaridan tinglaganda idrok etib, fikr bildira oladi.

### **O'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

#### **A2**

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

jamo'a bilan munosabatlarda jamoa fikrini qo'llab-quvvatlaydi, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi, hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a'zolari fikrini tinglay biladi, hurmat qiladi, to'g'ri qabul qiladi. hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a'zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, to'g'ri qabul qilish, turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildiradi.

#### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

axborot manbalaridan (ommaviy axborot vositalari: jurnal, gazeta, televizor, radio audio-video yozuv, kompyuter) foydalana oladi. Internet-saytlardan musiqaga oid ma'lumotlarni topa oladi va ularni tahlil qila biladi.

#### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

o'qib-o'rganish uchun fan to'garagiga qatnashadi, bilimini mustaqil ravishda oshirib boradi, o'zining qiziqishlariga ko'ra qobiliyatlarini namoyon qila oladi.

#### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

Vatan, oila, mahallasining tarixini, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini biladi.

#### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

madaniy-axloqiy me'yorlarga amal qiladi, sog'lom turmush tarziga amal qiladi, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan urf-odatlar, marosimlarni biladi.

#### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

musiqaga oid ijtimoiy munosabatlarda o'zlashtirgan bilimlarini (ritm, metr, o'lchov, tovushlar oralig'i va balandligi) qo'llagan holda fikr bildira oladi, turli chizmalardan foydalana oladi, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o'sish sur'atlarini biladi, 2/4, 3/4, 4/4 o'lchovlarida kuylashda takt sanoqlarini hisoblay oladi. Shashmaqom tarkibidagi maqomlar sonini biladi. Qashqarcha usulining zarblar sanog'ini biladi.

#### **Nazorat ishi. (1 soat)**

#### **Mavzularni o'rganish uchun - 30 soat**

#### **Nazorat ishi uchun - 4 soat**

#### **Jami - 34 soat**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi PF-3431.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirli va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 140-sonli qarori.

**Umumiy o'rta ta'limning Musiqa madaniyati fanidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha ijodiy guruhi**

<b>T/r</b>	<b>Ismi va familiyasi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1	Mansurov Avaz Maqsudovich	O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, guruh rahbari
2	Abralova Munojot Jo'rayevna	Respublika ta'lim markazi direktor o'rinbosari
3	Begmatov Soyibjon Maxmudovich	O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori
4	Ahmedov Ma'ruf Ma'mirovich	O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi "O'quv-uslubiy" bo'limi boshlig'i.
5	Panjiyev Qurbonniyoz	Nizomiy nomidagi TDPU San'at fakulteti kafedrasida mudiri, dotsent,
6	Ualiyeva Gulchehra Islamovna	Toshkent shahar XTXQTMOI katta o'qituvchisi
7	Ishmuratova Ziyoda Baxromovna	Toshkent shahar Sergeli tumani 300-sonli umumta'lim maktabi musiqa madaniyati o'qituvchisi
<b>EKSPERT GURUHI</b>		
1	Zokirova Zulfiya Abdukamilevna	Toshkent shahar Yunusobod tumani 17-umumta'lim maktabi musiqa madaniyati o'qituvchisi
2	Axmadeyeva Feruza Axmadovna	Toshkent shahar Sergeli tumani 284-sonli umumta'lim maktabi musiqa madaniyati o'qituvchisi



**17-§. Chizmachilik fani**  
**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida chizmachilik fanini oʻrganish**  
**bosqichlari**

<b>Taʼlim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Standart darajasi</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy oʻrta taʼlim</b>	Umumtaʼlim maktablarining 8-sinf bitiruvchilari	<b>A1</b>	Chizmachilik fanini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
	Umumtaʼlim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	<b>A2</b>	Chizmachilik fanini oʻrganishning tayanch darajasi

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida chizmachilik fanini oʻqitishning maqsad va vazifalari**

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida chizmachilik fanini oʻqitishning asosiy maqsadi:**

oʻquvchilarning hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatda ifodalash orqali tafakkurini oʻstirish, murakkab boʻlmagan texnik chizmalarni bajarishga, oʻqishga va oʻz fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga oʻrgatishdan iborat.

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida chizmachilik fanini oʻqitishning asosiy vazifasi:**

chizmalar chizish va chizmani oʻqish qoidalariga amal qilish, grafik tafakkurini hayotda qoʻllay olish layoqatini shakllantirish;

texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish;

chizmachilikda qoʻllaniladigan termin va tushunchalardan, sodda elektron dasturlardan amaliyotda qoʻllashga oʻrgatish;

texnika va texnologiyalarning takomillashib borishini hisobga olgan holda ongli ravishda kasb tanlashga yoʻnaltirish;

chizmachilik ish qurollaridan toʻgʻri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda toʻgʻri bajarishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

**Chizmachilik fani boʻyicha umumiy oʻrta taʼlim muassasalari bitiruvchilariga qoʻyiladigan malaka talablari**

**Chizmachilikda qoʻllaniladigan termin va tushunchalarni bilish hamda qoʻllay olish kompetensiyasi**

**A1**

Grafik tasvirlar, jihozlar, standart shriftlar, oddiy geometrik yasashlar, tutashmalar, egri chiziqlar, koʻrinishlar, geometrik figuralarning proeksiyalari, koʻpyoqliklarning yoyilmalarini bir-biridan ajrata oladi;

detal modellarini konstruksiyalay oladi;

yaqqol tasvirlar, aksonometrik proeksiyalar, eskiz va texnik rasmlarni chiza oladi.

**A2**

Kesim, qirqim, shartlilik va soddalashtirish, loyihalash elementlari, boltli va shpilkali birikmalar, oddiy yig'ish chizmalarini tuzadi va o'qiy oladi;

sodda buyumlarni konstruksiyalash, kinematik-radio va elektrik sxemalarni, qurilish chizmalarini chiza oladi, ular haqidagi fikrlarni og'zaki va yozma bayon eta oladi.

## **2. Ish quollaridan to'g'ri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi**

### **A1**

Chizmalarni taxt qilish, chizma shriftlarini qoidalar asosida chizish, geometrik yasashlarni bajarish, proeksion chizmalarni chizish, aksonometrik proeksiyalarni yasash hamda detalning eskizi va texnik chizmani bajarish jarayonlarida ish quollaridan to'g'ri foydalana oladi.

### **A2**

Kesim va qirqim chizmalarni to'g'ri tasvirlay oladi;

tarkibida loyihalash elementlari bo'lgan chizmalarni bajara oladi;

boltli va shpilkali birikmalarni chiza oladi;

oddiy yig'ish chizmalari hamda sodda buyumlarning konstruksiyalarini chizishda, sxemalarni, qurilish chizmalarini bajarishda ish quollaridan to'g'ri foydalana oladi.

# CHIZMACHILIK FANI O'QUV DASTURI (8-9-sinflar)

## UQTIRISH XATI

Ushbu o'quv dasturi umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanini Davlat ta'lim standarti asosida o'qitishning mazmun-mohiyatini, maqsad va vazifalarini yoritib beradi.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chizmachilik fanini o'qitishning asosiy maqsadi:**

o'quvchilarning fazoviy tasavvurini amaliy faoliyatda ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, murakkab bo'lmagan texnik chizmalarni bajarishga, o'qishga va o'z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga o'rgatishdan iborat.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chizmachilik fanini o'qitishning asosiy vazifasi:**

chizmalar chizish va chizmani o'qish qoidalariga amal qilish, grafik tafakkurini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish;

texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish;

chizmachilikda qo'llaniladigan termin va tushunchalarni, sodda elektron dasturlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish;

texnika va texnologiyalarning takomillashib borishini hisobga olgan holda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

integratsiya orqali grafik bilimlar samaradorligini oshirish;

chizmachilik ish qurollaridan to'g'ri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda to'g'ri bajarishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalari elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

**A1**

og'zaki va yozma nutqda adabiy til normalariga rioya qilish va xorijiy tillarning birida erkin suhbatlasha olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilgan holda suhbatdosh fikrini hurmat qilish hamda o'z g'oyasini himoya qilish va unga ishontirish; turli ziddiyatli vaziyatlarda o'zini tuta olish, muammolarni hal etishda zarur qarorlarni qabul qilish.

**A2**

ona tili va xorijiy tillardan birida muloqotga kirishish; mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; o'zaro muloqotda muomala

madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qilish va unga ishontirish; turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildirish va zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish.

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A1**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali ma'lumot almashish) foydalanish; media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlashda media savodxonligini shakllantirish; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (anketalarni to'ldirish, o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta olish).

#### **A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo'natish) foydalana olish; media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish; EXCELda ma'lumotlar bazasini yaratish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (tavsifnoma yozish, ariza, shaxsiy ma'lumotnoma).

### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A1**

bilimini mustaqil ravishda oshirib borish, o'qib o'rganganlarini o'rtoqlari bilan muhokama qilish; o'qib-o'rganganlarini amaliyotda qo'llay olish, o'zining qobiliyatlarini namoyon qila olish (bilimlar bellashuvi, turli ko'rik-tanlovlarlarda ishtirok etish); sport bilan muntazam shug'ullanish; maktabda, mahallada, jamoat joylarida katta va kichiklarga to'g'ri va do'stona munosabatda bo'lish, zarur hollarda yordam berish; halol va to'g'ri so'z bo'lish; o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish; do'stona tanqiddan xulosa chiqarish; shaxsiy gigiena va texnika xavfsizligi qoidalariga muntazam rioya qilish.

#### **A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish; guruhlarda ishlashda masuliyatni o'ziga olish, lider bo'la olish, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish; konstitutsion huquq va burchlaridan to'g'ri foydalana olish; jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; o'zining qiziqishlariga qarab qobiliyatlarini namoyon qila olish, fan olimpiadalarida, turli musobaqalar, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish; halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A1**

asosiy tamoyilar, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik tushunchalarini bilish; O‘zbekistondagi demokratik o‘zgarishlar va mafkuraviy jarayonlarni bilish; mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, ekologik, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish; jamiyat va oilasi manfaatlarini uchun xizmat qilish

## **A2**

sog‘lom e‘tiqod va dunyoqarash tushunchalarini bilish; jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘lmaslik, o‘z munosabatini bildirish; Vatan oldidagi mas‘uliyatni his qilish; kasblarning mohiyatini tushunish va ongli ravishda tanlash, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini bilish va unga amal qilish; mehnat hamda fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, ekologik, huquqiy madaniyatga rioya qilish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A1**

o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, sahiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik hususiyatlarini xurmat qilish; milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash tushunchalarini anglash; milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini bilish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ajrata bilish.

#### **A2**

xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish; milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini bilish; umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar) bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

#### **A1**

kundalik faoliyatida turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalardan foydalana olish; aniq-hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, iqtisodiy rejalarini tuza olish; o‘z faoliyatini rejalashtira olish, tahlil qila olish, o‘z-o‘zini baholay olish, inson mehnatini yengillashtiradigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

#### **A2**

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish, taraqqiyotni isloh qilishning besh tamoyili va yetti ustuvor yo‘nalishini sharhlay olish; mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera olish, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o‘shish sur‘atlarini bilish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish.

Shuningdek, me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

### **I. TK-tayanch kompetensiya**

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umuminsoniy kompetensiya
6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

### **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1- Chizmachilikda qo'llaniladigan termin va tushunchalarni bilish hamda qo'llay olish kompetensiyasi.
2. FK2- Ish qurollaridan to'g'ri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda to'g'ri bajarish kompetensiyasi.

## **8-SINF**

**(34 soat haftasiga 1 soat)**

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

**Kommunikativ kompetensiyasi:** mavzudan kelib chiqib to'g'ri javob bera oladi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana oladi.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:** shaxs sifatida doimiy ravishda o'zini-o'zi rivojlantirib, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intila oladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:** Mehnat qonunchiligida o'z haq huquqlarini biladi, jamiyat va oilasi manfaatlarini uchun xizmat qila oladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:** Vatanga sadoqatli, insonlarga mehroqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'la oladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:** aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy rejalarini tuza oladi.

- 1-mavzu:** Chizmachilik kursiga kirish. (1soat)
- 2- mavzu:** Chizmalarni taxt qilish, standartlar, formatlar, masshtab. (1 st)
- 3-mavzu:** Chiziq turlari. O‘lcham qo‘yish qoidalari. (1 soat)
- 4-mavzu:** Chizma shriftlari va ularning o‘lchamlari. (1 soat)
- 5-mavzu:** Bosh va yozma harflar hamda raqamlarning yozilishi. (1 soat)
- 6-mavzu:** Geometrik yasashlar. Turli xil chiziqlar chizish. (1soat)
- 7-mavzu:** Burchak yasash va ularni teng bo‘laklarga bo‘lish, muntazam ko‘p burchaklar yasash. (1soat)
- Nazorat ishi** (1soat)
- 8-mavzu:** Geometrik naqsh-girix chizish. (1soat)
- 9-mavzu:** Tutashmalar, to‘g‘ri, o‘tmas va o‘tkir burchak tomonlarini tutashtirish. (1 soat)
- 10-mavzu:** Aylana va to‘g‘ri chiziqlarni tutashtirish. Ikki aylanani uchinchi aylana yordamida tutashtirish. (1soat)
- 11-mavzu:** Proyeksiyalash, markaziy va parallel proyeksiyalash. (1soat)
- 12-mavzu:** Oktant va epyur haqida umumiy tushuncha. (1 soat)
- 13-mavzu:** To‘g‘ri chiziqning proyeksiyalari. (1 soat)
- 14-mavzu:** Tekis shaklning proyeksiyalari. (1soat)
- 15-mavzu:** Modelni 1 ta, o‘zaro perpendikulyar 2 ta proyeksiyalar tekisligiga proyeksiyalash va tekis chizma (epyur) hosil qilish. (1 soat)
- Nazorat ishi** (1soat)
- 16-mavzu:** Geometrik jismlar va ularning proyeksiyalarini yasash. (1soat)
- 17-mavzu:** Ko‘pyoqliklarning yoyilmalari. (1soat)
- 18-mavzu:** Silindr, konus, shar va piramidalarning proyeksiyalari. (1 soat)
- 19-mavzu:** Aylanish sirtlarining shaklining yoyilmalari. (1 soat)
- 20-mavzu:** Ko‘rinishlar. Bosh, asosiy va mahalliy ko‘rinishlar. (1soat)
- 21-mavzu:** Texnik modelni konstruksiyalash va uning ko‘rinishlarini yasash. Modelni asliga qarab uning ko‘rinishlarini chizish. (1soat)
- 22-mavzu:** Oddiy modelning chizmasini tahlil qilish, geometrik jismlarga ajratish. (1 soat)
- 23-mavzu:** Chizmalarni o‘qish tartibi va qoidalari. Chizmani o‘qish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot. (1 soat)
- Nazorat ishi** (1soat)
- 24-mavzu:** Aksonometrik proyeksiyalar. (1 soat)
- 25-mavzu:** Tekis shakllarning frontal ko‘rinishi. Tekis shakllarni izometriyada yasash. (1 soat)
- 26-mavzu:** Detalning frontal dimetrik proyeksiyasi. (1soat)
- 27-mavzu:** Detalning izometrik proyeksiyasi. (1soat)
- 28-mavzu:** Aksonometrik proyeksiyalar bo‘yicha amaliy mashg‘ulot. (1 soat)
- 29-mavzu:** Eskizlar haqida tushuncha va uni chizish bosqichlari. O‘quv modelining eskizini chizish. (1 soat)
- 30-mavzu:** Texnik rasm chizish. (1 soat)
- Nazorat ishi** (1soat)

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Chizmachilikda qo‘llaniladigan termin va tushunchalarni bilish hamda qo‘llay olish kompetensiyasi:**

Grafik tasvirlar, jihozlar, standart shriftlar, oddiy geometrik yasashlar, tutashmalar, egri chiziqlar, ko‘rinishlar, geometrik figuralarning proyeksiyalari, ko‘pyoqliklarning yoyilmalarini bir-biridan ajrata oladi, yaqqol tasvirlar, aksonometrik proyeksiyalar, eskiz va texnik rasmlarni chiza oladi.

**Ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda to‘g‘ri bajarish kompetensiyasi:**

Chizmalarni taxt qilish, chizma shriftlarini qoidalar asosida chizish, geometrik yasashlarni bajarish, proeksion chizmalarni chizish, aksonometrik proyeksiyalarni yasash hamda detalning eskizi va texnik rasm bajarish jarayonlarida ish qurollaridan to‘g‘ri foydalana oladi.

**Mavzularni o‘rganish uchun - 30 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 4 soat**

**Jami - 34 soat**

## **9-SINF**

**(34 soat haftasiga 1 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiyasi:** ijtimoiy moslashasha oladi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa oladi.

**O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiya:** hayot davomida o‘qib-o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib bora oladi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:** orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me‘yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qila oladi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:** Mehnat qonunchiligida o‘z xaq-huquqlarini bila oladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:** kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish. Ihteraktiv tarzda bilim olish.

**1-mavzu:** Sakkizinchi sinfda o‘tilgan materiallarni takrorlash va umumlashtirish. (1 soat)



- 2-mavzu:** Kesimlar (1 soat)
- 3-mavzu:** Kesim turlari (1soat)
- 4- mavzu:** Kesimda shartlilik va soddalashtirishlar. (1 soat)
- 5-mavzu:** Qirqimlar. (1soat)
- 6-mavzu:** Oddiy qirqimlar,ularning chizmalarda belgilanishi va joylashishi. (1soat)
- 7-mavzu:** Murakkab qirqimlar, og‘ma va mahalliy qirqimlar, uning turlari (1 soat)
- 8-mavzu:** Ko‘rinishning yarmi bilan qirqimning yarmini birlashtirish (1soat)
- Nazorat ishi** (1soat)
- 9-mavzu:** Ko‘rinishning qismini qirqimning qismi bilan birlashtirib tasvirlash (1 soat)
- 10-mavzu:** Aksonometrik proyeksiyalarda izometriyada qirqim bajarish (1 soat)
- 11-mavzu:** Frontal dimetriyada qirqim bajarish (1 soat)
- 12-mavzu:** Kesim va qirqim talab qiladigan detallarning eskizini bajarish (1soat)
- 13-mavzu:** Eskiz chizish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot va texnik rasm chizish. (1soat)
- 14-mavzu:** Chizmalarda shartlilik va soddalashtirish. (1soat)
- 15-mavzu:** Detalning shaklini konstruktiv o‘zgartirishga oid loyihalar (1 soat)
- Nazorat ishi** (1soat)
- 16-17- mavzu:** Detalning fazoviy holatini o‘zgartirish. (2 soat)
- 18-mavzu:** Loyihalashga doir grafik masalalar. (1 soat)
- 19-mavzu:** Mashinasozlik chizmalari. (1 soat)
- 20-mavzu:** Ajraladigan va ajralmaydigan birikmalar. (1soat)
- 21-mavzu:** Rezbalar va ularning turlari. (1soat)
- 22-mavzu:** Shpilkali birikmani chizish. (1soat)
- 23-mavzu:** Oddiy yig‘ish chizmalarini o‘qish. (1soat)
- 24-mavzu:** Konstruksiyalashga doir masalalar(1soat)
- Nazorat ishi** (1soat)
- 25-mavzu:** Kompyuterda to‘g‘ri chiziq va tekis shakllarni yasash. (1 soat)
- 26-mavzu:** Kompyuterda burchak yasash va ularni teng bo‘laklarga bo‘lish, muntazam ko‘p burchaklar yasash. (1soat)
- 27-mavzu:** Kompyuterda buyumlarni konstruksiyalash (1 soat)
- 28-mavzu:** Qurilish chizmalari (1 soat)
- 29-mavzu:**Qurilish chizmalarini o‘qish. (1 soat)
- 30-mavzu:** Bosh plan chizish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot (1 soat)
- Nazorat ishi** (1soat)

**O‘quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalar elementlari:  
Kommunikativ kompetensiya:**

**A1**

ogʻzaki va yozma nutqda adabiy til normalariga rioya qila oladi va xorijiy tillarning birida erkin suhbatlasha oladi, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan toʻgʻri qoʻya oladi va javob bera oladi; oʻzaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilgan holda suhbatdosh fikrini hurmat qiladi hamda oʻz gʻoyasini himoya qiladi va unga ishontira oladi; turli ziddiyatli vaziyatlarda oʻzini tuta oladi, muammolarni hal etishda zarur qarorlarni qabul qila oladi.

## **A2**

mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan toʻgʻri qoʻya oladi va javob bera oladi; oʻzaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qila oladi, jamoaviy hamkorlikda ishlay oladi, suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda oʻz pozitsiyasini himoya qilish va unga ishontira oladi; turli ziddiyatli vaziyatlarda oʻz ehtiroslarini boshqara oladi, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildira oladi. Tasviriy sanʼat faniga oid atamalarni xorijiy tillarda ifodalay oladi, oʻz doʻstlari bilan texnika tilida muloqotga kirisha oladi; zarur boʻlgan qarorlarni qabul qila oladi.

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A1**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali maʼlumot almashish) foydala oladi; media vositalardan zarur boʻlgan axborotlarni izlab topa oladi, saralash, qayta ishlashda media savodxonligini shakllantira oladi; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay oladi.

#### **A2**

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar joʻnatish) foydalana oladi; media vositalardan zarur boʻlgan axborotlarni izlab topa oladi, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash xavfsizligini taʼminlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qila oladi. EXCELda maʼlumotlar bazasini yoza oladi, asosiylarini tanlay oladi va ularni tahlil qila oladi; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay oladi tavsifnoma yozish, ariza, shaxsiy maʼlumotnoma yarata oladi.

### **Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A1**

bilimini mustaqil ravishda oshirib boradi, oʻqib oʻrganganlarini oʻrtoqlari bilan muhokama qila oladi; oʻqib-oʻrganganlarini amaliyotda qoʻllay oladi, oʻzining qobiliyatlarini namoyon qila oladi (bilimlar bellashuvi, turli koʻrik-tanlovlarlarda ishtirok etadi); sport bilan muntazam shugʻullanadi; maktabda, mahallada, jamoat joylarida katta va kichiklarga toʻgʻri va doʻstona munosabatda boʻla oladi, zarur hollarda yordam bera oladi; halol va toʻgʻri soʻz boʻla oladi; oʻz xatti-harakatlarini nazorat qila oladi; doʻstona tanqiddan xulosa chiqara oladi; shaxsiy gigiena va texnika xavfsizligi qoidalariga muntazam rioya qila oladi.

#### **A2**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'zini-o'zi rivojlantira oladi; guruhlarda ishlashda mas'uliyatni o'ziga oladi, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladi; jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intila oladi; o'zining qiziqishlariga qarab qobiliyatlarini namoyon qila oladi, ongli kasb tanlash, halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlariga ega, lider bo'la oladi, konstitutsion huquq va burchlaridan to'g'ri foydalana oladi.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A1**

asosiy tamoyilar, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik tushunchalarini biladi; O'zbekistondagi demokratik o'zgarishlar va mafkuraviy jarayonlarni biladi; mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, ekologik, huquqiy madaniyatga ega; jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qila oladi.

#### **A2**

sog'lom e'tiqod va dunyoqarash tushunchalarini biladi; jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaydi; Vatan oldidagi mas'uliyatni his qila oladi, kasblarning mohiyatini tushunib va ongli ravishda tanlay oladi; mehnat hamda fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, ekologik, huquqiy madaniyatiga rioya qila oladi; jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaydi, o'z munosabatini bildira oladi; inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini bilish va unga amal qila oladi.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A1**

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, sahiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlarini xurmat qila oladi; milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash tushunchalarini anglay oladi; milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini biladi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ajrata oladi.

#### **A2**

xalq hunarmandchiligi yo'nalishlarida ularning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini o'rganadi, avaylab asraydi, an'ana va marosimlarini hurmat qila oladi; umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar) biladi va unga hurmat bilan munosabatda bo'la oladi; milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini biladi.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

#### **A1**

kundalik faoliyatida turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalardan foydalana oladi; aniq-hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, iqtisodiy rejalarini tuza olish; o'z faoliyatini rejalashtira oladi, tahlil qila olish, o'z-o'zini

baholay olish, inson mehnatini yengillashtiradigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor hamda foydalana oladi.

## **A2**

mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga tutgan oʻrni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera oladi, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarida oʻsish surʼatlarini bila oladi; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni oʻqib foydalana oladi; inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor hamda foydalana oladi, taraqqiyotni isloh qilishning besh tamoyili va yetti ustuvor yoʻnalishini sharhlay oladi.

### **Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Chizmachilikda qoʻllaniladigan termin va tushunchalarni bilish hamda qoʻllay olish kompetensiyasi:**

Kesim, qirqim, shartlilik va soddalashtirish, loyihalash elementlari, boltli va shpilkali birikmalar, oddiy yigʻish chizmalarini tuzadi va oʻqiy oladi, sodda buyumlarni konstruksiyalash, kinematik-radio va elektrik sxemalarni, qurilish chizmalarini chiza oladi, ular haqidagi fikrlarni ogʻzaki va yozma bayon eta oladi.

**Ish quollaridan toʻgʻri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda toʻgʻri bajarish kompetensiyasi:**

Kesim va qirqim chizmalarni toʻgʻri tasvirlay oladi, tarkibida loyihalash elementlari boʻlgan chizmalarni bajara oladi, boltli va shpilkali birikmalarni chiza oladi, oddiy yigʻish chizmalari hamda sodda buyumlarning konstruksiyalarini chizishda, sxemalarni, qurilish chizmalarini bajarishda ish quollaridan toʻgʻri foydalana oladi.

**Mavzularni oʻrganish uchun - 30 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 4 soat**

**Jami - 34 soat**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi ”Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 390-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2004 yil 21 maydagi “2004-2009 yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi PF-3431.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirli va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari hamda oliy ta’limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash to‘g‘risida” gi 6/2/4/1-sonli qo‘shma hay'at majlisi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli qarori.

**Umumiy o‘rta ta’limning Chizmachilik fanidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy guruhi**

<b>T/r</b>	<b>Ismi va familiyasi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1	A.Asherbaev	Nizomiy nomidagi TDPUda Chizmachilik va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida guruh rahbari
2	I.Rahmonov	Nizomiy nomidagi TDPU professori
3	A. Valiyev	Nizomiy nomidagi TDPUda Chizmachilik va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi
4	M.Xalimov	Nizomiy nomidagi TDPUda Chizmachilik va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida mudiri
5	D.Irgasheva	Toshkent shahar 1-sonli pedagogika kolleji chizmachilik fani o‘qituvchisi
<b>EKSPERT GURUHI</b>		
1	M.Tolipova	Respublika ta’lim markazi “Musiqqa, san’at, texnologiya, jismoniy komolot va salomatlik” bo‘limi bosh metodisti
2	D.Sirojiddinova	Toshkent shahar Olmazor tumani 249-sonli umumta’lim maktabi chizmachilik fani o‘qituvchisi
3	A.Bo‘ribeko‘v	Toshkent viloyati Qibray tumani 4-sonli umumta’lim maktabi chizmachilik va tasviriy san’at fani o‘qituvchisi